Conflicts between Egypt and the Hittites reached their peak at the Battle of Kadesh (c. 1274 BC), which became one of Ramesses II's most famous military campaigns. Although the battle ended without a clear victory, it demonstrated the strength of both sides and raised awareness of the need for a peaceful resolution of disputes.

ВВЕДЕНИЕ

Инициатором заключения мирного договора был хеттский царь Хаттусилис III. Он прислал проект соглашения, выгравированный на серебряной табличке, в Египет. На основе этого текста Рамсес II разработал свою версию, которую затем отправил обратно Хаттусилису. Этот договор стал первым известным в истории

международным соглашением, и, благодаря счастливой случайности, он сохранился до наших дней в двух вариантах: египетском и хеттском.

Хеттская версия была найдена в архивах царей в Богазкеое. Текст записан клинописью на аккадском языке. Большая часть документов хранится в Берлинском музее, а несколько фрагментов находятся в Эрмитаже в Санкт-Петербурге. Египетская редакция была высечена иероглифами на стенах храмов в Карнаке и Рамессеуме. Эта версия дополнена описанием серебряной таблички с первоначальным проектом Хаттусилиса.

Перед подписанием текст договора согласовали в столице хеттов, где он обсуждался с посланниками Рамсеса II. Затем финальная версия была записана на аккадском языке на серебряной пластине и отправлена в Египет.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ

В Египте с аккадского оригинала договора был сделан не совсем дословный перевод на египетский язык, который по утверждении его Рамсесом II был высечен в иероглифике в Карнаке и Рамессеуме, серебряная же пластина с первоначальным аккадским текстом договора была отправлена на хранение в архив столичного храма Ра [1].

Имеется много изданий текста и переводов египетского варианта мирного договора [2].

На русский язык также имеется несколько вариантов египетского текста мирного договора Рамсеса II с Хаттусилисом III [3].

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Договор между Египтом и хеттами устанавливал правила мирного сосуществования и взаимной помощи [4]. Его основными пунктами были:

1. Египет и хетты обязались поддерживать вечный мир, дружбу и братство.

2. Стороны договорились не нападать друг на друга и помогать в случае военной угрозы.

3. Если в одной из стран начнутся мятежи или беспорядки, другая сторона обязалась оказать помощь.

[1] Die Mittel der internationalen Kommunikation zwischen Ägypten und Staaten Vorderasiens in der späten Bronzezeit. WS 2003/2004 117-120 p.
[2] Breasted J. H. Ancient records of Egypt. Vol. I—IV. Chicago, 1906; 344. Kitchen K. A. Ramesside Inscriptions. Historical and Biographical. Vol. I—VII. Ox., 1969—1980.
[3] Тураев Б. А. История древнего Востока. Т. I—II. – Л., 1935; Хрестоматия по истории древнего Востока. – М., 1963; Хрестоматия по истории древнего Востока. Ч. I. – М., 1980.
[4] Межгосударственные отношения и дипломатия на Древнем Востоке / Отв. ред. И.А. Стучевский. – М.: Наука, 1987. - 306 с.

4. Обе стороны должны были возвращать друг другу политических противников и беглецов, при условии гуманного обращения с ними.

Гарантами выполнения договора считались божества обеих сторон. Египетская версия текста упоминает множество богов, которые должны были следить за соблюдением соглашения [5].

Главной причиной мирных переговоров стали угрозы для Хеттского царства: с востока наступали ассирийцы, а внутри страны могли происходить заговоры против власти Хаттусилиса III. У Египта в это время не было значительных внутренних или внешних угроз, кроме конфликтов с самими хеттами [6].

Рамсесу II не удалось расширить египетские территории на Ближнем Востоке. Север Сирии и Финикия остались под контролем хеттов, а Южная Финикия, Южная Сирия и Палестина оказались под влиянием Египта. Однако договор закрепил равновесие сил и обеспечил длительный мир между двумя державами [7].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Исходя из вышеизложенного, мирный договор стал результатом стратегических и политических расчетов обеих держав. После битвы при Кадеше, в которой ни Египет, ни Хеттское царство не достигли явной победы, стало очевидно, что прямой военный путь не принесет желаемых результатов. Более того, обе стороны испытывали значительное внутреннее напряжение и нуждались в стабилизации, а также в возможности сосредоточиться на внутренних реформах и других внешнеполитических задачах. Заключение мира было выгодно как Египту, так и Хеттам, которым угрожала опасность с севера от касситов и ассирийцев.

Обе стороны заключили такие соглашения как: Взаимное ненападение: Египет и Хеттское царство обязались не начинать военных действий друг против друга. Это обязательство фактически устанавливало постоянный мир между двумя державами; Взаимопомощь в случае внешней угрозы: Оба государства согласились прийти на помощь друг другу в случае нападения третьей стороны. Это означало, что они становились союзниками, что было крайне необычным для прежних врагов; Экстрадиция беженцев и преступников: Договор предусматривал возвращение беглецов и лиц,

[5] И. А. Стучевский. Из истории древнего Египта эпохи Рамессидов. – М.:НАУКА, 1984
[6] Брэстед Дж. Г. История Египта с древнейших времен до персидской завоевания. Т. I—II. – М., 1915 (пер. с англ.).
[7] Брэстед Дж. Г. История Египта с древнейших времен до персидской завоевания. Т. I—II. М., 1915 (пер. с англ.).

скрывающихся от правосудия, в случае если они укрывались на территории одной из сторон; Закрепление границ: Хотя четкие границы не были зафиксированы, договор подразумевал отказ от дальнейших территориальных претензий друг к другу; Сохранение дружеских и родственных связей: Для укрепления мирных отношений Рамсес II и Хаттусилис III обменялись посольствами и дарами, а также заключили династические браки. Сестра Хаттусилиса III вышла замуж за Рамсеса II, что стало символическим подтверждением союза и родства между царствами.

Заключение договора привело таким факторам как: Политическая стабилизация региона: Договор способствовал созданию мирной и стабильной обстановки в Восточном Средиземноморье. Это позволило Египту и Хеттскому царству сосредоточиться на развитии внутренних структур и укреплении позиций на международной арене.

Пример международной дипломатии: Договор стал важным прецедентом для ранней международной дипломатии, показав возможность разрешения межгосударственных конфликтов через переговоры. Он стал одним из первых письменных соглашений, сохранившихся до наших дней, и закрепил нормы, которые были актуальны и для последующих веков.

Торговля и культурный обмен: Установление мира позволило наладить торговые связи между двумя царствами, что укрепило экономику и способствовало культурному обмену, чему также способствовали династические браки. Это взаимодействие способствовало распространению идей, технологий и товаров по всему региону.

Влияние на египетское искусство и литературу: Подробности о договоре были записаны на стенах храмов, особенно в храме Рамсеса II в Карнаке, где сохранились рельефы, изображающие подписание мира. Этот договор вошел в египетскую историю как свидетельство мудрости и политической прозорливости фараона.

Подводя итоги можно сделать вывод, что мирный договор между Рамсесом II и Хаттусилисом III стал выдающимся историческим событием, подтвердившим, что дипломатические методы могут оказаться более эффективными, чем военные. Его подписание ознаменовало начало нового этапа отношений между Египтом и Хеттским царством, которые оставались союзниками до падения хеттской державы. Договор не только завершил долгие конфликты, но и положил начало принципам дипломатии, которые оказали влияние на международные отношения древнего мира.

REFERENCES

1. Брэстед Дж. Г. История Египта с древнейших времен до персидской завоевания. Т. I—II. – М., 1915 (пер. с англ. В. Викентьева).
2. Стучевский И.А. Межгосударственные отношения и дипломатия на Древнем Востоке. – М.: Наука, 1987.
3. Стучевский И. А. Из истории древнего Египта эпохи Рамессидов. – М.:Наука, 1984
4. Тураев Б. А. История древнего Востока. Т. I—II. – Л., 1935
5. Хрестоматия по истории древнего Востока. – М., 1963
6. Хрестоматия по истории древнего Востока. Ч. I. – М., 1980.
7. Breasted J. H. Ancient records of Egypt. Vol. I—IV. Chicago, 1906; 344. Kitchen K. A. Ramesside Inscriptions. Historical and Biographical. Vol. I—VII. Ox., 1969—1980.
8. Die Mittel der internationalen Kommunikation zwischen Ägypten und Staaten Vorderasiens in der späten Bronzezeit. WS 2003/2004 117-120 p.

O‘QUVCHILARNING YOSHINI HISOBGA OLIB HARAKATLI O‘YINLARNI TANLASH

E. R. Rustamov
CHDPU Magistr 2-kurs
eldorrustamov0703@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o’quvchilarning yoshini hisobga olib milliy va haraktli o’yinlarni jismoniy tarbiya darsining tayyorgarlik, asosiy va yakuniy qismlariga mos bo’lgan o’yinlarni to’g’ri tanlashga oid malumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. ta’lim, tarbiya so’glomlashtirish, motivatsiya, jismoniy sifatlar, harakatli o’yinlar, dars qismlari, “Alpomish va Barchinoy” testlari.

KIRISH

Bugungi kunda Respublikamizda bolalar-o‘smirlar sportini rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. “Yoshlarda sportga bo‘lgan havas va intilishni, jamiyatda sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini yanada kuchaytirish, yosh iqtidorli sportchilarni tanlab olish, ularda professional mahorat va ko‘nikmalarni rivojlantirish, sport turlari bo‘yicha mamlakat terma jamoalariga sport zahirasini tayyorlash, o‘quvchi va talabalarni sport mashg‘ulotlariga uzluksiz jalb etishga qaratilgan sport musobaqalari tizimini yanada takomillashtirish maqsadida qator qaror va farmonlar qabul qilindi.

Umumiy o’rta ta’lim maktablari o’quvchilarining jismoniy tayyorgarlik va salomatlik darajasini belgilab beruvchi “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlar va nazorat me’yoriylarini o’quv yili davomida bajarishi, o’quvchilarning jismoniy tayyorgarligi va salomatlik darajasini mustahkamlab borishini ta’minlaydi.

Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi jismoniy tarbiya darslarining maqsadi o‘quvchilarga ta’lim berish, tarbiya berish va sog‘lomlashtirish hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarning jismoniy tarbiya darslarini harakatli o‘yinlar orqali tashkil etish o‘quvchilarni sport turlariga nisbatan motivatsiyasini va jismoniy sifatlarini oshiradi. Shu boisdan olib borilgan tadqiqotning mavzusi dolzarb hisoblanadi.

O‘qituvchi xar bir dars uchun bolalar organizmiga xar taraflama ijobiy ta’sir etuvchi turli harakatli o‘yinlarni tanlashi va ularni o‘tkazishda xar hil usullardan foydalanib borishi lozim.

Darsda, shuningdek turli o‘yinlarni o‘tkazish jarayonida o‘rganiladigan materiallarning metodik jihatdan izchilligiga

alohida e’tibor berish muhim ahamiyatga ega. Chunki bu izchillik birinchidan, darsning ta’limiy va tarbiyaviy vazifalarini to‘g‘ri hal qilish, ikkinchidan, dars materiallarini to‘liq o‘tishga erishish, uchinchidan, butun dars davomida har bir mashqni muayyan me’yorda amalga oshirish imkonini beradi.

Darsning boshida yoki o‘rtasida zo‘r e’tibor berishni va o‘zaro muvofiq murakkab harakatlar qilishni taqozo etadigan o‘yin hamda mashqlar o‘tkazilsa, dars oxirida o‘quvchilarning charchagan tana a’zolarini birmuncha tinch holatga keltiradigan o‘yin va mashqlarni o‘tkazish kerak. Masalan, dars boshida bolalarning diqqatini jalb qilish uchun “O‘ylab top”, “Hamma o‘z joyiga”, “Man qilingan harakat singari o‘yinlar o‘tkazilsa, darsning asosiy qismida Quvnoq bolalar”, “Qoch bolam, qalhat keldi” kabi serharakat o‘yinlarni o‘tkazish tavsiya etiladi.

O‘rta yoshdagi o‘quvchilar bilan darsning asosiy qismida “Cho‘pon”, “Qo‘y va bo‘ri”, “Oq tosh”, “Oq ayiqlar” va boshqa o‘yinlarni o‘tkazish, darsning yaqunlovchi qismida esa kam harakatli “Pat”, “Pr-r-r.„.(qush uchishini ifodalovchi tovush)singari o‘yinlarni o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Agar butun dars faqat o‘yinlardan iborat bo‘lsa, serharakat o‘yinlarni kam harakatli o‘yinlar bilan, bir hil yo‘sindagi o‘yinlarni ikkinchi hil yo‘sindagi o‘yinlar bilan navbatlashtirib o‘tkazish kerak.

Agar o‘qituvchi bir sport turi texnikasining ayrim qismini o‘yin orqali bolalarga o‘rgatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ysa, avval o‘yinning mazmuni va yo‘nalishini puxta o‘ylab olishi zarur.

Masalan, “To‘pni oldirma” yoki “To‘p ilish” o‘yinlari yordamida bolalarga to‘p uzatish va ilib olish harakatlarini o‘rgatish belgilangan bo‘lsa, bu ishni faqat mazkur o‘yinlar orqali amalga oshirib bo‘lmaydi. Chunki o‘ynayotganlarning asosiy e’tibori to‘pni tez uzatish va ilib olish bilan band bo‘lib, o‘yin texnikasi elementlarini bajarish e’tibordan chetda qoladi. Agar bu ish tegishli metodik ko‘rsatmalarga amal qilib va ba’zi bir o‘zgarishlar kiritib o‘tkaziladigan o‘yinlar yordamida bajarilsa, maqsadga erishish mumkin.

O‘ynovchilarni ortiq charchatib qo‘ymaslik uchun hayajonli va ermak o‘yinlarni ko‘p o‘tkazavermay, ularni bolalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi va organizm imkoniyatini hisobga olgan holda boshqa hildagi o‘yin va mashqlar bilan qo‘shib olib borish kerak.

Hushyor o‘qituvchi ayrim bolalarning charchash belgilarini (rangi uchishini, harakatlari sustligi va o‘yinni davom ettirish istagi yukligini) darhol sezib oladi. Jismoniy tarbiya darsining muhim xususiyatlaridan biri vaqtdan unumli foydalanishdir. Bu tadbir darsni unumli o‘tkazish imkonini beradi. O‘qituvchi

o‘quvchilarni darsda faol qatnashtirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek hamma o‘quvchilarga beriladigan topshiriqlar bir me’yorda bo‘lishiga erishishi lozim. Bunga esa har bir o‘yin va har bir ishtirokchi uchun vaqtni aniq taqsimlash yo‘li bilan erishish mumkin. Agar o‘ynovchilar soni juda ko‘p bo‘lsa, bir necha guruh yoki jamoa tuzish, topshiriqni bajarish uchun belgilanadigan vaqtni qisqartirish lozim.

O‘yin paytida uning qoidalarini buzgan o‘quvchilarni o‘yindan chiqarib yuborish emas, balki, ularga jarima ochkolari berish orqali “jazolash” maqsadga muvofiqdir.

O‘yin bo‘linib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun unga yaxshi tayyorgarlik ko‘rish, o‘yin o‘tkaziladigan joyni va kerakli asbob-uskunalarni oldindan taxt qilib qo‘yish lozim.

O‘qituvchi maktabning imkoniyatlari va o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olib, o‘quv dasturida tavsiya etilgan o‘yinlarni o‘zgartirishi va ularga qo‘shimchalar kiritishi mumkin.

Harakatli o‘yinlarni o‘quv yilining choraklari bo‘yicha rejalashtirishda ob-havo sharoitlarini hisobga olish kerak. Masalan, O‘zbekistonda dekabr, yanvar, fevral oylaridan boshqa paytlarda mashg‘ulotlarni ochiq havoda o‘tkazish mumkin. Biroq ob-havo yaxshi vaqtga mo‘ljallangan “Chillak”, “Oq tosh”, “Qozik”, “Tegizsang-minasan”, “Bayroq uchun kurash” singari o‘yinlar rejalashtirilganida ehtiyot uchun ularning o‘rniga bino ichkarisida o‘tkazsa bo‘ladigan o‘yinlarni ham belgilab qo‘yish kerak.

Xulosa: Xar bir chorak ohirida o‘tkaziladigan nazorat mashg‘ulotlari uchun turli jismoniy mashqlardan iborat o‘yinlarni rejalashtirish lozim. Bunday o‘yinlar o‘quvchilarning tayyorgarligini, egallagan malakalarini, harakatlarining tezligi va o‘zaro muvofiqligini sinab ko‘rishda yordam beradi. O‘yin vaziyatida tez fikr yuritishni o‘stirish maqsadi bilan o‘yinning ayrim usullarini o‘rgatishda sharoitga muvofiq holda o‘yinga “raqib” o‘yinchini kiritish ham mumkin. Bolalar uchun harakatli o‘yinlarning ahamiyati ularda muayyan jismoniy sifatlarni hosil qilish va ularni takomillashtirish bilan cheklanmaydi. Harakatli o‘yinlar bolalarda intizomlilik jamoada o‘zini tuta bilish va uning sharafi, obrusi uchun kurashish, o‘rtoqlariga beg‘araz yordam berish kabi fazilatlarni ham shakllantiradi.

REFERENCES

1. Usmonxo‘jayev F.S., Pulatov A.A., Pulatov Sh.A., Abdullaev D.X. Xalq harakatli o‘yinlari nazariyasi va amaliyoti.Darslik.T. 2014.

2. Хабибуллаев, С.Х., Джурабоева, Д. Э.(2021). Кичик мактаб ёшидаги (1-4 синф) ўқувчиларини миллий ҳаракатли ўйинлар орқали гандбол спорт турига қизиқтириш.Экономика и социум,11(90),1093-1096.

3.Хабибуллаев,С.Х.(2023).Umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun milliy harakatli o'yinlarning o'rni va ahamiyati. Inson farovonligini o'rganishda fanlararo yondashuv xalqaro ilmiy konferensiya,63-66.

4. Khabibullayev,S.X.(2023).Methods Of Designing Sports Events on Cheerful Starts**.**Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments (PCJPD),vol-1,issue-2,75-85.

5.Rustamov, E (2024). O'QUVCHILARNING YOSHINI HISOBGA OLIB HARAKATLI O'YINLARNI TANLASH. Academic Research in Educational Sciences 5(11), 26-29

6. ABDULAXATOV, AR, BX JUMADURDIEV, and M. M. JO'RABOEV. "Wrestling is the Most Effective Tool for Educating the Younger Generation to Be Physically Healthy and Mentally Mature." *JournalNX* 7.1: 139-141.

7. Achilov T.S., Juraboyev M.M. (2024). Methodology of Developing Physical Qualities of Young Volleyball Players (Aged 12-13) Based on the Cluster Approach. Information Horizons: AMERICAN Journal of Library and Information Science Innovation 2(1), 330-333

YOSH VOLEYBOLCHILARNING TEZKORLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

M. M. Juraboyev
CHDPU. Magistr 2-kurs
manuchexrjuraboyev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yosh voleybolchilarning tezkorlik sifatlarini rivojlantirish usullari, oddiy va murakkab reaksiyalar haqida asosli ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. Harakat, reaksiya latent, vaqt, tezlik, chastota, shakl, signal, markaziy, nerv, sistema, mushak, tarbiyalash.

KIRISH

Bugungi voleybol o‘yinining mohiyati, jumladan texnik-taktik harakatlarining ijro etilishi aksariyat “havoda”, ya’ni tayanchsiz holatda amalga oshirilishi bilan farqlanadi. Sakrab zarba berish, to‘siq qo‘yish, to‘p uzatish, yiqilib to‘p qabul qilish, to‘p kiritish bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Mutaxassislar tomonidan aniqlanganki, har bir musobaqa o‘yinida voleybolchilar 300-600 marta, hatto undan ko‘p sakrab ijro etiladigan texnik-taktik malakalarni bajarar ekanlar. Demak, jismoniy tayyorgarlik texnik-taktik tayyorgarlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, yuksak sport mahoratini ta’minlanishida poydevor sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tezkorlik deb, muayyan faoliyatni qisqa muddat ichida ijro etilishiga aytiladi. Tezkorlik namoyon bo‘lishining uchta asosiy shakllari mavjuddir:

1. Harakat reaksiyalarining latent (yashirin) vaqti.
2. Ayrim harakatlar tezligi (tashqi qarshilik kichik bo‘lganda).
3. Harakatlar chastotasi.

Tezkorlik namoyon bo‘lishining shakllari bir-biriga nisbatan bog‘liq emas.

Ko‘rsatib o‘tilgan uchta shaklning birgalikda kelishi tezkorlik namoyon bo‘lishining barcha hollarini belgilaydi. Biroq murakkab-koordinatsion yaxlit harakatlardagi tezlik faqat tezkorlik darajasiga emas, balki boshqa sabablarga ham bog‘liq. Shuning uchun yaxlit harakat tezligi kishining tezkorligini faqat bilvosita ifodalaydi.

Kishining tezlik qobiliyatlari umuman o‘ziga xos bo‘ladi. Faqat bir-biriga o‘xshash harakatlardagina tezkorlik to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bevosita bir-biriga ko‘chishi mumkin.

Tezkorlikning fiziologik va bioximik asoslari. Reaksiyaning latent vaqti beshta tarkibiy qismdan iborat:

1) retseptorda qo‘zg‘alishning paydo bo‘lishi;

2) qo‘zg‘alishni markaziy nerv sistemasiga uzatish;

3) qo‘zg‘alishning nerv yo‘llari bo‘ylab o‘tib borishi va effektor signal hosil bo‘lishi;

4) signalning markaziy nerv sistemasidan mushakka o‘tkazilishi;

5) mushakning qo‘zg‘alishi va unda mexanik faollikning paydo bo‘lishi.

Maksimal tezlikda bajariladigan harakatlar fiziologik xususiyatlarga ko‘ra sustroq harakatlardan farq qiladi. Bular orasidagi eng muhim farq shundan iboratki, harakatlarni maksimal tezlikda bajarish davomida sensor bog‘lanishlar hosil bo‘lishi qiyinlashadi: reflektor yoy impulslarni tashib ulgurolmaydi. Tezlik juda katta bo‘lganida harakatlarni yetarlicha aniqlik bilan bajarishning qiyinligi mana shu bilan bog‘liqdir.

Oddiy reaksiya tezkorligini tarbiyalash. Harakatlantiruvchi reaksiya tezligi ta’sirga javob berishning latent vaqti bilan belgilanadi. Reaksiyalar oddiy va murakkab bo‘ladi. Oddiy reaksiya oldindan ma’lum bo‘lgan signalga ilgaridan ma’lum bo‘lgan harakat bilan javob berishdir.

Tezkorlikning juda ko‘p o‘tishi (boshqa biror harakatga o‘tishi) oddiy reaksiyalar uchun xarakterlidir: ayrim vaziyatlarda tezda biror qarorga keluvchi kishilar boshqa sharoitdarda ham tezroq biror fikrga keladilar. Tez bajariladigan xilma-xil mashqlar bilan shug‘ullanish oddiy reaksiya tezkorligini yaxshilaydi.

Harakatlantiruvchi reaksiya tezkorligini anchagina yaxshilash g‘oyat murakkab vazifadir.

Oddiy reaksiya tezkorligini tarbiyalashda bir necha usullardan foydalaniladi. Bulardan eng ko‘p tarqalgani to‘satdan paydo bo‘ladigan signalga yoki tevarak-atrofdagi vaziyatning o‘zgarishiga javoban mumkin qadar tezroq reaksiya ko‘rsatish usulidir. Bu usul yangi shug‘ullanuvchilar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda tez orada ijobiy natijalar ko‘rsatadi. Afsuski, shundan keyin reaksiya tezkorligi stabillashib qoladi va uning yaxshilanishi ancha qiyin bo‘ladi.

Reaksiya tezkorligi katta ahamiyatga ega bo‘lgan hollarda uni takomillashtirish uchun maxsus usullardan foydalaniladi. Bu usullardan biri – reaksiya tezkorligini yengillashtirilgan sharoitlarda va uni keyingi harakat tezligini ayrim-ayrim takomillashtirishdan iboratdir.

Reaksiyaning latent vaqti reaksiya ko‘rsatishdan oldingi ratsional xatti-harakat hisobiga birmuncha yaxshilanishi mumkin. Jumladan, diqqatning yo‘nalishi ahamiyatga ega bo‘ladi: agar diqqat bajarilajak harakatga qaratilgan bo‘lsa (reaksiyaning motor tipi), u holda

reaksiya ko‘rsatish vaqti diqqat signalni idrok qilishga (reaksiyaning sensor tipi) qaratilganligidan ko‘ra kamroq bo‘ladi. Mushaklar bir oz kuchlanganda ham reaksiya tezkorligi ortadi. Reaksiya tezkorligi, shuningdek, signalni kutish vaqtiga ham bog‘liq: dastlabki va ijro komandalari orasidagi optimal vaqt 1,5 sek.ga yaqindir.

Murakkab reaksiya tezkorligini tarbiyalash. Murakkab reaksiyaning ikki xili, ya’ni harakatdagi obyektga bo‘ladigan reaksiya va tanlash reaksiyasi ustida to‘xtalib o‘tamiz.

Harakatdagi obyektga bo‘ladigan reaksiyada to‘p qabul qiluvchi o‘yinchining harakatlarini ko‘rib chiqaylik. Bu holda o‘yinchi quyidagilarni bajarishi kerak:

1) to‘pni ko‘rish;

2) to‘pning yo‘nalishini va uning uchish tezligini baholash;

3) bajariladigan amal rejasini tanlash;

4) bu rejani ro‘yobga chiqara boshlash. Mazkur holda reaksiyaning yashirin davri mana shu to‘rt elementdan tashkil topadi. Harakatdagi obyekt to‘satdan paydo bo‘lganda, bu obyektga reaksiya ko‘rsatish 0,25 sek. - 1 sek. vaqtni oladi. Bu vaqtning asosiy qismi birinchi elementga, ya’ni to‘pni tez ko‘rib olishga sarf bo‘lishi tajribalarda kuzatilgan. Sensor fazaning o‘ziga juda kam - 0,05 sek. vaqt ketadi. Shunday qilib, harakat qilayotgan to‘pni ko‘ra bilish asosiy ahamiyatga ega. Aynan mana shu qobiliyatni o‘stirishga alohida e’tibor berish kerak. Buning uchun harakatdagi buyumga reaksiya ko‘rsatishga doir mashqlardan foydalaniladi; trenirovka talablari harakatdagi buyumning tezligini oshirish, obyektning to‘satdan paydo bo‘lishi, sportchi bilan buyum o‘rtasidagi masofani qisqartirish hisobiga amalga oshiriladi. Kichik to‘p (tennis to‘pi) bilan bajariladigan harakatli o‘yinlar juda foydalidir. Obyekt (jumladan, o‘yindagi to‘p) siljiy boshlaguncha ko‘rib qolingan bo‘lsa, reaksiya vaqti ancha kamayadi. Bunda to‘pga zarb berayotgan o‘yinchining harakatlariga binoan to‘pning yo‘nalishini va uchish tezligini aniqlay bilish katta ahamiyatga ega.

Harakatdagi obyektga reaksiya ko‘rsatishning aniqligi shu reaksiya tezligini o‘stirish bilan parallel ravishda takomillashtirib boriladi. Faqat dastlabki bir necha mashg‘ulotnigina reaksiya aniqligini rivojlantirishga maxsus ajratish kerak. Bunda shug‘ullanuvchilarga harakatdagi obyektdan ildamroq harakat qilish zarurligini tushuntirish lozim.

Tanlash reaksiyasi raqib hatti-harakatlarining yoki tevarak-atrofdagi sharoitning o‘zgarishiga muvofiq ravishda mumkin bo‘lgan harakatlantiruvchi javoblardan keragini tanlab olish bilan bog‘liq. Tanlash reaksiyasining murakkabligi sharoitning o‘zgarish imkoniyatlari rang-barangligiga, chunonchi, raqibning xilma-xil harakat qilishiga bog‘liq. Voleybolchilarning murakkab reaksiyasiga bo‘lgan talab nihoyatda katta.

«Murakkab reaksiyani tarbiyalashda» oddiydan murakkabga degan pedagogik tamoyilga rioya qilinib, sharoitning mumkin bo‘lgan o‘zgarishlari soni asta-sekin oshira boriladi. Masalan, dastlab oldindan kelishib olingan zarbga javoban qanday himoyalanish kerakligi o‘rgatiladi; keyinchalik shug‘ullanuvchiga ehtimol tutilgan ikki xil usuldan biriga, so‘ng uch xildan biriga, to‘rt xildan biriga va hokazo javob berish tavsiya qilinadi. Asta-sekin bu mashq haqiqiy sharoitga yaqinlashtirib boriladi.

Tezkorlikni tarbiyalash usullari ichida takroriy mashq usuli keng qo‘llaniladi. Bundagi asosiy tendensiya mashg‘ulotda o‘z maksimal tezligini oshirib borishga intilishdir. Usulning barcha xususiyatlari (masofaning uzunligi, bajarish shiddati, dam olish oraliqlari, takrorlash soni va boshqalar) shunga bo‘ysundirilgan. Masofaning uzunligi (yoki mashqning qancha davom etishi) har galgi mashq bajarish oxirida siljish tezligi (ishning shiddati) kamaymaydigan qilib tanlanadi. Harakatlar maksimal tezlikda bajariladi; shug‘ullanuvchilar har safar o‘zlari uchun eng yaxshi natija ko‘rsatishga intiladilar. Mashq bajarish gallari o‘rtasidagi dam olish oraliqlari kuchning nisbatan to‘la tiklanishini ta’minlaydigan darajada katta bo‘lishi lozim. Harakatlar tezligi takrorlashlar o‘rtasida sezilarli darajada kamaya borishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Xulosa: Tez bajariladigan mashqlar takrorlanganda, to‘la tiklanish uchun dam olish oraliqlari yetarli bo‘lmaganligi sababli charchash nisbatan tez boshlanadi, tashqi tomondan bu tezlikning pasayganligida ifodalanadi. Tezlikning pasayishi mazkur mashg‘ulotda tezkorlikni tarbiyalashni to‘xtatish uchun birinchi signal bo‘lib xizmat qiladi: bundan keyin mashqni takrorlash faqat chidamlilikning o‘sishiga yordam beradi, xolos. Tezkorlikning namoyon bo‘lishi uchun mashg‘ulotlarda o‘yin va, ayniqsa, musobaqa usulidan foydalanish katta ahamiyatga ega. Musobaqalar, odatda, ko‘tarinki ruh paydo qiladi, kishini anchagina zo‘r berishga majbur etadi – bu esa ko‘p hollarda sport natijalarining yaxshilanishiga olib keladi.

REFERENCES

1.Хабибуллаев,С.Х., Мирзакулова, Д.А.(2021).Волейбол ўйинида мусобақа олдидан ўтказиладиган чигилёзди (разминка) машқларининг самарадорлигини аниқлаш.Экономика и социум,11(90),1089-1092.

2. Khabibullayev,S.X.(2023).Methods Of Designing Sports Events on Cheerful Starts.Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments (PCJPD),vol-1,issue-2,75-85.

3. Abdulaxatov, A.R., Jumadurdiev, B.X., Jo'raboyev,M.M.(2021). Wrestling is the most effective tool for educating the younger generation to be physically healthy and mentally mature.7-1,139-141.

4. Jo'raboyev, M. M. (2021). Development of physical activity qualities. Researchjet of Analysis and Inventions,2-4,258-266.
5. Rustamov, E (2024). O‘QUVCHILARNING YOSHINI HISOBGA OLIB HARAKATLI O‘YINLARNI TANLASH. Academic Research in Educational Sciences 5(11), 26-29
6. ABDULAXATOV, AR, BX JUMADURDIEV, and M. M. JO'RABOEV. "Wrestling is the Most Effective Tool for Educating the Younger Generation to Be Physically Healthy and Mentally Mature." *JournalNX* 7.1: 139-141.
7. Achilov T.S., Juraboyev M.M. (2024). Methodology of Developing Physical Qualities of Young Volleyball Players (Aged 12-13) Based on the Cluster Approach. Information Horizons: AMERICAN Journal of Library and Information Science Innovation 2(1), 330-333

QADIMIY MAHALLIY YUMSHOQ BUG'DOY NAVLARINING HOSILDORLIK BELGILARI TAHLILI

Habibjon Hayitvoy o'g'li Aminjonov
Chirchiq davlat pedagogika universiteti II-kurs magistranti
E-mail:habibjonaminjonov@gmail.com

Akmal Qalandar o'g'li Buronov
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti,b.f.f.d
E-mail:buronovA_1985@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekisandagi qadimiy mahalliy yumshoq bug'doy navlarining qimmatli ho'jalik belgilari o'simlik bo'yi, bir boshoqdagi boshoqcha soni, boshoq uzunligi, bir boshoqdagi don soni va don vazni , 1000 dona don vazni belgilari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: biotik, abiotik, qimmatli ho'jalik belgilari, qadimiy mahalliy, yumshoq bug'doy, 1000 dona urug' vazni, boshoq uzunligi va boshoq vazni, don shakli, don rangi.

KIRISH

Bug'doy (*Triticum aestivum L.*) asosiy oziq-ovqat ekinlaridan biri bo'lib, Insoniyat miloddan avvalgi 9-ming yillikdayoq bug'doy yetishtirish va undan foydalanishni boshlagan. Bug'doy *[Triticum* spp.) dunyo aholisining uchdan bir qismi tomonidan iste'mol qilinadigan asosiy oziq-ovqatlardan biridir. U dunyo aholisining uglevodlarga bo'lgan ehtiyojining qariyb 55 foizini ta'minlaydi [1].

Bug'doy eng muhim asosiy ekinlardan biri bo'lib, so'nggi o'n yillikda dunyo bo'ylab qariyb 218,5 million gektar maydonda yetishtirilib, o'rtacha yillik hosildorligi 770 million tonnani, donning o'rtacha yillik hosildorligi gektariga 3,4 tonnani tashkil etadi [2].

Bug'doy respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda eng asosiy o'rinni egallaydi. O'zbekistonda g'allachilikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari qatoriga bug'doy donining yalpi ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va hosildorlikni yaxshilash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 06-mart 2020 yildagi PQ-463-son "G'alla yetishtirish, xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlariga to'g'ri keladi.

Bug'doy doni yetishtirishdagi noqulay biotik va abiotik omillar ta'sirida katta yo'qotishlar tufayli tijorat navlarining don

hosildorligi yildan-yilga juda katta farq qilmoqda. Shunday ekan yumshoq bug'doyning qadimiy mahalliy navlarini qimmatli xo'jalik belgilarini morfologik va biokimyoviy usullar yordamida o'rganish bizning oziq-ovqatga bo'lgan talabimizni qondirishga qodir bo'lgan navlarbi yaratishimiz uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yumshoq bug'doyi *Triticum aestivum L* yovvoyi o'tlar, *Triticum monococcum* va *Triticum boeoticumning, Aegilops speltoides* va *Aegilops squarrosa* bilan o'zaro changlanishi natijasi hosil bo'lgan bo'lishi mumkin [3]. Non bug'doyining standart xromosoma to'plami *X*= 7, geksaploid navlarda xromosomalar soni *6n* = 42. 2018-yil avgust oyida genomning ketma-ketligi e'lon qilindi [4].

Hozirgacha selektsiya nuqtai nazaridan, bug'doyning bu turining genetik salohiyatida pasayish kuzatildi. Biroq, bu muammoni hal qilish yo'li bug'doy bilan bog'liq turlar, qadimgi mahalliy erlar va germplazma resurslaridan foydalangan holda yuqori hosildor, kasallik va zararkunandalarga chidamli navlarni yaratish orqali bo'lishi mumkin. Shuning uchun bug'doy genofondini molekulyar vositalar yordamida keng ko'lamli o'rganish talab etilmoqda.

Bu muammoning muhim yechimlaridan biri turli muhitlarda bug'doy hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan biotik va abiotik stresslarga qarshi kurashishdir. Hozirgi davrda bir qancha zamburug' kasalliklari butun dunyo bo'ylab g'alla maydonlarida 50% va ba'zi hududlarda 80% gacha hosilning yo'qolishiga olib keladi [5,14,15,16,17].

Turli choralar ma'lum, jumladan kimyoviy moddalardan foydalanish qishloq xo'jaligi o'simliklarini himoya qilishga yordam beradi, va o'simlikni kasalliklardan davolaydi. Ushbu kimyoviy moddalarning yuqori narxini va inson salomatligiga tasirini hisobga olgan holda yangi atrof-muhitni zaralamaydigan va kasalliklarga chidamli bo'lgan navlarni ko'paytirish bu eng yaxshi yo'ldir [6].

Keyingi yillarda bug'doyning yangi navlarini (Triticum aestivum L.) yaratishda uning genetik resurslari xilma-xilligidan keng foydalanish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu munosabat bilan bug'doyning oqsil va kleykovina ko'p bo'lgan yovvoyi, yarim yovvoyi va qadimiy mahalliy shakllaridan foydalanib, zamonaviy ishlab chiqarish talablariga javob beradigan navlar yaratish imkoniyatlari mavjud. Shu bois bug'doyning noqulay ekologik omillarga chidamli, unumdor va sifatli navlarini tanlashda qadimiy navlarning sifat ko'rsatkichlari va fenotipik o'zgaruvchanlik darajasini baholash muhim ahamiyatga ega. Shu sababga ko'ra Ro'ziyev F, Djabbarov I, Olimjonova S, Niyozov U, O'roqov S, Ishanqulova D, Baxadirov U birgalikda O'zbekistonning tog'li hududlarida uzoq yillar davomida

yetishtirilgan qadimiy bug‘doy navlarini donning qattiqligi, donalarining diametri, don sifat ko‘rsatkichlari, reologik xossalarini o’rganishdi [7].

Hozirgi vaqtda don yetishtirish uchun davlat tomonidan fermerlarga urug’ berilganda ham bazi o’zboshimcha fermerlar qadimiy mahalliy bug’doy navlarini ekib kelmoqda. Qadimiy mahaliy navlarning hozir ham ekib kelinishi sabablari quyidagilardir: (1) a'lo non tayyorlash sifati va uyda pishirish uchun yaroqli bo'lgan yirik don; (2) barqaror va ishonchli hosil olishga imkon beruvchi maxsus moslashuvlar; va (3) somon hosildorligi va sifati yaxshi ekanligidir [8,9,10,11,12,13].

Bug’doyning qimmatli xo’jalik belgilariga don tarkibidagi oqsil va kleykovina miqdori, 1000-donning vazni, bo’yining balandligi, boshoq uzunligi, yotib qolishga chidamliligi, donning shakli va katta kichikligi, boshoqdagi don va boshoqchalar soni kiradi.

TADQIQOT OBYEKTI VA USLUBLARI

Tadqiqotlar O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi institutining Do‘rmon dala tajriba maydonida va laboratorya sharoitida olib borildi. Bunda Respublikamizning Qashqadaryo,Surxondaryo va jizzax viloyatlarining tog’li hududlaridan yig’ib kelingan qadimiy mahalliy bug’doy navlari o’rganildi. Tadqiqotni kuzatish, taqqoslash metodlari yordamida olib borildi.

NATIJALARI TAHLILI VA MUHOKAMASI

Hosildorlik ma’lum birlikdagi o‘simliklar hosilining yig‘indisidir. Tup qalinligini oshib borishi bilan alohida olingan o‘simlikning mahsuldorligi pasayib boradi, ammo hosildorlik ma’lum darajada oshib boradi. Bunda ma’lum birlikdagi maydonda o‘simliklar soni optimallashadi, hosildorlik eng yuqori bo‘ladi, keyinchalik hosildorlikni sekinlik bilan pasayib borishi kuzatiladi. Hozirgi kunda bug‘doy hosildorligini gektaridan 20 tonnaga yetkazish nazariy jihatdan aniqlangan bo‘lib, amaliyotda 14 tonnagacha hosil olingan [18].

Tadqiqotlarimizda O’zbekistondagi qadimiy mahalliy yumshoq bug’doyning o’n oltita nav namunalarining , bo’yining o’rtacha balandligi, 1000 dona urug’ vazni, boshoqning uzunligi va vazni, donning shakli va rangi, boshoqlanishi va vegetatsiya davrlari o’rganildi.

Ushbu navlarning miqdoriy belgilari bir xil sharoitda va uch qaytariqda ekilib ko‘rsatkichlari laboratoriya va dala sharoitida aniqlanib statistik tahlil qilindi.

1-jadval

O’zbekistondagi qadimiy mahalliy yumshoq bug’doy nav namunalarining qimmatli ho’jalik belgilari

№	Nav nomi	O'simlik bo'yi (sm)	1000 dona don vazni (gr)	Boshoq uzunligi (sm)	Boshoqdagi don soni (dona)	Boshoq vazni (g)	Donning shakli	Donning rangi
1	Qizil bug'doy	120±0.08	35,3±0.2	8±0.03	22±0.02	9±0.2	Uzunchoq	To'q qizil
2	Bahor bobo	80±0.01	43,9±0.1	7.5±0.02	41±0.03	8±0.1	Ovalsimon	To'q qizil
3	Qizil bug'doy (Qo'rg'oncha)	100±0.06	43,4±0.5	6±0.05	30±0.05	9±0.1	Tuxumsimon	To'q qizil
4	Oq bug'doy (Qo'g'a)	130±0.02	38,7±0.6	7±0.6	33±0.01	10±0.5	Tuxumsimon	Oq
5	Oq bug'doy (guldara)	130±0.05	37,7±0.3	10±0.05	35±0.04	10,5±0.4	Uzunchoq	Oq
6	Tuyatish	110±0.02	40,7±0.2	7±0.04	40±0.02	9±0.2	Yumaloq	Och qizil
7	Surhak (Qiziltom)	100±0.04	39±0.8	7±0.045	32±0.05	9,5±0.4	Uzunchoq	Qizil
8	Grexkum (Guldara)	115±0.03	37,7±0.3	8±0.03	47±0.08	7,5±0.6	Uzunchoq	Och qizil
9	Kal bug'doy (Qiziltom)	110±0.02	35±0.2	8±0.04	31±0.06	11±0.3	Uzunchoq	Qizil
10	Qizil sharq (Qo'g'a)	115±0.6	35,9±0.4	9±0.05	32±0.03	9±0.2	Uzunchoq	Och qizil
11	Qora qiltiq	130±0.01	46,7±0.5	9±0.03	33±0.02	9±0.4	Uzunchoq	Och qizil
12	Qizil boshoq	75±0.01	29,6±0.4	9±0.04	38±0.04	10±0.2	Tuxumsimon	Qizil
13	Oq boshoq	80±0.03	29,7±0.6	7±0.5	39±0.025	11±0.35	Dumaloq	qizil
14	Qayroqtosh	140±0.03	49,2±0.2	11±0.02	52±0.03	12±0.1	Uzun ovalsimon	Oq
15	Qayroqtosh 2	140±0.02	39,1±0.3	12±0.035	49±0.02	10±0.25	Ovalsimon	Qizil
16	Qizil bug'doy (G'umatak)	85±0.04	40±0.35	8.5±0.04	35±0.05	11±0.7	Tuxumsimon	Qizil

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatyabtiki olingan o'n oltita turimizning barchasi *Triticum Avistium L* turkumiga mansub bo'lsa ham ularning sal kam hamma jabhalarda bir biridan farq qilishi namoyon bo'ldi. Bu shundan dalolat beradiki namunalarimiz bir ajdodan tarqalgan bo'lsa ham tabiatning turli xil noqulay muhitlari davomida ularning shaxsiy fenotipik o'zgarishga uchraganligini va bu o'zgarishlar million yillar davomida genotipik o'zgaruvchanlikga aylanganini ko'rishimiz mumkin.

Misol uchun namunalarning bo'yi va donning vaznini olsak: Barcha bug'doylarimizda bo'yining balandligi 75 smdan 140 smgacha keladi Eng past bo'yli bug'doyimiz oq boshoq bo'lgan bo'lsa eng baland bo'yli bug'doyimiz qayroqtosh va qayroqtosh 2 navlari bo'ldi. Qayroqtosh va qayroqtosh 2 navlarimizning bo'yi bir biriga yaqin bo'lgani bilan ularning yotib qolishga chidamliligi bir biridan farq qildi. Qayroqtosh navi yotib qolishga chidamli mexanik kuchli, qayroqtosh 2 navi esa yotib qolishga moyil doni va boshoqining kattaligi qayroqtosh naviga qaraganda kichkinaroq ekanligi aniqlandi.

1000 dona bug'doy vazni eng past qizil boshoq 29.6 gramdan eng baland ko'rsatkich qayroqtosh navida 49.2 gram bo'ldi. Qizil boshoq navi bo'yi past va hosili kam, eng ko'p vaznga ega bo'lgan donimiz qayroqtosh navimizni esa bo'yi ham baland ham doni ko'p shuning hisobiga uning hosldorligi yaxshi. Ammo bahor bobo naimizdan ekilgan namunalarimizning bo'yi past(80sm), hosili o'rtacha ammo vazni qayroqtosh naviga yaqin bu shundan dalolat beradiki bo'yining balandligini taminlovchi gen bilan donning kattaligini yoki vaznini belgilovchi gen bir biriga allel emas. Ular bir biriga birikgan holda yoki epistaz holda irsiylanaydi. Shuning uchun bahor bobo navlarimiz baland tog'li hududlarga ekilganda ham yotib ketmasdan yaxshi hosil bera olish qobilyatiga ega.

Bug'doy doni yalang'och (polba Bug'doylarda pardali), ovalsimon, tuxumsimon, cho'ziq yoki sharsimon shaklda, qorin tomonida uzunasiga ketgan egatchali, oq yoki qizg'ishqo'ng'ir rangli bo'ladi. Bug'doylarning donining bunday har xil rang va shaklga ega bo'lishiga atrof muhit omillarining tasiri sabab bo'la oladi.

Tadqiqot natijalariga qarasak eng uzun boshoq va boshoqdagi eng ko'p donga ega navimiz bu qayroqtosh navidir. Uning boshoq uzunligi 12±0.1sm boshoqdagi donlar soni 52±0.03 ga teng. Bu natija shuni ko'rsatadiki qayroqtosh naviga bu yilgi muhit optimal muhit bo'lgan. Eng kalta boshoqli navimiz grexkum(guldara) bo'lib uning boshoq uzunligi 7,5±0.6smni tashkil etgan ammo uning bir boshoqdagi don soni narmal 47±0.08-ga teng bu shundan dalolat beradiki grexkum(guldara) bug'doy navida kalta boshoqda zich o'rtacha kattalikdagi donlar joylashgan. Bu jarayonga teskari bo'lgan o'zgarishni qizil bug'doy(qo'g'a) misolida ko'rishimiz mumkin. Qizil bug'doy(qo'g'a) navimizning boshoq uzunligi 9±0.2-ga teng ammo boshoqadagi don soni 22±0.02-teng bu jarayon tarixiy rivojlanish vaqtida qizil bug'doy(qo'g'a) navimizning yirik donli boshoqda erkin joylashgan ammo kam hosil berishga moslashganligidan dalolat bermoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak qadimiy mahalliy bug'doy navlari o'zida biotik va abiotik streslarga chidamlilik genini saqlaydi. Bu genlar har bir navning o'zi o'sgan hududga moslashuvchaligi bo'lib ularning molekulyar darajada o'rganib yangi zamonaviy navlarga donor sifatida jo'natilsa hozirgi zamon talablariga muvofiq navlarni ishlab chiqish mumkin. Bu o'z navbatida butun dunyodagi oziq ovqat yetishmovchiligi muammosini malum bir darajada oldini olgan bo'ladi. Bundan tashqari yumshoq bug'doyning respublika sharotiga moslashgan yangi navlar yaratishda qimmatli donor sifatida ishlatish mumkin ekanligidan dalolat beradi.

REFERENCES

1. Turaev O, Norbekov S, Erjigitov D , Bakhadirov U, Tursunmurodova B, Ernazarova D, Dolimov A, Turaqulov X , Kushanov F// *SABRAO J. Breed. Genet*, 55 (5) 1463-1475, 2023.

2. Archana, P. An analytical study of Indian agriculture crop production and export with reference to wheat. Adv. Manag. 2019,12, 1.

3. http://www.schweizerbauern.ch 2022-yil 13-iyulda Wayback

4. Сергей Васильев. Расшифрован гигантский геном пшеницы. Naked Science (17 августа 2018). Дата обращения: 8 октября 2018. Архивировано 8 октября 2018 года

5. Dixon J, Braun H-J, Kosina P, Crouch J (2009). Wheat Facts and Futures 2009. Mexico, D.F.: CIMMYT. pp 1-95. Pardey PG (2011). A strategic look at global wheat production, productivity and R & D developments. *Czech J. Genet. Plant Breed.* 47 (Special Issue): S6-S19)

6. Amangeldikyzy Z, Galymbek K, Gabdulov M, Amangeldi N, Irkitbay A, Suleimanova G,Sapakhova Z (2023). Identification of new sources of wheat stem rust resistance genes. *Res. Crop.* 24(1): 15-27 (2023). doi: 10.31830/2348-7542.2023.ROC-892.

7. Ruziyev F, Djabbarov I, Olimjonova S, Niyozov U, Urokov S, Ishankulova D, Bakhadirov U. 2023. Grain quality indicators and their phenotypic variability of ancient varieties of Triticum aestivum in the mountains of Uzbekistan. Biodiversitas 24: 5995-6001

8. S.Baboev H.Muminjanov Kh.Turakulov A.Buronov I.Mamatkulov E.Koc I.Ozturk S.Dreisigacker S.Shepelev A.Morgounov. Diversity and sustainability of wheat landraces grown in Uzbekistan; May 2021 Agronomy for Sustainable Development.

9. Buronov, A., Amanov, B., Muminov Kh, T. N., & Umirova, L. (2023). Polymorphism and inheritance of gliadin proteins in wheat landraces of Uzbekistan. SABRAO J. Breed. Genet, 55(3), 671-680.

10. Бабоев, С. К., Холлиев, О. Э. Ў., Буронов, А. К., Маткаримов, Ф. И., & Бузуруков, С. С. (2021). Ясмиқнинг майда уруғли халкаро элита кўчатзори ўсимликларида ҳосилдорлик белгилари таҳлили. *Academic research in educational sciences*,*2*(2), 843-851.
11. Buronov, A. K., Xamroev, R. J. (2022). Inheritance and variability of gliadin proteins in F1-F2 hybrids of landrace wheat varieties in Uzbekistan. *Modern Biol. Genet*,*1*(1), 64-70.
12. Бўронов, А. Қ. Ў. (2022). Юмшоқ буғдойнинг маҳаллий навларини глиадин оқсиллари ёрдамида полиморфизмини аниқлаш. *Academic research in educational sciences*, *3*(1), 401-407.
13. Буронов, А. Қ. Ў., Зияев, З. М., Холлиев, О. Э. Ў., & Файзуллаев, А. З. Ў. (2021). Кузги ва дуварак буғдой навларининг юқори авлод линияларида миқдорий ва сифат белгилари бўйича кластер таҳлил. Academic research in educational sciences, 2(6), 1481-1488.
14. Kalandarovic, B. A., & Kimsanbaevic, B. S. (2018). Polymorphizm of gliadin proteins among wheat landraces of Uzbekistan. *European science review*, *2*(11-12), 15-17.
15. Buronov, A. Q., Bozorov, T. A., Baboev, S. K., & Murzikova, I. (2014). O'zbekistondagi qadimiy bug'doy navlarining qimmatli xo'jaik belgilarining statastik tasnifi. *O'zb. biol. jurnali*, (5), 51-54.
16. Бабоев СК, Усманов РМ, Буранов А, Моргунов АИ. Изучение стародавных местных сортов пшеницы Узбекистана. Докл. АНРУз. 2013;1:82-3.
17. Буранов, А. К., Бабоев, С. К., Мелиев, С. К., Моргунов, А. И., & Муминжонов, Х. (2014). Характеристика стародавних местных сортов пшеницы Узбекистана по качеству зерна и запасным белкам. *The Way of Science*, *20*.
18. Amanov A.A., Gafurova L.A., Nurbekov A.I. Zernovodstvo v Uzbekistane. Jurnal Koordinatsionnogo Soveta po zernovodstvu. – Tashkent, 2005.-B.11.

TASVIRLARNI SIQISHDA CHEGARAVIY QIYMAT ORQALI HAAR VEYVLET KOEFFITSENTLARINI SARALASH ALGORITMINI ISHLAB CHIQISH

Baxtiyor Saidovich Raximov
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Biofizika va axborot texnologiyalari” kafedrasi mudiri

Tohir Quronbayevich O‘razmatov
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Urganch filiali “Axborot texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi
tohir20314@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Haar to‘lqin usulidan foydalangan holda tasvir va signal siqish uchun chegaraviy qiymatlarni tanlash metodlari tadqiq qilinadi. Thresholding (chegaraviy qiymat tanlash) usuli siqish jarayonining samaradorligi va sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada adaptiv thresholding va global thresholding metodlari keltirilgan. Adaptiv thresholding usuli signal yoki tasvirning turli qismlariga mos chegara qiymatini tanlab, shovqinni kamaytirishga va tasvir sifatini saqlashga imkon beradi. Global thresholding esa umumiy chegara qiymatidan foydalangan holda koeffitsientlarni saralash usulini o'z ichiga oladi. Maqolada keltirilgan usullarning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinib, Haar to‘lqin koeffitsientlari uchun eng samarali chegara tanlash algoritmi ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Haar to‘lqin, thresholding, adaptiv thresholding, tasvir siqish, signal ishlov berish, global chegara qiymat tanlash, Gaussian filtr, shovqin kamaytirish.

ABSTRACT

This article studies the methods of threshold selection for image and signal compression using the Haar wavelet method. Thresholding is an important method for increasing the efficiency and quality of the compression process. The article presents adaptive thresholding and global thresholding methods. Adaptive thresholding allows you to reduce noise and maintain image quality by selecting a threshold value appropriate for different parts of a signal or image. Global thresholding involves a method of sorting coefficients using a common threshold value. The advantages and disadvantages of the methods presented in the article are analyzed, and the most

effective threshold selection algorithm for Haar wavelet coefficients is developed.

Keywords: Haar wavelet, thresholding, adaptive thresholding, image compression, signal processing, global threshold selection, Gaussian filter, noise reduction.

KIRISH

Haar to‘lqini yordamida siqish jarayonida chegara (threshold) qiymatlarini tanlash usullari siqish samaradorligi va sifatini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Quyida Haar to‘lqini bilan ishlashda qo‘llaniladigan asosiy chegara qiymat tanlash usullari keltirilgan:

Adaptiv Thresholding (Moslashuvchan chegara tanlash) usuli signal yoki tasvirning turli qismlariga mos chegara qiymatini tanlashni ta’minlaydi. Bu usul signalning lokal (mahalliy) xususiyatlarini hisobga oladi va har bir lokal qism uchun alohida chegara qiymatini tanlaydi. Shuning uchun, signalning turli qismlaridagi koeffitsientlar uchun mos chegara qiymatlari hisoblanadi. Bu moslashuvchanlik signalning muhim qismlarini saqlab qolish va shovqinlarni samarali kamaytirish imkonini beradi[1].

Adaptiv Thresholding usuli, asosan, tasvirlarni tahlil qilish va ishlov berishda, ayniqsa, yorug‘lik va kontrast turlicha bo‘lgan tasvirlarda keng qo‘llaniladi. Bu usul tasvirni kichik qismlarga bo‘lib, har bir qism uchun alohida threshold qiymatini hisoblaydi va qo‘llaydi. Adaptiv Thresholdingda tasvirni yoki signalni tahlil qilishda kichik bloklarga bo‘linadi, va har bir blok uchun individual threshold qiymatlari tanlanadi [2]. Bu usul ko‘pincha tasvirning o‘zgaruvchan xususiyatlari, masalan, kontrast va yorug‘lik darajasini inobatga olgan holda ishlaydi. Adaptiv chegra qiymat usuli asosan ikkita yo‘nalishda ishlaydi:

O‘rtacha (mean) asosida adaptiv thresholding;

Gaussian filtr asosida adaptiv thresholding.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘rtacha asosida chegaraviy qiymat tanlash usuli. Bu usulda tasvir yoki signal kichik bloklarga bo‘linadi va har bir blokning o‘rtacha qiymati threshold sifatida ishlatiladi. Bu o‘rtacha qiymat threshold qiymatiga asos bo‘ladi va bu qiymatdan kichik bo‘lgan piksellar yoki koeffitsientlar "nol" qiymatga tenglashtiriladi, katta bo‘lganlar esa saqlab qolinadi. Bu usulda chegara qiymat tanlash har bir local bo‘lim uchun quyidagi tenglama asosida aniqlanadi:

$$T(x,y) = \frac{1}{n}\sum_{i=-k}^{k}\sum_{j=-k}^{k} I_{(x+i,y+j)} - C(1)$$

Bu yerda:

$T(x,y)$- tasvirning x,y pozitsiyasida joylashgan piksel uchun tanlangan threshold qiymati;

$I_{(x+i,y+j)}$-qo‘shni piksellarning intensivligi (yorug‘lik qiymati);

C-doimiy chegara qiymatiga moslangan o‘zgartirilgan parametr (ko‘pincha bu tasvirning umumiy shovqinini to‘g‘rilash uchun ishlatiladi).

Jarayon:

- Tasvir kichik bloklarga (masalan, 3x3 yoki 5x5) bo‘linadi.
- Har bir blok uchun o‘rtacha piksel qiymati hisoblanadi.
- Har bir blokdagi pikselning yorug‘lik qiymati blokning o‘rtacha qiymati bilan taqqoslanadi.
- Agar pikselning yorug‘lik qiymati o‘rtacha qiymatdan katta bo‘lsa, u "1"ga (yoki asl qiymatiga) tenglashtiriladi; agar kichik bo‘lsa, u "0" (yoki nolga) tenglashtiriladi.

Bu usul tasvirni yorug‘lik va kontrastga bog‘liq holda optimallashtirilgan chegara qiymatlari bilan ajratishga yordam beradi.

Gaus filtr asosida adaptiv thresholding

Bu usul o‘rtacha thresholdingdan farqli o‘laroq, Gaussian tortishish funksiyasi yordamida har bir lokal qismning threshold qiymatini hisoblaydi. Gauss tortishish funksiyasi har bir pikselga uning atrofidagi qo‘shni piksellarni tortishish koeffitsienti sifatida hisoblab, lokal threshold qiymatini tanlaydi[3]. Gauss filtr asosida thresholding quyidagi tenglama orqali amalga oshiriladi:

$$T(x,y) = \frac{1}{n}\sum_{i=-k}^{k}\sum_{j=-k}^{k} G(i,j)\cdot I(x+i,y+j) \quad -C(2)$$

Bu yerda:

$T(x,y)$-x,y pozitsiyadagi chegara qiymati;

$I(x+i,y+j)$-lokal bo‘limdagi piksellar qiymati;

$G(i,j)$- Gauss tortishish funksiyasi;

C- qo‘shimcha o‘zgartirish parametri.

Gauss tortishish funksiyasi esa quyidagicha ifodalanadi:

$$G(i,j) = \frac{1}{2\pi\sigma^2}\cdot e^{-\frac{i^2+j^2}{2\sigma^2}} \quad (3)$$

Bu yerda:

σ- dispersiya parametri;

i,j- pikselning lokal bo‘limdagi koordinatalari.

Jarayon:

- Har bir pikselning qiymati uning qo‘shni piksellari bilan Gaussian tortishish funksiyasi orqali hisoblanadi.
- Bu qiymat chegara sifatida belgilanadi.
- Agar pikselning yorug‘lik qiymati Gauss filtr orqali hisoblangan chegara qiymatdan katta bo‘lsa, u saqlanadi; aks holda, nolga tenglashtiriladi[4].

Adaptip chegara qiymat tanlashning ustunlik tomonlari quyidagicha:

Mahalliy xususiyatlar inobatga olinadi: Tasvirning yoki signalning turli qismlaridagi o‘zgarishlarni inobatga oladi va har bir lokal qism uchun alohida chegara tanlaydi. Bu tasvirning o‘zgaruvchan kontrast va yorug‘lik darajalariga moslashishga imkon beradi.

Ko‘proq ma’lumot saqlanadi: Global thresholding bilan solishtirganda, Adaptiv Thresholding tasvirning nozik qismlarini, kontrastli joylarini saqlab qolishga yordam beradi.

Shovqinlarni kamaytirish: Adaptiv Thresholding tasvirdagi shovqinlarni samarali bartaraf etishga yordam beradi, ayniqsa, har xil yorug‘lik va kontrast bo‘lgan tasvirlarda.

Kamchiligi sifatida Har bir lokal qism uchun alohida threshold qiymati hisoblanganligi sababli, bu usul ko‘p hisoblash resurslarini talab qilishini va Gauss filtr parametrlari noto‘g‘ri tanlanganda natija kutilgandek chiqmasligini ko‘rsatish mumkin[5].

Yuqorida chegaraviy qiymat tanlash usullaridan bir nechtasi tahlil qilindi va olib borilayotgan tadqiqotga, ya’ni Haar veyvlet uchun mos bo‘lgan, hisoblash resurslarini nisbatan kam talab qiladigan ujsul tanlandi. Tanlangan chegara qiymat tanlash usulining matematik modeli keltirildi va shu asosida algoritm ishlab chiqildi[6].

Global Chegaraviy qiymat (Global chegara tanlash) usuli siqish va shovqinni kamaytirish jarayonida keng qo‘llaniladigan oddiy va samarali usul hisoblanadi. Bu usul barcha koeffitsientlar uchun yagona umumiy chegara qiymatini tanlashga asoslanadi va ushbu qiymatdan kichik bo‘lgan koeffitsientlar nolga tenglashtiriladi, bu esa siqish jarayonini amalga oshiradi. Ushbu usul orqali signalning muhim qismlarini saqlab qolish va shovqinli qismlarini olib tashlash maqsad qilingan.

Veyvlet koeffitsientlarni hisoblash

Global Chegaraviy qiymat usulida avvalo Haar to‘lqinli o‘zgarishi yordamida signal yoki tasvir koeffitsientlarga bo‘linadi. Bu koeffitsientlar signalning vaqt va chastota bo‘yicha taqsimlanishini aks ettiradi. Ushbu bo‘lingan koeffitsientlar ichida yuqori energiyaga ega bo‘lganlar signalning

muhim qismlarini, past energiyali koeffitsientlar esa shovqinli qismlarni aks ettiradi[7].

Chegara qiymatini tanlash

Global Chegaraviy qiymatda barcha koeffitsientlar uchun yagona umumiy chegara qiymati aniqlanadi. Bu qiymat asosan signalning uzunligi va shovqin darajasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ko‘pincha, bu chegara qiymati quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$T = \sigma \cdot \sqrt{2 \cdot \log(N)} \quad (4)$$

Bu yerda:

σ- shovqin dispersiyasi. Shovqinni taxmin qilishda signalning pastki darajadagi koeffitsientlari orqali baholanadi.

N- signal uzunligi (masalan, tasvirda bu piksel soni bo‘lishi mumkin).

Ushbu formula shovqinli koeffitsientlarni olib tashlash va signalning asl qismi saqlanishi uchun chegara qiymatini beradi.

Yuqoridagi formulada σ-shovqin dispersiyasi keltirilgan. Biroq umumiy hollarda σ signalning pastki darajadagi (detalizatsiya) koeffitsientlaridan baholanadi, lekin shovqin dispersiyasini baholash murakkab bo‘lganda yoki to‘liq shovqin darajasi noma’lum bo‘lganda, uni tashlab yuborish ham mumkin[8].


NATIJALAR

Koeffitsientlarni chegaraviy qiymat orqali saralash. Global Chegaraviy qiymatda tanlangan chegara qiymati asosida barcha koeffitsientlarga qo‘llaniladi:

- Agar koeffitsientning qiymati chegara qiymatidan katta bo‘lsa, u saqlanadi.
- Agar koeffitsientning qiymati chegara qiymatidan kichik yoki teng bo‘lsa, u nolga tenglashtiriladi.

Ya'ni, barcha koeffitsientlar uchun quyidagi qoidalar qo‘llaniladi:

$$c_i = \begin{cases} TI_i, \text{agar } |TI_i| > T \\ 0, \text{aks holda} \end{cases} \quad (5)$$



1 rasm. Koeffitsentlarni chegaraviy qiymat orqali saralash algoritmi

Bu usulning asosiy maqsadi — shovqinni ifodalaydigan past amplitudali koeffitsientlarni nolga aylantirish orqali signalni siqishdir.

XULOSA

Tadqiqotda Haar to‘lqin usuli bilan signal va tasvir siqish jarayonida chegaraviy qiymat tanlashning adaptiv va global metodlari o‘rganildi. Adaptiv thresholding yordamida tasvirning mahalliy xususiyatlariga mos holda chegaraviy qiymatlarni aniqlash imkoniyati beriladi, bu esa siqish samaradorligini oshiradi. Global thresholding esa oddiy va hisoblash resurslarini kam talab qiluvchi usul bo‘lib, barcha koeffitsientlar uchun yagona chegara qiymatini qo‘llaydi. Ushbu yondashuvlar tahlil qilinib, Haar to‘lqinli siqish uchun optimal algoritm ishlab chiqildi va samaradorlik tahlil qilindi. Natijalar siqish jarayonida shovqinlarni kamaytirish va tasvirning sifatini saqlash uchun chegara tanlash usulining muhimligini tasdiqladi.

REFERENCES

1. Donoho, D. L., & Johnstone, I. M. (1994). *Ideal spatial adaptation by wavelet shrinkage*. Biometrika, 81(3), 425–455.

2. Mallat, S. (2009). *A Wavelet Tour of Signal Processing: The Sparse Way*. Academic Press.

3. Strang, G., & Nguyen, T. (1997). *Wavelets and Filter Banks.* Wellesley-Cambridge Press.
4. Daubechies, I. (1992). *Ten Lectures on Wavelets.* SIAM.
5. Zhang, B., & Stanley, H. (2004). *Wavelet Transform Thresholding for Image Compression.* IEEE Transactions on Image Processing, 13(6), 863–872.
6. González, R. C., & Woods, R. E. (2017). *Digital Image Processing.* Pearson.
7. Chang, S. G., Yu, B., & Vetterli, M. (2000). *Adaptive wavelet thresholding for image denoising and compression.* IEEE Transactions on Image Processing, 9(9), 1532–1546.
8. Pesquet, J. C., Krim, H., & Carfantan, H. (1996). *Time-invariant orthonormal wavelet representations.* IEEE Transactions on Signal Processing, 44(8), 1964–1970.
9. Coifman, R. R., & Wickerhauser, M. V. (1992). *Entropy-based algorithms for best basis selection.* IEEE Transactions on Information Theory, 38(2), 713–718.
10. Figueiredo, M. A. T., & Nowak, R. D. (2001). *Wavelet-based image estimation: An empirical Bayes approach using Jeffrey's noninformative prior.* IEEE Transactions on Image Processing, 10(9), 1322–1331.

TASVIRLARDA DISKRET VEYVLET O‘ZGARTIRISHLARNI AMALGA OSHIRISH ALGORITMI

Tohir Quronbayevich O‘razmatov
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Urganch filiali “Axborot texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi
tohir20314@gmail.com

Baxtiyor Saidovich Raximov
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Biofizika va axborot texnologiyalari” kafedrasi mudiri

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Diskret Veyvlet O‘zgartirish (DWT) texnikasini tasvirlarda amalga oshirish algoritmi bayon etilgan. Tadqiqot tasvirni chastotalarga ajratish va chekka xususiyatlarni ajratib olish jarayonlarini qamrab oladi. Dastlab tasvir grayscale formatga o‘tkazilib, gistogramma tenglashtirish orqali yorqinlik darajasi optimallashtiriladi. Shundan so‘ng, DWT yordamida tasvir LL, LH, HL va HH komponentlarga ajratiladi. Ushbu komponentlar yordamida tasvirning asosiy va yuqori chastotali xususiyatlari ajratib olinib, siqish va qayta tiklash jarayonlari amalga oshiriladi. Mazkur algoritm tasvir sifati va siqish samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Diskret Veyvlet O‘zgartirish (DWT), Haar veyvlet, tasvir siqish, grayscale formatga o‘tkazish, gistogramma tenglashtirish, tasvir filtrlash, chekka xususiyatlar, yuqori chastotali komponentlar.

ABSTRACT

This article describes an algorithm for implementing the Discrete Wavelet Transform (DWT) technique on images. The research covers the processes of image frequency separation and edge feature extraction. First, the image is converted to grayscale format and the brightness level is optimized by histogram equalization. Then, using DWT, the image is divided into LL, LH, HL and HH components. Using these components, the main and high-frequency features of the image are extracted, and the compression and restoration processes are performed. This algorithm is aimed at improving image quality and compression efficiency.

Keywords: Discrete Wavelet Transform (DWT), Haar wavelet, image compression, grayscale conversion, histogram

equalization, image filtering, edge features, high-frequency components.

KIRISH

Tasvirlarda Diskret Veyvlet O‘zgartirishni (DWT) amalga oshirish jarayoni tasvirni chastotalarga ajratish uchun qo‘llaniladi. Bu texnika ayniqsa tasvirni siqish va chekka xususiyatlarni ajratib olishda keng qo‘llaniladi. Dastlab tasvirlarda DWT ni amalga oshirish uchun mazkur tadqiqot ishida tasvirlarni oldindan qayta ishlash ishlari amalga oshirilgan. Bular dastlab tasvirni grayscale formatga o‘tkazish va gistogramma tenglashtirish ishlari amalga oshirilgan[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tasvirni grayscale (oq-qora) formatga o‘tkazish jarayoni rangli tasvirdagi har bir pikseldagi rang komponentlarini (qizil, yashil, ko‘k) yagona yorqinlik qiymatiga aylantirishni talab qiladi. Ushbu jarayon inson ko‘zining ranglarga sezgirligini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Rangli tasvirda har bir pikseldagi ranglar kombinatsiyasi RGB (qizil, yashil, ko‘k) qiymatlarida beriladi. Grayscale ga o‘tkazish uchun umumiy formula quyidagicha:

$$Gray = 0.2989 \cdot R + 0.5870 \cdot G + 0.1140 \cdot B \quad (1)$$

Bu yerda:

R-pikseldagi qizil komponentning qiymati (0 dan 255 gacha);

G-yashil komponentning qiymati (0 dan 255 gacha);

B- ko‘ komponentning qiymati (0 dan 255 gacha);

Gray- grayscale tasvirdagi yangi yorqinlik qiymati.

Ushbu koeffitsentlar (0.2989, 0.5870, 0.1140) inson ko‘zining qizil, yashil va ko‘k ranglarga bo‘lgan sezgirligini aks ettiradi:

- Yashil rangga ko‘z ko‘proq sezgir bo‘lgani uchun uning koeffitsienti eng katta — 0.587.
- Qizil rang ko‘proq ta'sir qiladi, lekin yashildan pastroq — 0.2989.
- Ko‘k rang esa eng kam sezgirlikka ega — 0.1140.

Har bir pikselning RGB qiymatlari ushbu koeffitsientlar bilan o‘lchanadi va yakuniy grayscale qiymati olinadi. Bu qiymat 0 dan 255 gacha bo‘lgan bir dona grayscale piksel qiymatini ifodalaydi.

Masalan:

Agar bitta pikselda quyidagi qiymatlar mavjud bo‘lsa;

R=120

G=200

B=150 Grayscale qiymat quyidagicha hisoblanadi:

$$Gray = 0.2989 \cdot 120 + 0.5870 \cdot 200 + 0.1140 \cdot 150 = 170.37 \quad (2)$$

Ya’ni pikselning grayscale qiymati 170 ga teng bo‘ladi.

Bu endi bitta piksel uchun amal qiladi, agar buni butun tasvir uchun qo‘llanilsa formulani ko‘rinishi o‘zgaradi[26; 1540-b., 29; 2801-b.].

$$I(i,j) = \begin{bmatrix} R(i,j) \\ G(i,j) \\ B(i,j) \end{bmatrix}$$

$I(i,j)$-tasvirning i-qator va j-ustundagi piksellarni ifodalovchi RGB vektori;

$R(i,j)$- pikseldagi qizil (Red) komponentning yorqinlik qiymati;

G(i, j)- pikseldagi yashil (Green) komponentning yorqinlik qiymati;

B(i, j)- pikseldagi ko‘k (Blue) komponentning yorqinlik qiymati.


Har bir $I(i,j)$ pikselini grayscale qiymatiga aylantirish jarayoni uchta rang komponentining ma'lum og‘irliklar bilan hisoblanishi orqali amalga oshiriladi. Og‘irlik koeffitsentlari ma’lum.

$$Gray(i,j) = 0.2989 \cdot R(i,j) + 0.5870 \cdot G(i,j) + 0.1140 \cdot B(i,j) \quad (3)$$

To‘liq tasvir uchun model. Grayscale tasvirni to‘liq ifodalash uchun har bir pikseldagi grayscale qiymatlari hisoblab chiqiladi. Agar tasvir $M \times N$ o‘lchamda bo‘lsa, to‘liq tasvir uchun grayscale matematik model quyidagicha yoziladi:

$$Gray = \sum_{i=1}^{M} \sum_{j=1}^{N} (0.2989 \cdot R(i,j) + 0.5870 \cdot G(i,j) + 0.1140 \cdot B(i,j)) \quad (4)$$

Demak bu model asosida ixtiyoriy biror tasvirda grayscale formatiga o‘tkazishni amalga oshiramiz.



2.1.1 rasm. Tasvirni grayscale formatga o‘tkazish

Bundan keyin ushbu tasvirda gistogramma tenglashtirish amalga oshiriladi. Gistogramma tenglashtirishning matematik modeli tasvirdagi yorqinlik darajalarini teng taqsimlashga asoslanadi. Tasvirdagi har bir pikselning yorqinlik qiymatini qayta taqsimlash orqali kontrastni yaxshilashga erishiladi. Tasvirning har bir pikseli yorqinlik darajasini ifodalaydi. Grayscale tasvirda yorqinlik qiymati L-bitli bo‘lib, odatda 0 dan 255 gacha bo‘lgan qiymatlarni qabul qiladi (8-bitli tasvir uchun):

$I(x,y) \in \{0,1,..,255\}$ (5)

Bu yerda $I(x,y)$-tasvirning x-qator va y-ustundagi pikselning yorqinlik qiymati. Tasvirdagi har bir yorqinlik qiymatining nechta piksel bilan ifodalanganligini aniqlash uchun gistogramma tuziladi. Gistogramma tasvirdagi har bir yorqinlik darajasidagi piksellar sonini ko‘rsatadi.

Gistogramma:

$$h(r_k = Tasvirda\ r_k\ qiymatiga\ ega\ piksellar\ soni)$$

bu yerda:

r_k-tasvirdagi yorqinlik darajasi (masalan, $r_0 = 0, r_1 = 1, .., r_{255} = 255$).

$h(r_k)$-tasvirdagi r_k yorqinlik qiymatiga ega piksellar soni.

Gistogramma piksellar soni bo‘yicha normalizatsiya qilinadi, ya’ni har bir yorqinlik qiymati uchun piksellarning umumiy soniga bo‘linadi.

$p(r_k) = \frac{h(r_k)}{MN}$ (6)

$p(r_k)$-yorqinlik qiymati r_k ning ehtimolligi (normalizatsiyalangan gistogramma)

$M \times N$-tasvirning umumiy piksellar soni.

Yig‘indi ehtimollik funksiyasi (CDF). Gistogramma tenglashtirish uchun yig‘indi ehtimollik funksiyasidan (CDF) foydalaniladi. CDF har bir yorqinlik darajasidagi piksellar sonini yig‘adi:

$$\mathrm{CDF}(\mathrm{r_k}) = \sum_{\mathrm{i=0}}^{\mathrm{k}} \mathrm{p}(\mathrm{r_i})\ (7)$$

$CDF(r_k)$-yorqinlik darajasi r_k dan kichik yoki teng bo‘lgan barcha yorqinlik qiymatlari uchun yig‘indini ifodalaydi.


Har bir yorqinlik qiymati r_k uchun yangi yorqinlik qiymati s_k quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$\mathrm{s_k} = \mathrm{round}((\mathrm{L}-1) \cdot \mathrm{CDF}(\mathrm{r_k}))$ (8)

s_k-yangi tenglashtirilgan yorqinlik qiymati;

L-tasvirdagi mumkin bo‘lgan yorqinlik darajalari soni (odatda 256);.

Har bir pikselning eski yorqinlik qiymati r_k yangi qiymat s_k ga almashtiriladi, natijada kontrasti tenglashtirilgan yangi tasvir olinadi.



2.1.2 rasm. Tasvirda gistogramma tenglashtirish jarayoni

NATIJA

DWT tasvirdagi o‘xshash xususiyatlarni ajratish va tasvirni past chastotali va yuqori chastotali komponentlarga bo‘lish orqali amalga oshiriladi. Tasvirdagi har bir qatorda va ustunda filtrlar qo‘llanadi va past chastotali (LL), yuqori gorizontal (HL), yuqori vertikal (LH), va yuqori diagonal (HH) komponentlar hosil qilinadi[31; 661-b., 43; 121-b.].

DWT tasvir bo‘yicha ketma-ket filtrlar qo‘llab, tasvirni 4 qismga bo‘ladi:

LL — umumiy xususiyatlar (yumshoq o‘zgarishlar).

LH — vertikal yo‘nalishdagi yuqori chastotali komponentlar (chekka xususiyatlar).

HL — gorizontal yo‘nalishdagi yuqori chastotali komponentlar.

HH — yuqori chastotali, to‘liq keskin o‘zgarishlarni ifodalovchi komponentlar.

Tasvirdagi DWT ni amalga oshirish jarayoni past va yuqori chastotali filtrlarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Filtrlash jarayonida tasvirdagi piksellar ustida past va yuqori chastotali qiymatlar olinadi. Filtrlar matematik jihatdan tasvirga convolutsiya orqali qo‘llanadi:

$$L(x) = \sum_n h(n) \cdot x(n) \ (9)$$

$$H(x) = \sum_n g(n) \cdot x(n) \ (10)$$

Bu yerda:

$L(x)$- past chastotali filtr natijasi (yumshoq o‘zgarishlar),

$H(x)$- yuqori chastotali filtr natijasi (keskin o‘zgarishlar, chekkalar),

$h(n)$- past chastotali filtr (Haar yoki boshqa veyvlet turi),

$g(n)$- yuqori chastotali filtr,

$x(n)$- tasvir piksellari.

Subsampling (bo‘limni qisqartirish):

Har bir bo‘lim (LL, LH, HL, HH) uchun subsampling jarayoni amalga oshiriladi. Bu jarayonda tasvirning o‘lchami ikkiga qisqartiriladi:

$$x_{new} = x_{old}/2$$

Tasvirning har bir komponenti ikkiga kichraytiriladi, bu esa diskret veyvlet o‘zgartirishda muhim xususiyatlarni saqlab qolib, o‘lchamni kamaytirish uchun xizmat qiladi. DWT ni qo‘llaganingizdan so‘ng, tasvirni rekonstruksiya qilish jarayoni invertion DWT (IDWT) yordamida amalga oshiriladi. IDWT tasvirning asosiy va tafsilot qismlarini qayta birlashtiradi. Matematik jihatdan, bu jarayon DWT da olingan LL, LH, HL, HH komponentlarni qayta tiklash orqali amalga oshiriladi:

$x_{rekonstruksiya}(n) = \sum_k h(n-2k) \cdot L(k) + g(n-2k) \cdot H(k)$ (11)

Haar veyvlet uchun bu almashtirishlarni moslab chiqamiz; Masalan tasvir NxN o‘lchamda bo‘lsin.

Bunda gorizontal Haar almashtirishda aproksimatsiya koeffitsentlari;

$\mathrm{a_j} = \frac{\mathrm{I}_{i,2j} + I_{\mathrm{i,2j+1}}}{\sqrt{2}}$, $\mathrm{j} = 1,2,\dots,\mathrm{N}/2$ (12)

formula asosida hisoblanadi.

Detalizatsiya koeffitsentlari:

$\mathrm{d_j} = \frac{I_{i,2j} - I_{i,2\mathrm{j}+1}}{\sqrt{2}}$, $\mathrm{j} = 1,2,\dots,\mathrm{N}/2$ (13)

formula asosida hisoblab chiqiladi. Bu operatsiya har bir satr bo‘yicha amalga oshiriladi. Bundan keyin vertikal Haar almashtirishlar amalga oshiriladi. Bunda aproksimatsiya koeffitsentlari quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$\mathrm{a_i} = \frac{\mathrm{I}_{2\mathrm{i,j}} + \mathrm{I}_{2\mathrm{i}+1,\mathrm{j}}}{\sqrt{2}}$, $\mathrm{i} = 1,2,\dots,\mathrm{N}/2$ (14)

Detalizatsiya koeffitsentlari:

$\mathrm{d_i} = \frac{\mathrm{I}_{2\mathrm{i,j}} - \mathrm{I}_{2\mathrm{i}+1,\mathrm{j}}}{\sqrt{2}}$, $\mathrm{i} = 1,2,\dots,\mathrm{N}/2$ (15)

formula yordamida hisoblab chiqiladi.

Ushbu matematik model asosida algoritm ishlab chiqildi va algoritm blok sxemasi taqdim etildi. Bu yerda ba’zi o‘zgartirishlar amalga oshirildi:

Tasvir o‘lchami: NxN;

N- tasvirning ustuni va qatori o‘lchamlariga o‘zlashtirilib olinadi;


avg= $\frac{\mathrm{I}_{i,2j} + I_{\mathrm{I,2j+1}}}{\sqrt{2}}$ – gorizontal bo‘yicha aproksimatsiya koeffitsentlari;

diff= $\frac{I_{i,2j} - I_{i,2\mathrm{j}+1}}{\sqrt{2}}$ – detalizatsiya koeffitsentlari;

TI- aproksimatsiya va detalizatsiya koeffitsentlari yig‘indisi matritsaga o‘zlashtiriladi;

FT- oxirgi hisoblashlar shu matritsaga o‘zlashtiriladi;

Har bir sikl N o‘lchamgacha hisoblanadi.



1 rasm. Haar veyvlet koeffitsentlarini hisoblash algoritmi

XULOSA

Maqolada tasvirlarni chastotalarga ajratish va siqish jarayonida Diskret Veyvlet O‘zgartirish (DWT) texnikasidan samarali foydalanish usullari tadqiq etildi. Grayscale formatga o‘tkazish va gistogramma tenglashtirish orqali tasvirning sifat ko'rsatkichlari oshirildi. DWT yordamida tasvir LL, LH, HL va HH kabi komponentlarga ajratilib, tasvirning muhim va yuqori chastotali qismlari olingan. Ushbu algoritm tasvirni siqishda yuqori sifatni saqlab qolish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Natijalar ushbu usulning tasvirni siqish va shovqinni kamaytirishda yaxshi natija berishini tasdiqladi.

REFERENCES

1. Daubechies, I. (1992). *Ten Lectures on Wavelets.* SIAM.
2. Mallat, S. (2009). *A Wavelet Tour of Signal Processing: The Sparse Way.* Academic Press.

3. Strang, G., & Nguyen, T. (1997). *Wavelets and Filter Banks*. Wellesley-Cambridge Press.
4. González, R. C., & Woods, R. E. (2017). *Digital Image Processing*. Pearson.
5. Donoho, D. L., & Johnstone, I. M. (1994). *Ideal spatial adaptation by wavelet shrinkage*. Biometrika, 81(3), 425–455.
6. Chang, S. G., Yu, B., & Vetterli, M. (2000). *Adaptive wavelet thresholding for image denoising and compression*. IEEE Transactions on Image Processing, 9(9), 1532–1546.
7. Pesquet, J. C., Krim, H., & Carfantan, H. (1996). *Time-invariant orthonormal wavelet representations*. IEEE Transactions on Signal Processing, 44(8), 1964–1970.
8. Zhang, B., & Stanley, H. (2004). *Wavelet Transform Thresholding for Image Compression*. IEEE Transactions on Image Processing, 13(6), 863–872.
9. Coifman, R. R., & Wickerhauser, M. V. (1992). *Entropy-based algorithms for best basis selection*. IEEE Transactions on Information Theory, 38(2), 713–718.
10. Figueiredo, M. A. T., & Nowak, R. D. (2001). *Wavelet-based image estimation: An empirical Bayes approach using Jeffrey's noninformative prior*. IEEE Transactions on Image Processing, 10(9), 1322–1331.

ILMIY VA BADIIY USLUBGA TEGISHLI MATNLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Odil To’xtamishovich Begimov
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti O’zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori
begimovodil@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada ilmiy va badiiy uslubga xos matnlarning xususiyatlari qiyosiy tadqiq etilgan. Ularning o’ziga xos maqsad va vazifalari, leksik, morfologik, sintaktik jihatdan shakllanish imkoniyatlari, turlari, shakllari tahlil etilgan, shu asosda bu uslublarning o‘xshash va farqli jihatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy uslub, badiiy uslub, funksional uslub, ilmiy matn, badiiy matn, terminologik leksika, mavhum leksika, sintaktik vositalar.

ABSTRACT

The article compares the characteristics of scientific and artistic texts. Their specific goals and objectives, lexical, morphological, syntactic possibilities of formation, types, forms are analyzed and on this basis similar and different aspects of these styles are identified.

Key words: scientific style, artistic style, functional style, scientific text, artistic text, terminological vocabulary, abstract vocabulary, syntactic means.

KIRISH

Adabiy til turli funksional uslublar tizimidir. Funktsional uslublar - bu tilning tarkibiy va funktsional variantlari, tilning differentsial ko’rinishlari, tilning asosiy funktsiyalariga muvofiq aniqlangan, inson faoliyatining har qanday sohasiga xizmat qiluvchi, stilistik jihatdan bir hil so'zlar, so'z shakllari va sintaktik modellarga ega bo'lgan til quyi tizimlari. Adabiy tilning funksional uslublari tizimida so‘zlashuv, ilmiy, rasmiy, ommabop, badiiy uslublar aniq namoyon bo‘ladi.

Bu uslublarning o’zaro munosabati, bir-biriga ta’siri, o’xshash va farqli tomonlariga xos xususiyatlar hamisha tilshunoslar uchun o’rganish obyekti bo’lib kelgan. Ularga xos ko’pgina xususiyatlar hali ham munozarali bo‘lib, bu munozaralar adabiy til tushunchasini subyektiv idrok etishi bilan emas, balki bu tushunchaning obyktiv murakkabligi bilan ham yuzaga keladi.

Masalan, bir guruh tadqiqotchilar badiiy adabiyot uslubini boshqa funksional uslublar bilan bir qatorga qo‘ydi. Boshqa

tadqiqotchilar esa ushbu turkumga "badiiy adabiyot tili" ni kiritmaydilar, chunki so'zlshuv, rasmiy, ilmiy, ommabop uslublardan farqli o'laroq, badiiy adabiyot tili stilistik jihatdan bir hil hodisalar tizimini ifodalamaydi va har qanday stilistik yopilishlardan butunlay mahrumdir.

Biroq, hozirgi o'zbek adabiy tilining har qanday uslubi izolyatsiyadan mahrum (badiiy va publitsistik uslubda, masalan, til birliklarini tashkil qilishning ko'plab umumiy tarkibiy elementlari va usullari mavjud). Bundan tashqari, har bir uslubda til birliklaridan foydalanishning maxsus strukturaviy elementlari va maxsus texnikasi bilan bir qatorda umumiy uslublararo til birliklari ham mavjud (aks holda til tizimida quyi tizimlarni - uslublarni ajratib bo'lmaydi). Maqolada adabiy til uslublarining o'zaro munisabatlari, o'ziga xos xususiyatlari badiiy va ilmiy uslublarga tegishli matnlar misolida taqqoslanadi va tahlil etiladi.

TADQIQOTNING METODOLOGIK ASOSLARI VA USULLARI

Tadqiqot metodologiyasi tilshunoslikda kuzatilgan tarixiylik va ijtimoiylik tendentsiyaga asoslanadi. U ma'lum bir tarixiy jarayondagi barcha hodisalar tarixiy va ijtimoiy shartlar va hodisalardan ajratmasdan talqin qilinishini nazarda tutadi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy asosini zamonaviy tilshunoslikning stilistika sohasida qo'llaniladigan ilmiy fikrlarni tahlil qilish usullari tashkil etadi.

Shuningdek, tilshunoslikka oid tadqiqotlarda mavjud umumiylik va xususiylik, mohiyat va hodisa, shakl va mazmun bilan uyg'unlashgan dialektik qonuniyatlarga tayaniladi. Asosiy tadqiqot usuli sifatida materiallarni tasniflash, tavsiflash, tuzilish va shakllanishiga ko'ra tahlil qilish, til faktlarini solishtirishdan foydalaniladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ilmiy uslub xarakterli xususiyatlari tilshunoslar uchun tadqiqot obyekti hisoblanib, ko'proq ilmiy, ilmiy-texnikaviy va ommabop fan sohalarida shakllantirish va loyihalash uchun ishlatiladigan g'oyalar, farazlar va yutuqlarning mazmuni va maqsadiga ko'ra farqlanadigan o'ziga xos nutq usullari majmuasini o'z ichiga oladi.

Ilmiy uslub funktsional uslubning bu turi terminologik va mavhum leksikaning, murakkab sintaktik tuzilmalarning qo'llanishi, so'zlarning asosan konkret, to'g'ri ma'noda qo'llanishi, maxsus iboralarga egaligi va sh.k. bilan ajralib turadi [5, 43].

Ilmiy matn - bu idrok etish va baholash uchun tegishli malakaga ega bo'lgan kishilarning o'z sohalari maqsadi uchun shakllantirilgan eksperimental faoliyatning natijasi, yutug'i yoki hisobotini aks ettiruvchi yozma nutq turi. Ilmiy matn muallifi uni eng informativ tarzda taqdim etishi uchun tegishli shaklda rasmiylashtirilgan uslubdan, maxsus vositalardan, shuningdek, foydalanilgan materialni taqdim etish usullaridan foydalanadi.

Ko‘pincha ilmiy matn chop etish maqsadida tayyorlangan yoki ixtisoslashtirilgan ishdir. Ilmiy matnlarga og‘zaki ma'ruza qilish uchun maxsus tayyorlangan materiallar, masalan, konferentsiyadagi ma'ruza yoki akademik ma'ruza ham kiradi. Ilmiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlari - ohangning betarafligi, xolis yondashuv, ma'lumot mazmuni, so‘zlarni qo‘llash xususiyatlari, materialni mantiqiy, adekvat taqdim etish uchun mutaxassislar tomonidan o‘rnatilgan terminologiya va noyob til vositalarining mavjudligi.

Ilmiy uslubning har bir matni o‘ziga xos qurilish mantig‘iga, tuzilish qonuniyatlariga amal qiladigan ma'lum bir to‘liq konfiguratsiyaga ega. Qoida tariqasida, muallif quyidagi sxemaga amal qilishi mumkin:

– muammoning mohiyati bilan tanishtirish, uning dolzarbligi va yangiligini asoslash;

– tadqiqot predmeti(ayrim hollarda obyekti)ni aniqlash;

– maqsadni belgilash, unga erishish jarayonida muayyan vazifalarni hal qilish;

– tadqiqot predmetiga har qanday tarzda ta’sir etuvchi ilmiy manbalarni ko‘rib chiqish, ishning nazariy va uslubiy asoslarini tavsiflash;

– terminologiyani asoslash; ilmiy ishning nazariy va amaliy ahamiyatini ko‘rsatish;

– ilmiy ishning mazmuni;

– tajriba tavsifi, agar u o‘tkazilgan bo‘lsa;

– tadqiqot natijalari, ishning natijalari asosida ishlab chiqilgan xulosalar.

Ilmiy uslubning asosiy xususiyatlari quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

1. Jamiyat hayotining sohasi - fan. Bunga aniq bir tadqiqot, ma’rifiy ishlar, o‘qitish va ilmiy-ommabop ishlar kiradi. Shuning uchun ilmiy uslub doirasiga ko‘plab janrlar tegishli bo‘ladi: maqola, ma'ruza, ilmiy hisobot, tezis, monografiya, ma’lumotnoma, darslik, o‘quv qo‘llanma, annotatsiya, taqriz, avtoreferat, dissertatsiya, ilmiy-publisistik esse, jonli ilmiy munozara, ko‘rsatma va boshqalar.

2. Asosiy funksiyasi - bilish. Til yordamida dunyo haqidagi tushunchalar yaratiladi, barcha turdagi aqliy operatsiyalar (taqqoslash, tadqiqot, sintez) amalga oshiriladi, ilmiy axborot saqlanadi va uzatiladi.

3. Nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabat turi – birgalikda yaratish. Ilmiy ish tahlil qilinayotgan davrda uning muallifi bilan birgalikda dunyoni anglash usullaridan biri o‘rganiladi.

4. Tayyorgarlik darajasi. Ilmiy nutqning o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning shakllanishi bir vaqtning o‘zida tayyor va o‘z-o‘zidan bo‘ladi, u ilmiy munozaralarda yaqqol ifodalanadi. Ilmiy matn, ilmiy nutqni qurish qonuniyatlari asosida yozilganiga qaramay, “tugallanmagan” hisoblanadi.

Muhokama uchun ochiq, xato deb hisoblanishi mumkin va hokazo.

5. Cheklovlarning mavjudligi. Har qanday ilmiy sohaning o‘ziga xos tili bor, u ushbu soha doirasida namoyon bo‘ladi. Masalan, ilmiy kashfiyotlar natijasida yangi formulalar, ta'riflar va muntazam konstruktsiyalar paydo bo‘ladi (yangi yulduzlar, kimyoviy komponentlar, nisbiylik tushunchasining ixtirosi).

6. Mavzular doirasi cheksizdir, chunki hech qanday tarzda ilmiy qiziqish va ilmiy o‘rganish obyekti bo‘la olmaydigan narsa yo‘q.

7. Nutqning ustun shakli - yozma. Og‘zaki janrlar vaqt o‘tishi bilan yozma janrlarga (ilmiy nutqlar, ma’ruzlarni nashr etish, ilmiy munozaralarni stenografiyaga yozib olish, taniqli olimlarning fikrlarini xotiradan yozib olish) aylantirilishi muhim ahamiyatga ega.

8. Bayon etish shakli shaxssiz bo‘lib, bu obyektivlikka intilish bilan bog‘liq. Bu yerda ko‘pincha majhul konstruksiyalar qo‘llaniladi: “… tadqiq etilgan”, shaxsi umumlashgan gaplar: “Kometa ochiq havoda kuzatildi...”. Zamonaviy ilmiy tilda muallifning "biz"i gapning shaxssiz shaklga qaraganda kamroq mashhur: biz o‘ylamaymizki emas, balki o‘ylashimizcha. Ilmiy matn uchun hamkorlikni ifodalovchi "biz" olmoshi ko‘proq mos keladi: "Biz shuni ta'kidlashimiz mumkinki ...". Ilmiy matnning strukturaviy xususiyatlari muallifning aniqlik, umumiylik, mantiqiylik, xolislik va analitiklikka intilishi bilan belgilanadi. Bu bir turdagi, takroriy konstruksiyalardan foydalanishda namoyon bo‘ladi, masalan, bosh kelishik, ergashgan qo‘shma gaplar, kirish so‘zlar, sifatdosh va ravishdosh birikmalar, oddiy so‘z tartibi va fe’lning hozirgi zamon noaniq shakllariga ustunlik berish. Analitiklik, masalan, o‘tkaziladi, amalga oshiriladi, birinchidan, ikkinchidan kabi so‘zlar bilan ifodalanadi.

9. Baholashning ifodalanishi - bilvosita yoki yashirin. Ilmiy nutqda baholash, masalan, so‘zlashuv nutqida yoki ommabop uslubda bo‘lgani kabi, "yaxshi-yomon" axloqiy me'yorlari bilan emas, balki "to‘g‘ri-noto‘g‘ri" tushunchalari bilan belgilanadi. Ammo haqiqiy amaliyotda, ayniqsa, og‘zaki ilmiy nutq sharoitida biz subyektiv va obyektiv baholashlarga duch kelamiz: "Bizning nuqtayi nazarimizdan noto‘g‘ri, demak, yomon degani". Yashirin baholash hatto o‘zini maxsus so‘z (termin)larda namoyon qilishi mumkin: pirog qatlami (harbiy sohada) - urushayotgan bir tomonning qo‘shinlari dushman qo‘shinlari bilan aralashgan holda joylashuvi; botayotgan quyosh simptomi (tibbiyotda) - bemorning ko‘zlarini orqaga burishdan iborat asab kasalligi belgisi.

10. Ilmiy matnning emotsionallik va ekspressivlik darajasi matn tegishli bo‘lgan ilmiy bilim sohasiga, shuningdek, muallifning xususiyatlariga bog‘liq. Ilmiy nutq yorqin va obrazli bo‘lishi mumkin emas, deb hisoblashga hech qanday asos yo‘q. Ko‘pincha

ilmiy ishlarda, xususan, munozarali asarlarda emotsional- ekspressiv til vositalari qo‘llaniladi, ular faqat ilmiy taqdimot fonida sezilarli darajada ta'kidlanadi va ilmiy nasrga sezilarli ravshanlik beradi [1].

Ilmiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri lingvistik vositalardan maxsus foydalanish bo‘lib, u nafaqat uslubning me'yoriy jihatlariga, balki mantiq qonunlariga ham asoslanadi. Demak, tadqiqotchi o‘z fikrlarini oqilona tushuntirish uchun o‘z nutqining alohida qismlarini o‘zaro bog‘lash uchun ilmiy uslubning morfologik xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlaridan foydalanishi kerak. Bu maqsadda turli sintaktik konstruksiyalar, uyushiq bo‘lakli, sifatdosh va ravishdosh birikmali turli tipdagi murakkab jumlalar qo‘llaniladi. Bularga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

– biron bir hodisalarni solishtirish (ikkalasi ham..., shuning uchun...);

- asosiy qismda aytilgan fikrlar haqida qo‘shimcha ma'lumotni o‘z ichiga olgan bog‘lovchi gaplardan foydalanish;

– ravishdosh birikmalar ham qo‘shimcha ilmiy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi;

– kirish so‘z va so‘z birikmalari, qo‘shimchali konstruksiyalar bir gap ichida ham, abzaslar orasida ham semantik qismlarni bog‘lash uchun xizmat qiladi;

– “qistirma so‘zlar” (masalan, shu tarzda, shuning uchun, shu bilan birga, xulosa qilib aytganda, boshqacha aytganda, biz ko‘rib turganimizdek) matnning turli qismlari o‘rtasida mantiqiy aloqa o‘rnatishga xizmat qiladi;

– mantiqan o‘xshash tushunchalarni sanab o‘tish uchun bir xil bo‘lakli gaplar ham qo‘llaniladi;

– klishe tuzilmalardan ko‘proq foydalanish, sintaktik tuzilmaning mantiqiy va ixchamligi.

Shunday qilib, biz tahlil qilgan ilmiy uslub, vositalarning xususiyatlari, munosabatlari ancha barqaror tizim bo‘lib, uni o‘zgartirish qiyin. Ilmiy ijodkorlik uchun imkoniyatlarning keng konsepsiyasiga qaramay, tartibga solinadigan me'yorlar ilmiy matnni "shaklni saqlashga" yordam beradi.

Shunday qilib, ilmiy uslubning ajralib turadigan jihatlari o‘ziga xos leksik va grammatik vositalar, sintaktik qoliplar hisoblanadi, buning natijasida matn tegishli mutaxassislar doirasi uchun tushunarli, aniq va ravshan bo‘ladi.

Badiiy uslub ma’lum bir voqelikni badiiy tasvir vositalari orqali obrazli ifodalovchi va shu yo‘l bilan tinglovchiga estetik ta’sir etuvchi nutq uslubi [4,19].

A. Hojiyev ta’rificha, badiiy uslub funktsional uslubning turlaridan bo’lib, u tilning kommunikativ va estetik vazifalarniing birligi bilan, boshqa uslublarga xos unsurlardan keng foydalanishi, ekspressiv va tasviriy vositalarning keng qo’llanishi, so’zlarning obrazli, ko’chma-metaforik qo’llanishi va sh. k. belgilari bilan ajralib turadi [5, 20].

Nutqning badiiy uslubi adabiyot va san’at tilidir. U his-tuyg‘u va hissiyotlarni, majoziy figuralarni va hodisalarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Badiiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Muallif o‘z pozitsiyasini adabiy tilning turli vositalari orqali ifodalaydi. Badiiy uslubdagi gaplarda troplar – o‘xshatishlar, jonlantirishlar, ko‘chimlar, metaforalar, mubolag‘alar va boshqalar mavjud bo‘ladi.

2. Badiiy uslub janridagi matn hissiyotga to‘la bo‘ladi.

3. Badiiy adabiyotdagi personajlar lingvistik vositalar yordamida yorqin va jonli tasvirlanadi.

4. Ayrim asarlarda muallifning mavjudligi doimiy ravishda kuzatiladi.

Badiiy uslubning asosiy maqsadi bu hukmga javob (baho) beradigan muallifning mulohazasini o‘quvchiga mos tarzda yetkazish. Badiiy adabiyotning turli uslublari har xil ma'lumotlarni qiziqarli va o‘ziga xos tarzda yetkazish imkoniyatini beradi.

Masalan, asarlarda ilmiy hodisalar ilmiy-badiiy uslubda tasvirlanadi. Gazeta va jurnallarda badiiy-ommabop uslubdan foydalanish mumkin.

Badiiy uslub turli lingvistik vositalardan foydalanib, ularning ba'zilari boshqa janrlardan olingan. Badiiy uslubning asosiy xarakterli xususiyati morfologik bilan bir qatorda sintaktik xususiyatlarning boyligi hisoblanadi.

Ko‘proq fe'l, olmosh, sifat va sifatdoshlarning qo‘llanilishiga katta e’tibor beriladi. Ular matn mazmunini kuchaytirishga va ravshan bo‘lishiga xizmat qiladi. Badiiy uslub matnida sintaksisning butun bir keng doirasi - tinish belgilari, sifatdosh birikmalar, bevosita va ko‘chirma gap shakllari qo‘llaniladi.

Adabiy uslubdagi matnlar mualliflari so‘z yasash usullaridan foydalanadilar. Xususan, emotsionallik qo‘shish maqsadida so‘zlarning qo‘shimchalari o‘zgartiriladi. Buni badiiy uslubga tegishli matnni tahlil qilishda ko‘rish mumkin.

Badiiy uslubning ifodalanishida turli xil lingvistik vositalar – boshqacha aytganda - troplarning qo‘llanishi kuzatiladi. Muallifning his-tuyg‘ulari va qarashlarini yetkazishdan tashqari, boshqa uslublardagi lingvistik vositalardan foydalanish ham xosdir. Badiiy maqsadli matnni aniqlash uchun ushbu elementlarning ma'nosi va ishlatilishini yaxshi tushunish kerak.

Muallif o‘zining shaxsiy mulohazalarini turli emotsiyalar va his-tuyg‘ular orqali kengaytiradi. Ushbu uslub o‘quvchilar va tasvirlangan vaziyat o‘rtasidagi munosabatni yuzaga chiqarish vazifasini bajaradi.

Badiiy matndagi boshqa uslublardan olingan asosiy elementlar bevosita nutqdir. Umuman olganda, badiiy uslubda juda ko‘p boshqa stilistik elementlar uchraydi. Bevosita nutq so‘zlashuv uslubidan olingan. Inversiyada gapning muhim qismi boshqa matnlar

orasidan ta'kidlanadi. Bu keyinchalik umumiy syujetga katta ta'sir qiladi. U so‘zni qayta tartibga solish orqali hosil bo‘ladi.

1-variant	2-variant
Agar ishbilarmonlar muzokaralarda bevosita o‘z pozitsiyalari va manfaatlarini himoya qilmoqchi bo‘lsalar, ular nafaqat muzokara predmetini, balki uning mazmunli tomonlarini ham bilishlari kerak. Agar ular odob-axloq qoidalari va nutq vositalaridan qanday foydalanishni bilsalar va bir qator qoidalarga rioya qilsalar yaxshi bo‘ladi. Agar biror kishi muzokaralarning odob-axloq qoidalariga e'tibor bermasa, bu muzokaralar maqsadiga erisha olmasligi mumkin.	Muzokaralarda bevosita o‘z pozitsiyalari va manfaatlarini himoya qilishni xohlovchi ishbilarmonlar, muzokaralar mavzusini bilishdan tashqari, ya'ni ularning mazmun tomoni, bir qator qoidalarga rioya qilgan holda odob va nutq vositalaridan foydalana bilish; ishbilarmonlik muloqotining axloqiy tomoniga e'tibor bermaslik muzokaralarning maqsadga erishilmasligiga olib kelishi mumkin.

1-variant grammatik nuqtayi nazardan soddaroq, chunki unda shaxsni ifodalaydigan fe'l shakllari ustunlik qiladi.

2-variantda fe'lning shaxsni ifodalaydigan shakllari otlashgan fe’llar (bilish,foydalana olish), aniq nisfatdagi hozirgi zamon sifatdoshi (xohlovchi), majhul nisbatdagi sifatdosh (erishilmasligi), o‘tgan zamon sifatdosh birikmalar (rioya qilgan holda) bilan almashtiriladi, buning natijasida u 1-variantga nisbatan ilmiy stilistikaning talablariga ko‘proq mos keladi.

Ularning eng asosiy bo‘linishi – bu ilmiylik va badiiylikdir. Badiiy va ilmiy matn o‘rtasidagi farq ishni qanday maqsadda yozilishidadir. Shunday qilib, agar roman, hikoya yoki she'r o‘quvchiga estetik zavq bag‘ishlasa, unga muallif orzu-istaklarining ruhiy dunyosiga kirish imkoniyatini bersa, ilmiy tadqiqot ishi natijasi sifatida yuzaga kelgan ilmiy janrdagi matn ko‘proq dunyoviy motivlarga ega bo‘ladi - ma'lum faktlar, farazlar haqida ma’lumot olish, biron bir hodisani tahlil qilish, o‘rganish imkoniyatini beradi. Bunday asarlarni yozish uchun, qoida tariqasida, nafaqat ma'lum bir olimning bilimlaridan, balki ma'lum bir mavzu bo‘yicha ma'lumotlarni tizimlashtirishdan ham foydalaniladi, o‘tgan tadqiqotchilarning yutuqlari tavsiflanadi. Ular bilan bahslashadilar, ularning fikrlariga qo‘shiladilar yoki inkor

etadilar. Ilmiy ishlarning maqsadi hamkasblarni kashfiyot haqida xabardor qilish va unga bo‘lgan huquqni ta'minlashdir.

Agar badiiy matn syujetga ega bo‘lsa, ilmiy matnda bu narsa mavjud bo‘lmaydi, u faqat faktlarning izchil taqdim etish, ularni izohlash ,tushuntirish va farazlarni o‘z ichiga oladi. Agar roman yoki hikoyada muallif zamon va makon jihatidan turlicha voqelikni yoritsa, ilmiy matnning bayon etish usuli qat'iy mantiqiydir.

Qolaversa, badiiy matnda bir qancha syujet chiziqlari bo‘lishi, ilmiy matnda esa, bir qancha hodisa yoki predmetlar tasvirlanishi mumkin, ammo syujetning mavjudligi yoki mavjud emasligi bir asarni boshqasidan ajratish imkonini beradi.

Badiiy matn va ilmiy matnning rasmiylashtirish o‘rtasidagi farq nimada, degan savol tug‘iladi. Birinchidan, nafaqat mazmun, balki shakl ham muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy matn ijodkori - so‘z ustasi. U o‘z fikrlarini ideal shaklda tasvirlashga harakat qiladi, shuning uchun u troplar - jarangdor epitetlar, yorqin, jozibali taqqoslashlar, giperbolalar, parallelizmlardan faol foydalanadi.

Ammo ilmiy matnlarda bunday imkoniyatlar mavjud emas. Ilmiy matn muallifining nutqi doimo to‘g‘ri, o‘rganilayotgan mavzu yoki hodisani batafsil va aniq tasvirlashi kerak bo‘ladi. Albatta, tadqiqotchi o‘z ishining obyektini iloji boricha batafsil tavsiflashi uchun taqqoslash va ta'riflardan foydalanishi mumkin. Har qanday bo‘rtirishlar va yumoristik yondashuvlarga ilmiy matnda qat'iy yo‘l qo‘yilmaydi.

Badiiy adabiyotdan ilmiy adabiyotning yana bir farqi qahramonlarning bor yoki yo‘qligidir. Demak, nasriy yoki she’riy asarda xarakter bo‘lishi kerak. Masalan, “O‘tgan kunlar” asarida Otabek, Kumush, Zaynab obrazlari o‘ziga xos xarakter bilan yaratilgan. Asar davomida ular bilan turli voqealar sodir bo‘ladi, qahramonlar shaxsiy evolyutsiyaga uchraydi va bir-biri bilan muloqot qiladi. Ba'zi qahramonlar asosiy, muallifning niyatini yuzaga chiqarish uchun kalit, boshqalari ikkinchi darajali bo‘lib, bosh qahramonlar bilan har qanday vaziyatni o‘ynash yoki yozuvchining g‘oyalarini ifodalash uchun zarurdir. Badiiy asardagi alohida personajlar hikoya davomida nobud bo‘lishi mumkin, bu ham yozuvchiga o‘z o‘quvchisiga muhim ma’lumotlarni yetkazish imkoniyatini beradi.

Ilmiy asarlarda hamma narsa boshqacha. Ularda qahramon yo‘q. Albatta, tadqiqot predmeti va obyektini shartli ravishda qahramonlar deb atash mumkin, ammo ular bilan sodir bo‘ladigan voqelikda muallifning fantaziyasi mavjud bo‘lmaydi. Olimlar barcha faktlarni o‘zlarining kuzatishlari asosida taqdim etadilar, ehtimol, farazlar bo‘lishi mumkin. Masalan, fanga noma'lum hasharotni tavsiflashda, entomolog u yoki bu organning yuzaga kelishini faraz qilishi mumkin. Shuning uchun, ilmiy matnda “biz

ishonamiz”, “biz faraz qilamiz”, “gipoteza” so‘zlari mavjud bo‘ladi. Bosqichma-bosqich, boshqa ishlarda har bir gipoteza faktlar bilan tekshiriladi, rad etiladi yoki tasdiqlanadi.

Ilmiy va badiiy adabiyotning yana bir farqi ularning turli janrlardan foydalanishidir. Shunday qilib, badiiy adabiyot nasr va nazmga bo‘linishi bilan ajralib turadi, ular ichida hikoya, qissa, roman va nazmning turli janrlari mavjud. Har bir janrning o‘ziga xos xususiyatlari va farqlanuvchi jihatlari bor. Ilmiy ishlar dunyosi ham xilma-xil janrlarga ega: risola, maqola, monografiya, tezis, taqriz, ilmiy hisobot va boshqalar. Badiiy va ilmiy uslubga tegishli matnlarning o‘ziga xos jihatlarini quyidagi jadvaldan bilib olish mumkin:

Taqqoslash parametri	Badiiy	Ilmiy
Maqsadi	Estetik zavq	Ilmiy fakt haqida xabar berish
Qo‘llanish doirasi	San’at	Fan va texnologiya
Uslub xususiyatlari	Tasviriylik, emotsionallik	Faktlarning aniq va izchil taqdimoti
Janrlar	She'rlar, romanlar, hikoyalar, ertaklar va b.	Ma’ruza, monografiya, maqola, tezis, darslik va b.

XULOSA

Demak, badiiy va ilmiy uslubga tegishli matnlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlillari asosida quyidaki xulosalar chiqarish imkonini beradi:

1. Badiiy uslubga tegishli matnlarda o‘quvchiga estetik zavq bersa, ilmiy matnlar ilmiy faktlar haqida xabar beradi.

2. Badiiy matnlar qo‘llanish doirasi san’atning turli sohalarini qamrab olsa, ilmiy matnlar fan va texnologiya sohalarida qo‘llanadi.

3. Badiiy uslubga xos matnlar tasviriylik, emotsionallik xususiyatlarini namoyon etsa, ilmiy uslubga tegishli matnlar faktlarni aniq va izchil taqdim etish xususiyatlarini namoyon etadi.

REFERENCES:

1. Vladimirova T. L. Yazik i stil nauchnogo teksta. Tomsk: Izd-vo Tomskogo politexnicheskogo universiteta, 2010. 80 s.
2. Valeyeva N. A. Xudojestvenniy stil - otlichitelnie osobennosti // Videotyutor po russkomu yaziku. https://clck.ru/W83p8
3. Yevtyugina A. A. Stilistika nauchnoy rechi. Yekaterinburg: RGPPU, 2013. 479 s.
4. Mahkamov N. O‘zbek tilshunosligi terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent: Fan, 2013. -144 b.
5. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘bekiston Milliy ensiklopediyasi,2006. -164 b.

XASHAKI LAVLAGI (BETA VULGARIS.S) NING PARVARISHLASH AGROTEXNIKASI

Umida Xasanovna Esirgapova
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti tayanch doktoranti (PhD)
esirgapovaumida073@gmail.com

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada chorvachilikni to‘yimli ozuqasi hiaoblangan, yem-xashak o‘simliklaridan biri bo‘lgan O‘zbekistonda Davlat reyestriga kiritilgan xashaki lavlagi (Beta vulgaris. S) ning xarakteristikasi, ahamiyati va uning ekish agrotexnikasi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Xashaki lavlagi, yem-xashak, sug‘oriladigan yerlar, hosildorlik, agrotexnika, ozuqaviy qiymat.

ABSTRACT:

This article provides information on the characteristics, importance and agrotechnics of planting beetroot (Beta vulgaris.S), which is one of the fodder plants that is a nutritious feed for livestock, included in the State Register in Uzbekistan.

Keywords: cattle beet, fodder, irrigated land, productivity, agro technics, nutritional value.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo qishloq xo‘jaligi amaliyotida chorvachilikda to‘yimli yem-xashak bazasini yaratish borasida yangi innovasion yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilib, ishlab chiqarishda joriy etilmoqda. Ta’kidlash kerakki, chorvachilikni to‘yimli yem-xashak bazasi bilan ta’minlashda ildizmevali ekinlardan xashaki lavlagi alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan dasturda chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini jadal rivojlantirish, respublika aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash va ishlab chiqarish imkoniyatlarni kengaytirish bo‘yicha ustuvor maqsad va vazifalar belgilangan. Dasturga ko‘ra, mamlakatimizda xashaki lavlagi yetishtirishni ko‘paytirish maqsadida 2022-2026-yillarda xashaki lavlagi ekini maydonlarini bosqichma-bosqich oshirib borish ko‘zda tutilgan. Shundan kelib chiqib, 2021, 2022, 2023-yillarda chorvachilik subyektlariga ozuqabop ekinlar ekish uchun ajratilgan 339,7 ming

gektar yer maydonlarining yillarga mos ravishda 13,8; 15,7; 17,3 ming gektariga xashaki lavlagi ekilgan.

Ayni vaqtda dunyoda xashaki va qand lavlagi yetishtiriladigan maydonlar hajmi 30 mln 862 ming gektarni tashkil etib, eng ko‘p maydon Amerika qit’asida 14 mln 150 ming gektarni, Osiyoda 11 mln 524 ming gektarni, Yevropada 2 mln 963 ming gektarni, Afrikada 1 mln 816 ming gektarni va Okeaniyada 409 ming gektarni, dunyo mamlakatlari orasida eng ko‘p xashaki lavlagi ekiladigan maydon Braziliyada 9 mln 971 ming gektarni, Hindistonda 5 mln 159 ming gektarni, Tailandda 1 mln 495 ming gektarni, Xitoyda 1 mln 365 ming gektarni, Pokistonda 1 mln 264 ming gektarni, Rossiyada 994 ming gektarni, Amerikada 828 ming gektarni, Meksikada 814 ming gektarni tashkil etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot obekti sifatida sho‘radoshlar oilasi vakili Xashaki lavlagi (Beta vulgaris.S) tanlab olindi.

Xashaki lavlagi (Beta vulgaris.S) sho‘radoshlar (Chepodiaceae) oilasiga mansub o‘simlik bo‘lib, vatani janubiy yarim sharda joylashgan mamlakat va orollar hisoblanadi.

Xashaki lavlagi sovuqqa chidamli o‘simlik hisoblanadi. Nihollari

-4°C sovuqqa bardosh bera oladi. Urug‘lari +3-4°C da unib chiqadi. Urug‘larini sog‘lom va baquvvat unib chiqishi uchun doimiy +13-15°C harorat talab etiladi. Xashaki lavlagi namlikni xush ko‘ruvchi o‘simlikdir. Ayniqsa, urug‘ni unib chiqish davrida namlikni ko‘proq talab qiladi. Urug‘ini unib chiqishi uchun urug‘ massasiga nisbatan 150% namlikka to‘yinadi. O‘simlikni asosiy biomassa to‘playdigan davri, ya’ni iyul, avgust oylarida suvga juda talabchan bo‘ladi. Uni parvarish qilishda bir pogono metrda 4-5 dona o‘simlik qoldirish talab etiladi. Xashaki lavlagi uzun kun o‘simligidir. Tuproq unumdor bo‘lgan erlarda yaxshi o‘sadi. O‘simlikka yorug‘likni etishmasligi va ko‘chat qalinligini qalin bo‘lishi uni o‘sishi, rivojlanishi va pishib etilishiga salbiy ta'sir etib, ildizmeva hosildorligini kamaytiradi [3].

Xashaki lavlagi O‘zbekistonda faqat sug‘oriladigan yerlarda o‘stiriladi. O‘zbekistonda xashaki lavlagining “O‘zbekiston–yarimqand”, “O‘zbekiston-83” navlari Davlat reyestriga kiritilgan. Yengil hazm bo‘ladigan, qoramollarda sutni ko‘paytiradigan, ozuqa ekini. Xo‘jaliklarda sut beradigan qoramollar ratsionida xashaki lavlagi 40-50% ga etadi. Lavlagi ildizmevasi foydali ma'danli moddalar, vitaminlardan tashkil topib, karotinga boy. Ildizmevalar hazmlanishi bo‘yicha yaylov o‘tlaridan qolishmaydi, dag‘al oziqalarning hazmlanishini engillashtiradi. Konsentrat emni

tejashga imkon beradi hamda nasl berishni yaxshilaydi. U asosiy yoki takroriy ekin sifatida o‘stirilsa, qoramollarning oqsilga boy, ekologik toza lavlagi sabzavoti ko‘payadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Chorva mollari sut mahsuldorligini oshirishda hashaki lavlagining ahamiyati katta hisoblanadi. Hashaki lavlagi shirali, yengil hazm bo‘ladigan va to‘yimli yem-hashak xususiyatiga ega. Shuningdek, hashaki lavlagi chorva mollari organizmida dag‘al hashakning yaxshi hazm bo‘lishiga yordam beradi. Chorvachilik subyektlarida sut beradigan qoramollar rasionida xashaki lavlagi 40-50% ni tashkil etadi. Takroriy ekin sifatida xashaki lavlagining “O‘zbekiston nimqand”, “O‘zbekiston-83” navlarini ekish tavsiya etiladi. Xashaki lavlagini janubiy (Surxondaryo, Qashqadaryo) viloyatlarda g‘alladan keyin ekib olish uchun imkoniyatlar etarlidir [9].

Lavlagi urug‘ining, shuningdek ildizmevalarining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri namlik, harorat hamda parvarishlashdagi agrotexnik tadbirlarning muddati va sifati hisoblanadi [5].

Lavlagi urug‘i ekilganidan so‘ng maysalar paydo bo‘lgunicha lavlagining yosh o‘simtasi odatda o‘zini qoplab turgan tuproq qatlamiga qarshilik ko‘rsata olishi va urug‘ pallasini uning yuzasiga olib chiqa olishi lozim, buning uchun u muayyan energiya zahirasiga ega bo‘lishi zarur. Shu bois urug‘ ekish chuqurligi va ko‘chat qalinligini tanlashda tuproq turi, harorat, namlik, aeratsiya, shunigdek urug‘ sifati e’tiborga olinadi [6].

Xashaki lavlagi Toshkent viloyati sharoitida ekish muddati 10-aprelda amalga oshirilganda unib chiqishi 21-aprel, 2-3 chin-barg chiqarishi 25-apel, 4-5 chinbarg chiqarishi 30-aprel, 6-7 chinbarg chiqarishi 4-may, 8-10 chinbarg chiqishi 10-may, barg o‘rashi 26-mayga va pishishi 8-ortyabrga to‘g‘ri kelganligi olib borilgan ilmiy-tdqiqot ishlarida o‘z isbotini topdi [4].

Ma’lumotlarga ko‘ra, xashaki lavlagini barg hosil qilish jarayoni kunlar hisobida quyidagicha: 10-bargdan 20-barg hosil bo‘lgunga qadar barglar har 1,5 kunda, 21-bargdan 30-barggacha har 2 kunda, keyingilari har 2,5-3 kunda bitta barg rivojlanishi aniqlangan [3].

Olimlarning ta’kidlashlaricha, xashaki lavlagini ekish muddatlari hamda ko‘chat qalinligi uning ildizmeva va barg hosildorligiga uzviy ta’siri kuzatiladi. Shuning uchun dala ekishga tayyorlanganidan keyin xashaki lavlagi ekadigan “SPCh-6”, “SXU-4” markali seyalkalar yordamida qatorlarining kengligi 60, 70 yoki 90 sm qilib, Toshkent, Sirdaryo, Samarqand viloyatlari va Farg‘ona vodiysida mart oyining birinchi o‘n kunligida, janubiy viloyatlarda fevral oyining oxirlarida, shimoliy viloyatlarda esa

aprel oyida ekish maqsadga muvofiqdir. Ekish sxemasi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, ko‘chat qalinligi gektar boshiga 70-75 ming tupni tashkil etishi maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar [2].

Lavlagida urug‘ ekish me’yori ko‘p jihatdan maysalar miqdori, ko‘chat qalinligi va yaganalashga sarf bo‘ladigan harajatlarni belgilab beradi. Lavlagida ko‘chat qalinligi ko‘pincha urug‘larning o‘lchami va unuvchanligiga bog‘liqdir. Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikricha, yirik urug‘lar o‘rtacha va maydalarga nisbatan ancha yuqori unuvchanlikka ega bo‘ladi [5].

V.A.Petrov, V.F.Zubenkolarning ma’lum qilishlaricha, lavlagini ko‘chat qalinligini belgilashda urug‘larning ekinboplik sifati, dalaning ekishga tayyorligi va uning ifloslanganlik darajasi, bahorgi kutilayotgan ob-havo, shuningdek o‘simlik qalinligini shakllantirish usullarini hisobga olish lozim. Lavlagidan yuqori va sifatli maksimal ildizmeva hosili olish uchun Rossiyaning shimoliy, ancha sernam tumanlarida lavlagida ko‘chat qalinligi yig‘im terim oldidan gektariga 85-100 ming tupni, janubiy va sharqiy tumanlarida esa 80-90 ming tupni tashkil etishi va ular maydon bo‘yicha bir tekis taqsimlanishi lozim [3].

  - UV nurlanish uzoq muddat davomida ko‘z to‘r pardasiga zarar yetkazishi va katarakta rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

*b) **DNKga zarar***

- UV nurlari hujayralar DNK strukturasini buzishi va mutatsiyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu ko‘pincha xavfli o‘sma hujayralar shakllanishiga olib keladi.

*c) **Ekotizimlarga ta’sir***

- Quyoshning o‘ta kuchli radiatsiyasi dengiz planktonlari va suv muhitida yashovchi boshqa mikroskopik organizmlarga zarar yetkazadi. Bu oziq zanjirini buzishi mumkin.

*d) **Organizmlarning ortiqcha isishi***

- Haroratning ortishi organizmlar uchun stress holatini keltirib chiqaradi. Bu o‘simliklar va hayvonlarning o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

3. Muvozanatni saqlash yo‘llari

*a) **Himoya choralarini ko‘rish***

- **Teri uchun**: Quyoshdan himoya qiluvchi kremlar (SPF) qo‘llash, quyoshli kunlarda soyabon va kiyimlar orqali terini yopish.
- **Ko‘zlar uchun**: UV filtrli ko‘zoynaklardan foydalanish.
- **O‘simliklar uchun**: Ortib ketgan issiqlik va quyosh radiatsiyasidan himoya qilish uchun qishloq xo‘jaligida sug‘orish tizimlarini va soyabonlarni qo‘llash.

*b) **Ultrabinafsha nurlanishni kuzatish***

- Quyosh nurlanishining intensivligini monitoring qilish orqali zararli ta’sirlarni kamaytirish mumkin.

*c) **Tananing moslashuvi***

- Quyosh nuridan ma’lum miqdorda foydalanib, D vitamini sintezini ta’minlash. Ammo bu jarayonni ortiqcha oshirib yubormaslik muhim.

MUHOKAMA

“Quyosh aktivligi” mavzusini sohalarga yo‘naltirib o‘qitish metodikasida quyidagilarni e’tiborga olish zarur.

Interfaol dars usullari:

- muammoli vaziyatlar yaratish va talabalarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirish;
- munozaralar va guruh ishlari tashkil qilish.

Multidisiplinar yondashuv:

- har bir fan doirasida mavzuga alohida e’tibor qaratish, so‘ng ularni yagona tizimga birlashtirish.

Loyiha asosidagi o‘qitish:

- talabalarga “Quyosh energiyasidan foydalanish” yoki “Quyosh dog‘lari va iqlim” mavzularida loyiha tayyorlashni topshirish.

Ko‘rgazmali materiallardan foydalanish:

- Quyoshning faoliyatini aks ettiruvchi grafiklar, videolar va 3D modellarni qo‘llash.

Tajriba o‘tkazish:

- Quyosh nurlanishini o‘lchash usullarini ko‘rsatish yoki kichik laboratoriya tajribalarini amalga oshirish.

XULOSA

“Quyosh aktivligi” mavzusini sohalarga yo‘naltirib o‘qitish yondashuvi o‘quv jarayonini interfaol, amaliy va mazmunli qilishda muhim o‘rin tutadi. Quyoshning faoliyati turli fanlar bilan bog‘liq bo‘lib, talabalarga fundamental bilim berish bilan birga, ularni hayotiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishga ham yordam beradi [5]. Metodikaning samaradorligi quyidagi xulosalarda o‘z ifodasini topadi:

- turli fanlar, jumladan, astronomiya, fizika, geografiya, biologiya va texnologiyalar bilan bog‘liq holda mavzuni tushuntirish orqali bilimlar chuqurlashtiriladi. Quyosh aktivligi va uning Yerga ta’sirini ilmiy asosda o‘rganish, tabiat qonunlarini tushunish uchun zamin yaratadi;
- talabalarlar real hayotda quyosh energiyasi, ekologiya va texnologiyalar sohasida bilimlarini qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Loyihalar, tajribalar va ko‘rgazmali materiallardan foydalanish orqali talabalarning muammolarni tahlil qilish va yechish ko‘nikmalari rivojlantiriladi;
- Quyosh aktivligi turli fanlarni yagona tizimda birlashtirishga imkon beradi. Bu esa talabalarda har bir sohaning o‘zaro bog‘liqligini tushunishga yordam beradi. Misol uchun, Quyoshning radiatsion ta’siri ekologiya, iqtisodiyot va texnologiyalarga bo‘lgan ta’sirini tahlil qilish orqali keng qamrovli yondashuv hosil qilinadi;
- mavzuni tushuntirishda zamonaviy texnologiyalar, masalan, sun’iy yo‘ldosh kuzatuvlari, 3D modellash va animatsiyalarni qo‘llash talabalar qiziqishini oshiradi. Quyosh faoliyatini kuzatish uchun dasturlar

va mos qurilmalardan foydalanish texnologik savodxonlikni oshiradi;

- Quyosh nurlanishining zararli va foydali ta’sirlarini tushunish orqali talabalar o‘z salomatliklarini himoya qilishni o‘rganadilar. Atrof-muhitni saqlash va barqaror rivojlanish tamoyillarini anglashni rivojlantiradi;

- talabalar Quyosh energiyasidan foydalanish bo‘yicha yangi g‘oyalar va texnologik loyihalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Guruh ishlari va interfaol metodlar orqali talabalarda ijodkorlik va jamoaviy ish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

“Quyosh aktivligi” mavzusini sohalarga yo‘naltirib o‘qitish nafaqat fundamental bilimlarni oshiradi, balki talabalarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularni muammolarni kompleks hal qilishga va real hayotdagi vaziyatlarga moslashishga tayyorlaydi. Bunday yondashuv kelajak avlodni ko‘p qirrali, innovatsion va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirish uchun muhimdir.

REFERENCES

1. Mamadazimov M. “Umumiy astronomiya”, Darslik, T.,Yangi asr avlodi, 2008 y.
2. Sattarov I., Pevtsov A.A., Karachik N.V., Sherdanov Ch.T., Tillaboev A.M. Solar Cycle 23 in Coronal Bright Points, Solar Physics, 2010, v.262, N2, 321-335
3. Sattarov I., Sherdonov Ch., Tillaboyev A.M., Minenko E., Karachik N.V. Quyosh tojidagi yorug‘ nuqtasimon tuzilmalar va ularning aktivlik sikllari bilan bog‘liqligi, O‘zMU xabarlari. – Toshkent, 2016. – № 2. – B. 280-285.
4. Tillaboyev A.M., Quyosh fizikasini o‘qitishda zamonaviy bilimlarni qo‘llashning nazariy asoslari, Fizika, matematika va informatika. – Toshkent, 2020. – № 3. – B. 21-28.
5. Tillaboyev A.M. Astronomiya kursini o‘qitishda zamonaviy ilmiy-tadqiqot natijalaridan foydalanishning metodik tizimi // Academic Research in Educational Sciences // ISSN 2181-1385 (Impact Factor: 5,723). – Uzbekistan, 2021. – Vol.2, – №5. – pp. 907-913.

PEDAGOGIK OLIY TA’LIM MUASSASASIDA BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHILARI UCHUN METODIK TAYYORGARLIK TIZIMINI AMALGA OSHIRISHDA SUBYEKT-REFLEKTIV TA’LIM STRATEGIYASI

Shokir Xudoynazarovich Berdiyev
Chirchiq davlat pedagogika universitet o‘qituvchisi
shokir.berdiyev88@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada pedagogik oliy ta’lim muassasasida bo‘lajak fizika o‘qituvchilari uchun metodik tayyorgarlik tizimini amalga oshirishda subyekt-reflektiv ta’lim strategiyasi va uning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: subyektiv-reflektiv ta’lim, gumanitar texnologiyalar, dialogik munosabatlar, ta’lim strategiyasi, fundamental subyektivlik, reflektsiya, shaxsiy ta’lim trayektoriya.

ABSTRACT

The article highlights the strategy of subject-reflective learning and its significance in implementing the methodological training system for future physics teachers in a pedagogical higher education institution.

Key words: Subject-reflective learning, humanitarian technologies, dialogic relationships, educational strategy, fundamental subjectivity, reflection, personal learning trajectory.

KIRISH

Subyektiv-reflektiv ta’lim - bu o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini va shaxsiy tajribalarini hisobga olgan holda, ularning o‘zaro faoliyatini va o‘zini anglash qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv bo‘lib ta’lim modeli o‘quv jarayonini faqat bilim berishga emas, balki talabaning shaxsiy rivojlanishi va professional malakasini oshirishga qaratilgan bo‘lib, talabalarni nafaqat o‘quv materiallarini yod olishga, balki ularni chuqur tahlil qilish hamda mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

T.B. Grebenyukning ta’kidlashicha, bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining o‘ziga xosligi o‘quv va kasbiy faoliyat subyektining xususiyatlari va fazilatlari bilan boshqa har qanday individuallikdan farq qiladi. Shu bilan birga, individuallikning barcha tarkibiy qismlarining

birligi, bog‘liqligi, o‘zaro shartliligi unga sifat jihatidan aniqlik va yaxlitlik beradi [5].

Subyektiv-reflektiv ta’lim shaxsning individualligiga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning asosiy xususiyatlari quyidagi munosabatlar o‘z aksini topadi:
talabaga hayotning subyekti sifatida, uning imkoniyatlarini idrok etish, bilim, hissiy-irodaviy, ijodiy qobiliyatlarini o‘z-o‘zini rivojlantirishga, o‘ziga xos g‘oyaviy munosabatlarga, moslashuvchi va o‘zgartiruvchi faoliyatga;
professor-o‘qituvchiga talabalarning hayotiy, ijtimoiy va ma’naviy ehtiyojlari aniqlashda yoki madaniy o‘zini o‘zi anglash jarayonida uni qayta qurishda yordam berishga qodir bo‘lgan yordamchi va maslahatchi sifatida;
ta’limni subyektga yo‘naltirilgan madaniy ijod jarayoni sifatida, uning harakatlantiruvchi kuchlari shaxsiy ma’nolar, muloqot va hayot haqidagi individual g‘oyalar tizimini yaratishda, fizika fanining gumanistik qadriyatlari va fizik ta’lim, o‘zaro munosabatlar to‘g‘risida. tabiat va jamiyat o‘rtasida, inson va o‘zi haqida;
yaxlit gumanitar ta’lim maydoni sifatida ta’lim muassasasiga.

NATIJALAR

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib ta’limning kontseptual apparati fizika talabalarini metodik tayyorlash tizimining tarkibiy qismlarini belgilab beruvchi gumanitar-texnologik yondashuvga muvofiq retseptiv tuzilgan maqsadlar talabaning subyektivligiga qaratilgan, mazmunda gumanitar jihatlar mustahkamlangan, talabalar uchun eng qulay sharoitlarda shaxsiy va kasbiy o‘sishga xizmat qiluvchi gumanitar texnologiyalar, shakl va vositalarga ustuvor ahamiyat berish lozim.

Uslubiy ta’lim tizimida predmetni aks ettiruvchi ta’limning asosiy tushunchalari va xususiyatlari quyidagi jadvalda tuzilgan (3-jadval).

3-jadval.

Fizika fanlari talabalarini metodik tayyorlash tizimida mavzuni aks ettiruvchi ta’limning xususiyatlari

Tushunchalar darajalari	Subyektiv-reflektiv ta’lim
Kontseptual	fizika o‘qituvchisining mavzu, avtonomiya, mustaqillik, tashabbuskorlik, tanlash qobiliyati, mas’uliyat, fikrlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, madaniy ijodkorligi.
Tashkiliy	ta’limni individuallashtirish, ta’limni shaxsiylashtirish

Mazmunli	faoliyat usullarini individual o‘zlashtirish, shaxsning kognitiv tajribasining boshlanishi sifatida subyektivlashtirish harakati, fizika ta’limining mazmuni ma’naviy va qadriyat asoslari, muammolarni hal qilish, tanlash.
Protsessual	qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etish, hissiy kechinmalar tajribasini aktuallashtirish, ma’no izlash faoliyati, o‘rganilayotgan faktlar va ularning ma’nosini tushunish, jarayon va hodisalarni baholash, o‘z-o‘zini tahlil qilish.
Bilish darajasi	reflektsiya, subyektivlik va izohli faoliyatni shakllantirishning gumanitar texnologiyalari, reflektiv ta’lim texnologiyalari, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyasi, loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi, keys texnologiyasi, o‘z-o‘zini talqin qilish, o‘zaro talqin qilish, o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘zaro tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro baholash
Ta’lim natijalari darajasi	fizik bilimlarning shaxsiy yo‘nalishi, hayotiy-semantik qadriyatlar, qadriyat ustunliklari, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini anglash, ma’no izlash tajribasi, kasbiy faoliyatda ijodkorlik, kompetentsiyalar, kommunikativ, baholash, aks ettirish qobiliyatining o‘sishi, o‘ziga va tashqi tinchlikka nisbatan o‘z-o‘zini tartibga soluvchi munosabatlar, professional o‘zini o‘zi belgilashning mas’uliyatli erkinligi

Vazifa darajasi	shaxsning aks ettirish-baholash faoliyatini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar, shaxsning subyektiv rivojlanishini ta’minlaydigan shart-sharoitlar, individual va guruhli fikrlash holatlari, shaxsiyatga yo‘naltirilgan ta’lim holatlari, shaxsning xatti-harakatlarining ichki tartibga soluvchisi sifatidagi qadriyat yo‘nalishlari, erkinlik. sub'ektlar tomonidan o‘qitish usullari, vositalari va texnologiyalarini tanlash, teng va dialogik shaxslararo munosabatlar

Ta’limning xususiyatlari kontseptual jihatdan “kasbiy o‘zini o‘zi belgilashning ma’suliyatli erkinligi” (maqsad sifatida), ta’lim usullari, vositalari va texnologiyalarini subyektlar tomonidan tanlash erkinligi” (shart sifatida) kabi tushunchalar bilan bog‘liq, “shaxsiy ahamiyatli bilimlar” (tarkib sifatida), “subyektivlik va sharhlovchi faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan gumanitar texnologiyalar” (vosita sifatida), “professional vakolatlar” (natijada). Ushbu asosiy tushunchalar fizika talabalarini metodik tayyorlash tizimidagi pedagogik muammoni hal qilishga qaratilgan: kasbiy faoliyatning qiymati mazmunini mustaqil ravishda belgilaydigan vakolatli shaxsni shakllantirish hisoblanadi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning subyektiv-reflektiv ta’limi - bu talaba shaxsini kasbiy pedagogik faoliyat subyekti sifatida ko‘rib chiqishni belgilaydigan ta’lim turi; dialogik munosabatlar va fikrlash asosida o‘quv faoliyatini qurishni jalb qilish; mazmunini o‘zlashtirish metodikasi talabalarning ta’lim, kasbiy va kasbiy muammolarni hal qilish faoliyati sifatida qaraladi.

Bo‘lajak fizika o‘qituvchisining subyektiv fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan uslubiy tayyorgarlik tizimini amalga oshirishning umumiy yo‘nalishi subyektiv-reflektiv o‘qitish strategiyasidir. Bu o‘qitish strategiyasi kasbiy muammolarni to‘g‘ri hal qilishga va uning kasbiy pozitsiyasini aniqlashga qodir bo‘lgan o‘qituvchlarini tayyorlash vektorini belgilaydi.

Ta’lim strategiyasi - bu maqsadlarni aniqlashning tizimli jarayoni bo‘lib, unga muvofiq ta’lim jarayonining xususiyatlari: maqsadlar, tamoyillar, mazmun, texnologiyalar va boshqalar belgilanadi. Strategiyani belgilash maqsadni, o‘quv jarayonini, talabalarni qo‘llab-quvvatlashni va fikr-mulohazalarini ishlab chiqishni anglatadi [3].

Shunday qilib, ta’lim strategiyasi fizika talabalarining uslubiy tayyorgarligiga nisbatan gumanitar-texnologik yondashuv bilan belgilanadigan va ushbu tizimning tarkibiy qismlari

(maqsad, mazmun, protsessual, samarali) bilan belgilanadigan taktik predikatlarni birlashtiradi.

Fanni aks ettiruvchi o‘qitish strategiyasi bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi maqsadlarini yangilash xarakterini belgilaydi. Maqsadlar darajasida subyektiv-reflektiv ta’limning namoyon bo‘lishining ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Fundamental subyektivlik - tanlanganlik, falsafiy, pedagogik, uslubiy, psixologik va boshqalarga shaxsiy munosabat. axborot va uni individual professor-o‘qituvchi va talabaning intellektual ehtiyojlarini qondirish subyektlari sifatida taqdim etish usuli, ularni talqin qilish va faoliyatning ichki motiviga aylantirishning o‘ziga xosligi.

Subyekt-reflektiv ta’lim nuqtai nazaridan, talaba shaxsi o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi tizim sifatida qaraladi, shu bilan birga shaxsga maqsad va rivojlanish yo‘llarini yuklash inkor etiladi, shaxs kasbiy o‘zini o‘zi belgilashning mas’uliyatli erkinligi bilib oladi.

Strategiya uslubiy fanlar sikli bo‘yicha ta’lim dasturlari konsepsiyasini, o‘quv kurslari mazmunining tuzilishi va o‘zaro bog‘liqligini belgilaydi, ta’lim mazmunini tanlashga qo‘yiladigan talablarni (qiymatga yo‘naltirilgan, muammoli, integratsiyalashgan) belgilaydi.

Gumanitar-texnologik yondashuv gumanitar fanlarning pedagogik texnologiyalari orasidagi ustunlikni belgilaydigan kontseptual pozitsiyani va subyektiv printsipni amalga oshirish jarayonining faoliyatga asoslangan, kommunikativ va ma’no izlash xususiyatini hisobga olgan holda ushbu texnologiyalarni tanlashni belgilaydi. Ushbu texnologiyalar nafaqat shaxsning xatti-harakatlarida o‘zini o‘zi belgilash va ularning oqibatlari uchun javobgarlik darajasini anglab yetadi. Gumanitar texnologiyalar orqali fanni aks ettiruvchi ta’lim strategiyasi muayyan metodik fanlarni o‘qitishda o‘quv jarayonining zamonaviy tashkiliy-metodik vositalarini boyitadi va optimallashtiradi.

Ta’lim faoliyatiga qo‘yiladigan zamonaviy talablarga muvofiq, mavzuni aks ettiruvchi ta’lim doirasida qo‘llaniladigan texnologiyalarni tavsiflash imkonini beruvchi mezonlar.

1. Motivatsiyaga asoslangan o‘quv faoliyatini boshlash.
2. Muammoli vaziyatning mavjudligi (tarkibni muammolilashtirish).
3. Maqsadlarni belgilash, rejalashtirish va ishlarni bajarishda mustaqillikning yuqori darajasi.
4. Dialogning mavjudligi, jamoaviy ish.
5. Ishni bajarish usullari, ketma-ketligi va vaqtini individuallashtirish.

6. Faoliyat mahsulining taqdimoti.
7. Reflektsiya (shu jumladan shaxsiy o‘zini o‘zi anglash).

MUHOKAMA

Ushbu texnologiyalarni mezon asosida baholash fizika talabalarining uslubiy tayyorgarligini boyitish va optimallashtirishga qodir bo‘lganlarini aniqlash imkonini berdi.

Subyektiv-reflektiv ta’lim talabalarning kasbiy kompetentsiyalari va subyektiv fazilatlarini baholash ko‘rsatkichlari va tartibini o‘zgartiradi. Kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirish ko‘rsatkichlari kasbiy muammolarni hal qilishga yordam beradi. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining subyektiv-reflektiv tayyorgarligiga asosiy e’tiborni o‘z-o‘zini hurmat qilishni rivojlantirishga, o‘quv faoliyati va haqiqiy o‘qitish amaliyoti kontekstida shaxsiy va kasbiy yutuqlar to‘g‘risida fikr yuritishga (refleksiyaga) qaratadi.

Talabalarning metodik tayyorgarligida real amaliyot mazmunini o‘zlashtirishning doimiy monitoringi usullarini aniqlash quyidagilarga imkon berdi:
darslarda va fizikani o‘qitishning boshqa shakllarida introspektsiya, mulohaza yuritish, o‘z-o‘zini va o‘zaro tahlil qilish, o‘z-o‘zini va o‘zaro baholashni talabalarning pedagogik va tadqiqot faoliyatining zaruriy sharti deb bilish;
talabalar faoliyatini metodik mashg‘ulotlarda va metodik seminarlarda, maslahatlashuvlarda o‘z-o‘zini va o‘zaro kuzatishda kuzatishni birlashtirish;
o‘quv va ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish bo‘yicha ish materiallarini o‘rganish va o‘zaro baholashga talabalarni jalb qilish.

XULOSA

Pedagogik oliy ta’lim muassasasida bo‘lajak fizika o‘qituvchilari uchun metodik tayyorgarlik tizimini amalga oshirishda subyektiv-reflektiv ta’lim strategiyasi bo‘lajak fizika o‘qituvchisining kasbiy kompetentsiyalarining ko‘rsatkichi va o‘lchovi bo‘lib pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda turli xil xarakterdagi aniq kasbiy vaziyatlar va muammolarni muhokama qilish va hal qilishga tayyorlashda muhim ahamiytga ega. Subyektiv-reflektiv ta’lim talabalar bilimi, fani chuqur tushunish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

REFERENCES

1. Berdiyev Sh.X. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda sub’ektiv-refleksiv o‘qitish

strategiyasini amalga oshirish metodik tizimi // Pedagog respublika ilmiy jurnali. - 2023/12 6-son – B. 352-358.
2. Ўлжаев, Ў. Б., & Бердиев, Ш. Х. (2021). Углерод нанотрубкасида олтин кластери ва углеводородли молекулаларнинг ўзаро таъсирини моделлаштириш. Academic Research in Educational Sciences, 2(5), 1189-1195.
3. Umbarov A.U. Pedagogika oliy ta'lim muassalarida umumiy fizikaning Elektromagnetizm bo'limini o'qitishda individual ta'limning pedagogik shart-sharoitlari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – Buxoro, 2023/12 12-son – B. 316-319.
4. Umbarov A.U. Higher education pedagogical - psychological support of individual educational trajectories of students // JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. 2023/7 Volume 9, Issue 6, pp 11-15.
5. Турсунов, И. Г., & Умбаров, А. У. Ў. (2024). Формы и методы организации индивидуального обучения студентов педагогических вузов по кредитно-модульной системе. Science and innovation, 3(Special Issue 23), 337-341.
6. Tursunov, I. G., & Eshniyozov, U. A. (2021). Elektrotexnika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo 'llash. Academic research in educational sciences, 2(4), 1030-1040.
7. Nizamiddinovich, E. A., & Abduxalilovich, A. B. (2023). Methodology for implementing interdisciplinary connection in physics teaching in general secondary schools. Web of Teachers: Inderscience Research, 1(9), 210-216.
8. Гребенюк Т.Б. Формирование индивидуальности будущего педагога в процессе профессиональной подготовки. дис. д-ра пед. наук: – Ярославль, 2000. – 452 с.

INDIVIDUAL TA’LIM TRAYEKTORIYASI ASOSIDA ELEKTROMAGNETIZM BO‘LIMINI O‘QITISHDA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Ikromjon Gulamjonovich Tursunov
Chirchiq davlat pedagogika universitet professori
Ikromjon08:04@gmail.com

Abduvohid Uktam o‘g‘li Umbarov
Chirchiq davlat pedagogika universitet o‘qituvchisi
umbarovabduvohid@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada individual ta’lim trayektoriyasi asosida Elektromagnetizm bo‘limini o‘qitishda mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi va uning ahamiyati hamda bu orqali talabalarning bilim salohiyatini oshirib metodik kompetentligini rivojlantirishga ahamiyat qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Mustaqil ta’lim, eliktron ta’lim resurslari, ilmiy-tadqiqotchilik, modul-kredit tizim, loyiha ish, metodologiya, individual ta’lim trayektoriya.

ABSTRACT

The article focuses on the methodology of organizing independent education in the teaching of the Electromagnetism department based on the individual educational trajectory and its importance, as well as the importance of developing the methodological competence of students by increasing their knowledge potential.

Keywords: Independent education, e-learning resources, scientific research, module-credit system, project work, methodology, individual education trajectory.

KIRISH

Hozirgi zamon texnikasini rivojlantirishda fizika fanining ahamiyati beqiyos. Fizik bilimlar va usullar nafaqat butun jamiyat, balki har bir shaxsning zamonaviy madaniyatini muhim elementi hisoblanadi, ayniqsa uning keyingi kasbiy faoliyati fan, texnika va ishlab chiqarish texnologiyasi bilan bog‘liq bo‘lsa. Fizika mashg‘ulotlarida o‘quv faoliyatida to‘plangan shaxsiy tajriba, talabalarning fizikani o‘rganish jarayonida egallagan ko‘nikma va malakalari ularning shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishi uchun juda muhimdir [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida o‘quv fanlarini, shu jumladan fizikani amaliy yo‘naltirib o‘qitish asosiy vazifa sifatida belgilangan [1]. Ushbu vazifalar ijrosini ta’minlashda, eng avvalo pedagogika oliy ta’lim muassasalari fizika ta’limini yuqori darajaga olib chiqishi talab etiladi. Talabalarning bilim saviyasi, ularning fan bo‘limlariga bo‘lgan qiziqishlarini inobatga olgan holda olib boriladigan va ularning individual salohiyatlarini rivojlantirishga imkon beradigan ta’lim – bu individual ta’lim sanaladi. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish uchun fizika fanining har bir bo‘limini o‘qitishda ularning individual hususiyatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish lozim. Bu esa professor - o‘qituvchidan yuksak bilim hamda pedagogik mahorat talab etiladi.

Elektromagnetizm bo‘limini o‘qitishda individual ta’limni tashkil etish metodikasi haqida gaplashishdan oldin uning metodologik asoslarini tahlil qilib chiqamiz. “Metodologiya” tushunchasi juda keng ma’noli bo‘lib, ko‘pincha metodologiya so‘zining keng ma’nosi uslubiy tizim sifatida tushuniladi. O‘rganilayotgan predmetning metodologik asoslarini tushunish orqali, har qanday uslubiy tizimning maqsadlari, mazmuni, usullari, shakllari va vositalari haqida fikr yuritish mumkin.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida umumiy fizikaning Elektromagnetizm bo‘limiga 180 soat ajratilgan bo‘lib modul-kredit tizimiga ko‘ra ushbu soatlarning 60%i mustaqil ta’limga ajratilgan. Biz talabalarning individual ta’limini samarali tashkil etish maqsadida ushbu mustaqil ta’lim soatlaridan unumli foydalanishga harakat qildik. Bunda, bo‘limga oid individual ta’lim dasturi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi.

NATIJALAR

Individual ta’lim trayektoriyasi asosida talabalarni umumiy fizika (Elektromagnetizm) fanidan mustaqil ta’lim mavzulariga tayyorlashda pedagogik yondashuv tizimi shaxs ijodkorligi va yaratuvchanligini boshqarishning bosh masalalaridan biri hisoblanadi. U o‘z ichiga zaruriy axborotlarni yig‘ish, tahlil qilish, maqsadni aniqlash, maqsadga erishish rejasini ishlab chiqish, reja bo‘yicha mustaqil ta’lim mavzulari individual ta’lim asosida tayyorlanishni tashkil qilish va uni amalga oshirish, mustaqil ta’lim mavzularini professor-o‘qituvchi ko‘rsatmalariga binoan qayta ishlash, mustaqil ta’lim mavzulari bo‘yicha taqdimot tayyorlash, ilmiy - amaliy anjumanda chiqish qilish kabi bosqichlarni qamrab oladi [3,4]. Talabalarni umumiy fizika

(Elektromagnetizm) fanidan mustaqil ta’lim mavzularini bosqichma - bosqich o‘rganishga jalb etish bosqichlari hamda professor-o‘qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyatlarini tashkil etish lozim.

1. Boshlang‘ich tanishtirish bosqichi. *Professor-o‘qituvchi faoliyati:* individual ta’lim trayektoriyasi asosida talabalarning (bilim darajasidan kelib chiqib) metodik kompetentligini mustaqil ta’lim orqali rivojlantirish dasturini tuzadi; mustaqil ta’lim mavzulariga individual yondoshuvni o‘rgatadi. *Talabaning faoliyati:* individual ta’lim trayektoriyasi asosida talabalarning (bilim darajasidan kelib chiqib) metodik kompetentligini mustaqil ta’lim orqali rivojlantirish dasturini tushunib oladi; mustaqil ta’lim mavzularini individual o‘rganib tushunchasini professor-o‘qituvchiga bayon qiladi.

2. Umumiy fizika (Elektromagnetizm) fanining mustaqil talim mavzularini tanishtirish. *Professor-o‘qituvchi faoliyati:* mustaqil ta’lim mavzularini qaysi adabiyotlardan o‘rganish (darslik, o‘quv qo‘llanma, eliktron ta’lim resurslari va ilmiy jurnallar) kerakligi haqida tushunchalar va mavzularni individual o‘zlashtirish rejalarini tuzishga yordam beradi. *Talabaning faoliyati:* talabalar mustaqil ta’lim mavzularini darslik, o‘quv qo‘llanma, eliktron ta’lim resurslari, ilmiy jurnallar hamda maruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarida olgan bilimlari asosida individual o‘zlashtirish rejalarini tuzadi.

3. Umumiy fizika (Elektromagnetizm) faniga qiziqish (motivi)ni uyg‘otish. *Professor-o‘qituvchi faoliyati:* mustaqil ta’lim mavzulari yuzasidan talabalar bilan individual va guruh shaklida suhbat o‘tkazadi. Nazariy va eksprimentda ochilgan qonun qoidalarni o‘rgatish orqali mustaqil ta’lim mavzularini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi. *Talabaning faoliyati:* Nazariy va eksprimentda ochilgan qonun qoidalarni o‘rganish orqali hamda ilim-fan sohasida xizmat kursatgan olimlar izidan borishni maqsad qilib, mustaqil ta’lim mavzularini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishni namoyish qiladi.

4. Individual ta’lim trayektoriyasi asosida mustaqil ta’lim mavzularini tuzish. *Professor-o‘qituvchi faoliyati:* professor-o‘qituvchi ta’lim muassasasining real moddiy - texnik ta’minotini hisobga olish va u asosida mustaqil ta’lim mavzularining ro‘yxatini tuzib chiqadi va ularni qiyinlik darajasi bo‘yicha ajratadi; talabani mustaqil ta’lim mavzulariga tayyorlanishning dastlabki bosqichlari bilan tanishtiradi (ish mavzusini va ishning maqsadini aniqlash, o‘quv adabiyotlari bilan ishlash, ma’lumotlarni qidirish, ish rejasini tuzish). *Talabaning faoliyati*: o‘zining bilim darajasi va qobiliyatiga qarab mustaqil ta’lim mavzulariga tayyorlanadi mustaqil ta’lim mavzularining maqsadini aniqlashtiradi; mustaqil ta’lim mavzulariga tayyorlanish rejasini tuzadi; mustaqil ta’lim mavzulariga oid ma’lumotlarni yig‘adi.

5. Mustaqil ta’lim mavzulariga oid ma’lumotlarni to‘plash va tizimlashtirish. *Professor-o‘qituvchi faoliyati*: mustaqil ta’lim mavzulariga oid ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilishga yordamlashadi; axborot resurslari bilan ishlash asoslari va adabiyotlardan foydalanish tamoyillari bilan tanishtiradi. *Talabaning faoliyati*: professor-o‘qituvchi bilan hamkorlikda mustaqil ta’lim mavzulari bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlarni tizimlashtiradi; axborot bilan ishlashni (Internetdan kerakli ma’lumotlarni qidirishni va olishni) o‘rganadi; olingan axborotlar bo‘yicha nazariy ma’lumotlarni o‘qib o‘rganadi.

6. Mustaqil ta’lim mavzularining bajarilishini aniqlashtirish. *Professor-o‘qituvchi faoliyati*: talabaning mustaqil ta’lim mavzulari ustida olib boriladigan ish rejasini tahlil qiladi va mustaqil ta’lim mavzularidagi asosiy tamoyillari bilan tanishtirib, unga zaruriy ko‘rsatmalar beradi. *Talabaning faoliyati*: professor-o‘qituvchi bilan birgalikda mustaqil ta’lim mavzularini o‘zlashtirishda qiyinchilikga uchragan mavzulari yuzasidan fikir almashadi va o‘zlashtirish uchun optimal yo‘lini aniqlashtirib oladi.

7. Mustaqil ta’lim mavzulariga oid loyiha ishlarini tayyorlash. *Professor-o‘qituvchi faoliyati*: loyiha ishlari uchun zarur bo‘lgan jihozlarni ta’minlab beradi; talabalarning mustaqil ta’lim mavzulariga oid loyiha ishlarini o‘tkazish usuli bilan tanishgach unga zaruryat bo‘lsa amaliy yordam beradi; mustaqil ta’lim mavzulariga oid fizik loyiha ishlarini izchil tashkil etish va o‘tkazishga talabalarni tayyorlaydi; talabalarning ish jarayonini kuzatadi. *Talabaning faoliyati:* loyiha ishlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘ladigan o‘lchov asboblar va jihozlar, o‘rganilayotgan muammo haqida ma’lumotlarni yaxshi o‘rganadi; mustaqil ta’lim mavzulariga oid fizik loyiha ishlarini izchil tashkil etadi va o‘tkazadi; loyiha ishlari natijalarini qayta ishlaydi; olingan natijalar asosida tahlil o‘tkazadi.

8. Mustaqil ta’lim mavzularini tahrir qilish va topshirish. *Professor-o‘qituvchi faoliyati*: mustaqil ta’lim mavzulari bo‘yicha yozilgan matnni tahrir qiladi va matnni yozishda yuzaga kelgan savollarga oydinlik kiritadi; mustaqil ta’lim mavzularini topshirish tartibi bilan tanishtiradi. *Talabaning faoliyati*: professor-o‘qituvchidan olgan ko‘rsatmalar asosida mustaqil ta’lim mavzularini o‘rganadi va matnini to‘g‘rilaydi; mustaqil ta’lim mavzularini topshirish tartibini puxta o‘rganadi.

9. Mustaqil ta’lim mavzularini baholash mezoni bilan tanishtirish. *Professor-o‘qituvchi faoliyati*: mustaqil ta’lim mavzularini baholash mezoni bilan tanishtiradi. Bular: *a*) talabani mustaqil ta’lim mavzularining tashkiliy nazariy qismi(axborot bilan ishlash)ni baholash; *b*) amaliy qismi (eksperimenti bajarish jarayoni va olingan natijalar)ni baholash; *s*) axborot texnologiya dasturlaridan mustaqil ta’lim mavzularini o‘rganishda foydalanishini baholash; *d*) mustaqil ta’lim mavzulari tahlilini baholash; *e*) ilmiy-amaliy

anjumandagi chiqishini baholash. *Talabaning faoliyati*: talabalar mustaqil ta’lim mavzularini baholash mezonlari bilan tanishadi; mustaqil ta’lim mavzulari bo‘yicha ijobiy baholarni olish uchun o‘zida intilish hisini uyg‘otadi.

10. Mustaqil ta’lim mavzularini topshirish. *Professor-o‘qituvchi faoliyati*: talabalar darslik, o‘quv qo‘llanma, eliktron ta’lim resurslari, ilmiy jurnallar hamda maruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarida olgan bilimlari asosida mustaqil ta’lim mavzularini individual topshirishini tashkil etadi, tinglaydi va unga tuzatishlar kiritadi. *Talabaning faoliyati*: mustaqil ta’lim mavzularini topshirish shartlarini o‘rganadi; mustaqil ta’lim mavzularidan maruza (slayd)lar tayyorlaydi; professor-o‘qituvchi taklif va tavsiyalarini hisobga olib, mustaqil ta’lim mavzulariga tayyorlagan maruza (slayd)lariga tuzatishlar kiritadi va qaytadan topshiradi.

11. Mustaqil ta’lim mavzularini topshirish jarayonini tahlil qilish. *Professor-o‘qituvchi faoliyati*: talaba bilan birgalikda uning mustaqil ta’lim mavzulariga tayyorlagan maruza (slayd)larigni tahlil qiladi; yutuq va kamchiliklarning sabablari ko‘rsatib beradi. *Talabaning faoliyati*: professor-o‘qituvchi bilan birgalikda o‘zining mustaqil ta’lim mavzulariga tayyorlagan maruza (slayd)larining natijalarini tahlil qiladi [3,5,6,7,8].

Umumiy fizika (Elektromagnetizm) fanining mustaqil ta’lim mavzulariga qiziqish uyg‘otish komponenti mazmuni metodik tizimning variativ qismi hisoblanib, talabalarning yoshga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirishning metodik tizimini amaliyotga joriy etishda “Individual ta’lim trayektoriyasi asosida talabalarni umumiy fizika (Elektromagnetizm) fanidan mustaqil ta’lim mavzulariga tayyorlash metodikasi” mustaqil ta’lim (Elektr va magnetizm nomli o‘quv-metodik qo‘llanma) asosiy vosita vazifasini o‘taydi [9].

MUHOKAMA

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida talabalarda umumiy fizika (Elektromagnetizm) fanining mustaqil ta’lim mavzularini o‘zlashtrishda mazkur mustaqil ta’lim uchta bosqich orqali amalga oshirish mumkin. Ularni qisqacha tavsiflab o‘tamiz. «Mustaqil ta’limning birinchi bosqichi umumiy fizika (Elektromagnetizm) fani bilan “Ilk tanishuv” bo‘lib, bunda o‘qitishning reproduktiv shaklidan foydalaniladi. Talabalarga ma’ruza orqali umumiy fizika (Elektromagnetizm) fani, mustaqil talim mavzulari bilan tanishish, ilmiy bilish usullari, ilmiy-tadqiqotchilik ko‘nikmalari va uning tuzilmasi, mustaqil talim mavzularini individual tarizda bajarishga tayyorlash, to‘plangan ma’lumotlarni tahlili va umumlashtirish, mustaqil ta’lim mavzularining yozilish tartibi, mustaqil ta’lim mavzulari

taqdimotining tayyorlanishi, ilmiy-tadqiqot ishini baholash mezoni oydinlashtiriladi. Turli mavzularda suhbat va loyiha ishlari asosida talabalarda ilmiy-tadqiqot ishiga bo‘lgan motivlar uyg‘otiladi.

XULOSA

Umumiy fizika (Elektromagnetizm) fanini individual ta’lim trayektoriyasi asosida o‘qitishda mustaqil ta’lim mavzularini o‘zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali talabalar o‘quv qo‘llanma, eliktron ta’lim resurslari, ilmiy jurnallardan hamda maruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarida olgan bilimlarini kiyingi kasbiy foaliyatida qo‘llash ko‘nikmalari rivojlanadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoyishi.
2. Турсунов, И. Г., & Умбаров, А. У. Ў. (2024). Формы и методы организации индивидуального обучения студентов педагогических вузов по кредитно-модульной системе. Science and innovation, 3(Special Issue 23), 337-341.
3. Umbarov A.U. Pedagogika oliy ta’lim muassalarida umumiy fizikaning Elektromagnetizm bo‘limini o‘qitishda individual ta’limning pedagogik shart-sharoitlari // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – Buxoro, 2023/12 12-son – B. 316-319.
4. Umbarov A.U. Higher education pedagogical - psychological support of individual educational trajectories of students // JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. 2023/7 Volume 9, Issue 6, pp 11-15.
5. Tursunov, I. G., & Eshniyozov, U. A. (2021). Elektrotexnika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo ‘llash. Academic research in educational sciences, 2(4), 1030-1040.
6. Nizamiddinovich, E. A., & Abduxalilovich, A. B. (2023). Methodology for implementing interdisciplinary connection in physics teaching in general secondary schools. Web of Teachers: Inderscience Research, 1(9), 210-216.
7. Tillaboyev, A. M. (2021). Astranomiya kursini o „qitishda zamonaviy ilmiy-tadqiqot natijalaridan foydalanishning metodik tizimi. Academic research in educational sciences, 2(5), 907-913.
8. Kutlimuratov, S. S., Otojanova, N. B., & Tadjibaev, I. U. (2024). Calculation of the anisotropy parameter for galaxy clusters. Ukrainian Journal of Physics, 69(6), 367-367.

9. Abdullayev, H. S., & Usmonov, M. M. (2022). Gaz qonunlari mavzusida namoyishli tajribalarning amaliy ahamiyat va metodlari. Pedagogical sciences and teaching methods, 21-24.

MOSH NAVLARINING TASHQI MUHITNING STRESS OMILLARIGA- SHO‘RLANISHGA CHIDAMLIGINI BAHOLASH

Muhiddin Absamatovich Aliyarov
izlanuvchi, O‘GRITI

Fayzulla Xabibullaevich Abdullaev
q/x.f.n., k.i.x., DO‘QIIICHM

Safar Menglikulovich Alikulov
q/x/f.d., prof., O‘GRITI

ANNOTATSIYA

Maqolada moshning (*Vigna radiata* (L.) R.Wilczek) «Barqaror» va «Durdona» navlarining ekologik stress omillariga chidamliligini o‘rganish natijalari ko‘rib chiqilib, sho‘rlanishga chidamliligiga urg‘u berilgan. Ishning maqsadi o‘rta tuproq sho‘rlanishiga ega hududlarda hosildorlikni cheklovchi asosiy omillardan biri bo‘lgan sho‘rlanish ta’sirida mosh navlarining moslashish qobiliyatini baholashdan iboratdir. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, moshning «Barqaror» navi «Durdona» naviga nisbatan sho‘rga chidamliliroq bo‘lib, bu o‘z o‘rnida tuproq sho‘rligi nisbatan yuqori bo‘lgan sharoitlarda yetishtirish uchun tavsiya etish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: mosh, nav, baholash, stress omillar, tashqi muhit, sho‘rlanishga chidamlilik, o‘simliklar moslashuvi, biotik stresslar, iqlim sharoitlari.

ABSTRACT

The article discusses the results of a study of the resistance of mung-bean cultivars (*Vigna radiata* (L.) R.Wilczek) «Barkaror» and «Durdona» to environmental stress factors, with an emphasis on salt tolerance. The aim of the work was to assess the adaptive capacity of mung-bean cultivars when exposed to salt stress, which is one of the key factors limiting crop yields in arid and semi-arid areas. The results of the experiments showed that the mung-bean cultivar «Barkaror» has increased salt tolerance compared to the «Durdona» cultivar, which allows them to be recommended for cultivation in conditions with an average level of soil salinity.

Keywords: mung-bean, cultivar, evaluation, stress factors, external environment, salt tolerance, plant adaptation, biotic stress, climatic conditions.

KIRISH

Zamonaviy qishloq xo'jaligi sharoitida, iqlim o‘zgarishi va tuproq sifatining yomonlashuvi tobora sezilarli bo‘lib borayotgan bir paytda, ekinlarning ekologik stress omillariga chidamliligini baholash alohida ahamiyatga ega. Bu omillardan biri tuproqning sho‘rlanishi bo‘lib, u o‘simliklarning o‘sishini cheklaydi, hosildorlik va mahsulot sifatini pasaytiradi. Shu munosabat bilan tuproq sho‘rlanishiga samarali bardosh bera oladigan navlarni izlash va tanlash muhim ahamiyatga ega.

Mosh (*Vigna radiata* (L.) R.Wilczek) istiqbolli dukkakli ekinlardan biri sifatida yuqori ozuqaviy qiymatiga ega, qishloq xo‘jaligida keng qo‘llaniladi va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Biroq, bu ekinga katta qiziqish bo‘lishiga qaramay, uning sho‘rlanishga chidamliligi masalasi hali ham etarli darajada o‘rganilmagan. Ma’lumki, o‘simliklarning sho‘rlanishga chidamliligi darajasi genotipga qarab o‘zgarib turadi, bu esa chidamli navlarni ko‘paytirish imkoniyatlarini ochadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi turli xil mung navlarini ularning tuproq sho‘rlanishiga chidamliligi nuqtai nazaridan baholashdir. Tuz ta’sirida sodir bo‘ladigan fiziologik va morfoxo‘jalik belgilarning o‘zgarishlarni qayd etish orqali navlarni tanlash imkonini yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA


Izlanishlar davomida «Durdona» va «Barqaror» mosh navlarining tashqi muhitning stress omillariga, jumladan sho‘rlanishga chidamlilik xususiyatini o‘rganish bo‘yicha laboratoriya sharoitida tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqotlarda sho‘rlanishga chidamlilik xususiyatini aniqlash uchun *NaCl* moddasining 0,5% va 1,0%li eritmalaridan foydalanildi. Tadqiqotlar davomida quyidagi ko‘rsatgichlari qayd etildi: urug‘ unuvchanligi, urug‘ning yollanma ildizlar soni, asosiy ildiz uzunligi hamda poy uzunligi. Tadqiqot natijalari 1-rasmlarda keltiriladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqotda «Durdona» va «Barqaror» mosh (*Vigna radiata* (L.) R.Wilczek) navlarining tuz stressiga chidamliligini baholadi. Bu navlar *NaCl* moddasining 0,5% va 1,0%li konsentratsiyalarida qarshilik darajasida farqlanishi aniqlandi, bu o‘simlik o‘sish tezligi, biomassa va xlorofill tarkibining pasayishida aks etdi. Eng chidamli navlar sezgir navlarga nisbatan fiziologik parametrlarda kichikroq o‘zgarishlarni namoyon etdi. Antioksidant fermentlar faolligida navlar o‘rtasida farqlar aniqlandi, bu antioksidant tizimning sho‘rlanishga chidamlilik mexanizmidagi ahamiyatini ko‘rsatadi (*1-rasm*).

Urug‘ unuvchanligi belgisi bo‘yicha olib borilgan laboratoriya tahlillari natijasida mosh navlarining nazorat

variantlarida 100,0%ni tashkil etgan bo‘lsa, 0,5%li *NaCl* eritmasida «Barqaror» navida urug‘ unuvchanligi 92,1%ni, «Durdona» navida esa 83,3%ni tashkil etdi. Ushbu belgining 1,0%li osh tuzi eritmasida urug‘ unuvchanlik muvofiq ravishda 80,5% va 71,9% ko‘rsatgichlari qayd etildi.



Rasm 6. **Mosh navlarining sho‘rlanishga chidamlilik bo‘yicha ko‘rsatgichlari**

Urug‘ning yollanma ildizlar soni nazorat variantlarida- «Barqaror» navida 25.4 mm, «Durdona» navida esa 24.1 mm tashkil etdi. *NaCl*ing 0,5%li eritmasida «Barqaror» navida 24,8 mm, «Durdona» navida 14.2 mm miqdorni namoyon qildi. *NaCl*ning 1,0%li eritmasida yollanma ildizlar soni «Barqaror» navida 23,1 mm, «Durdona» navida 7.8 mm tashkil etdi.

Asosiy ildiz uzunligi belgisi bo‘yicha olingan ma’lumotlarga ko‘ra nazorat variantlarida «Barqaror» navida 51,0 mm va «Durdona» navida- 44,9 mm ni tashkil etgan bo‘lsa, 0,5%li *NaCl* eritmasida bu belgi «Barqaror» navida 50,4 mm, «Durdona» navida esa 27,5 mm miqdor qayd etildi. *NaCl*ning 1,0%li eritmasida ildiz uzunligi «Barqaror» navida 50,4 mm va «Durdona» navida- 13,6 mm ko‘rsatgichlar aniqlandi.

Poya uzunligi bo‘yicha tadqiqotlarda nazorat variantlarida «Barqaror» navida 50,0 mm, «Durdona» navida- 44,6 mm ko‘rsatgich qayd etildi. *NaCl*ning 0,5%li eritmasida «Barqaror» navida 53,0 mm, «Durdona» navida 29,2 mm miqdorni namoyon qildi. *NaCl*ning 1,0%li eritmasida yollanma ildizlar soni «Barqaror» navida 48,2 mm, «Durdona» navida esa 9,0 mm ni tashkil etdi.

Olingan tahlil natijalariga ko‘ra moshning «Barqaror» navi standart «Durdona» naviga nisbatan sho‘rlanishga chidamliroq ekanligi aniqlandi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan, BMT Taraqqiyot Dasturining O‘zbekiston Respublikasi Qishloq

xo‘jaligi vazirligi bilan hamkorlikdagi «Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sektorining «yashil iqtisodiyot»ga inklyuziv o‘tishini qo‘llab quvvatlash va iqlimga yo‘naltirilgan qishloq xo‘jaligi bilimlari va innovatsion tizimini rivojlantirish (EU-AGRIN)» loyihasining «Yer-suv resurslari boshqaruvining integrasiyalangan innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda «Barqaror» yangi mosh navini joriy etish» sub-loyihasi doirasida 2023-2024 yillar davomida Farg‘onaning Dang‘ara tumanidagi «Best Cotton Fields» fermer xo‘jaligi o‘rta sho‘rlangan 4,0 gektar yer maydonida moshning «Barqaror» navi sinovdan o‘tkazildi. Tuproqning kuchsiz va o‘rtacha sho‘rlanishi sharoitlarida moshning «Barqaror» va mahalliy navlarining hosildorligi aniqlandi. Mahalliy nav (*nazorat 1*) variantida tuproq sho‘rligi 4,9 dS/m sharoitida mosh hosildorligi 0,94 t/ga, «Barqaror» navi, o‘rtacha sho‘rlangan sharoitda (*6,8 dS/m*) hosildorlik 1,92 t/ga tashkil etdi.

XULOSA

Olib borilgan fiziologik tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘rganilgan moshning «Barqaror» va «Durdona» navlarining tashqi muhitniing stress omilariga, ya’ni sho‘rlanishga chidamlilik xususiyati bo‘yicha «Barqaror» navi standart «Durdona» naviga nisbatan chidamli ekanligi aniqlandi.

REFERENCES

1. Аликулов С.М., Абдуллаев Ф.Х., Широкова Ю.И., Мансуров Х.Г. Внедрение нового сорта маша «Баркарор» при использовании интегрированных инновационных технологий управления земельно-водными ресурсами. // Значение богарного земледелия, научная основа инновационных агротехнологий и его развития: Мат. меж. науч.-практ. конф., посв. 110-лет. НИИБЗ.- 19 мая 2023 г.- Галляарал, 2023.- С. 191-194.

2. Мавлянова Р.Ф., Абдуллаев Ф.Х., Мансуров Х.Г. Агротехнология выращивания новых интенсивных сортов маша. // Ж.: Сельскохозяйственные технологии.- Екатеринбург, 2020.- Вып. 2.- № 1.- С. 1-7.- ISSN: 2658-4018.- DOI: 10.35599/agritech/02.01.01

3. Мансуров Х.Г., Мавлянова Р.Ф., Абдуллаев Ф.Х. Новые сорта маша (*Vigna radiata* (L.) Wilczek). // Основные, малораспространенные и нетрадиционные виды растений- от изучения к внедрению: Мат. IV меж.науч.-практ.конф. (*в рамках V науч. форума «Неделя науки в Крутах- 2020», 12 марта 2020 г., с. Круты, Черниговская обл., Украина*).- В 4-х томах.- Т. 2.- С. 93-97.

4. Мавлянова Р.Ф., Абдуллаев Ф.Х., Мансуров Х.Г. Новые сорта маша, созданные на основе мирового генофонда Всемирного Центра Овощеводства. // Аграрная наука-

сельскому хозяйству: Мат. XV меж.науч.-практ. конф.- 12-13 марта 2020 г.- Барнаул, 2020.- С. 261-263.
5. Мавлянова Р.Ф., Абдуллаев Ф.Х., Мансуров Х.Г. Агробиологическое изучение мировой коллекции маша (*Vigna radiata* (L.) Wilczek) и выделение перспективных образцов для селекции. // Наука и инновации: Мат. меж. науч. конф.- С. 501-503.- https://www.doi.org/10.36522/Science_and_innovation.- ISBN 978-9943-6735-2-6.
6. Мансуров Х.Г., Абдуллаев Ф.Х. Агробиологическое изучение мировой коллекции маша (*Vigna radiata* (L.) Wilczek) и выделение перспективных образцов для селекции. // Основные, малораспространенные и нетрадиционные виды растений- от изучения к внедрению (*с/х и биол. науки*): Мат. V меж. науч.-практ. конф.- 11 марта 2021 г.- В IV-х томах.- Том III.- С. 83-86.
7. Алияров М.А., Аликулов С.М.. Абдуллаев Ф.Х. Мошнинг «Барқарор» янги навини етиштириш агротехнологияси. // Oziq-ovqat havfsizligini ta’minlashda qishloq xo’jaligi ekinlarining genetik resurslaridan unumli foydalanish hamda yetishtirishning zamonaviy ilg’or texnologiyalarini qo’llash istiqbollari: Xalq. il.-texn. anjuman to’p.- 1-qism.- 2024 yi 10-11 may.- Qarshi, 2024.- B. 33-37.
8. Аликулов С.М., Широкаова Ю.И., Абдуллаев Ф.Х., Палуашова Г.К., Алияров М.А. Инновацион технологиялардан фойдаланган ҳолда Фарғона вилояти шўрланган тупроқлар шароитида мош етиштириш. // Oziq-ovqat havfsizligini ta’minlashda qishloq xo’jaligi ekinlarining genetik resurslaridan unumli foydalanish hamda yetishtirishning zamonaviy ilg’or texnologiyalarini qo’llash istiqbollari: Xalq. il.-texn. anjuman to’p.- 2-qism.- 2024 yi 10-11 may.- Qarshi, 2024.- B. 31-36.
9. Қодиров Д.Т., Абдуллаев Ф.Х. Тупроқ шўрланишининг янги «Барқарор» мош нави ҳосилдорлигига таъсирини ўрганиш. // Глобаллашув ва иқлим ўзгариши шароитида озиқ-овқат ҳавфсизлигини таъминлаш: муаммо ва ечимлар: Респ. ил.-амал. анжумани мат.- 2024 йил 15 май.- Тошкент, 2024.- Б. 1887-189.

PAXTA-IPAK BIKOMPONENT YIGIRILGAN IPI SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

J.A. Axmedov, Q.E. Sabirov, SH.Q.Ermatov, Sh.I.Tolibayeva, A.Sh.Jumaboev
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, O'zbekiston,
jahongir-ahmad@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu ish bikomponentli yigirilgan ip olish, olingan ipga ishlatiladigan paxta va ipak tolali iplarni xususiyatlari, ipak tolali chiqindilarning turlari va ulardan samarali foydalanishga bag'ishlangan. Tajribalar davomida olingan natijalarga statistik ishlov berish jarayonida omillar va chiqish parametrlarini muqobillash uchun tajribani matematik rejalashtirish usullari qo'llanilgan. Tajribalarda dispersiya tarqoqligi, ularni ishonchliligi, regressiya tenglamalarini adekvatligi va ahamiyatliligi mezonlar yordamida tekshirilib baholangan.

Kalit so'zlar: paxta, ipak, yigirish, sath, xususiyat, omil, qiymat, to'plam, ulush, mezon.

ABSTRACT

This work is devoted to obtaining bicomponent spun yarn, properties of cotton and silk fibers used in the obtained yarn, types of silk fiber waste and their effective use. In the process of statistical processing of the results obtained during the experiments, methods of mathematical planning of the experiment were used to alternate the factors and output parameters. In the experiments, dispersion dispersion, their reliability, adequacy and significance of regression equations were checked and evaluated using criteria.

Keywords: cotton, silk, spinning, level, feature, factor, value, set, share, criterion.

KIRISH

Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalarida bozor munosabatlariga o'tilishi, mulkchilik shaklini o'zgarishi, ishlab chiqarish jarayonlarini jadallashtirish hukumatimiz qarorlari va farmonlari orqali amalga oshirilmoqda. Respublikamizda mavjud xom ashyo resurslaridan oqilona foydalanish, zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq qilish va shu bilan ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish barcha sohalar oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Bugungi kunda sohamiz oldida turgan yana bir muhim masalalardan biri

yetishtirilayotgan barcha pilla xom ashyosini to‘liq qayta ishlab ipakchilik soxasini eksport imkoniyatlarini yanada kengaytirishdan iborat.

Bir qator tadqiqotchilar ipak tolali chiqindilarini struktura va xossalari bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borishgan bo‘lib, ular tomonidan tabiiy ipak tolali chiqindilarini mustahkamligi, elektrik va dielektrik xossalari, ilashuvchanligi va fizik-mexanik xususiyatlari tadqiq qilingan [1 b.4-7; 2 b.22-26; 3 b. 25-27; 4 b.19-23; 5 b.26-30].

Ba’zi tadqiqotchilar ipak yigirishning mumtoz texnologiyasi bilan shug‘ullanib ayrim texnologik jarayonlarga o‘zgartirishlar kiritishgan [6 b.26].

Ushbu izlanishda bikomponentli yigirilgan ip olish, olingan ipga ishlatiladigan paxta va ipak tolali iplarni xususiyatlari, ipak tolali chiqindilarning turlari va ulardan samarali foydalanish usuli keltirilgan. Ipak tolali chiqindilarning paxta tolasiga nisbatan pishiqligi, uzilishgacha cho‘zilishi, qayishqoq va elastik deformatsiyalari yuqori ekanligi ko‘rsatilgan [7 b.48-50; 8 b.51-52].

Tadqiqotda polikomponentli yigirilgan ip ishlab chiqarishda aralash tolalarning tavsiflari keltirilgan. Aralash jun-poliefir-ipak tolalaridan chiziqli zichligi 15-30 teks bo‘lgan polikomponentli yigirilgan ip shakllantirilgan. Olingan ipda poliefir komponentining mavjudligi jun-ipak ipiga nisbatan mustahkamligini sezilarli darajada (60-70% gacha) oshirgan, ipak tolasining qo‘shilishi esa tabiiy ipakning yaltiroqlik jilosini berib to‘qiladigan matoning iste’mol ko‘rinishini yaxshilagan [9 b.255-257; 10 b.123].

Tajribalar davomida olingan natijalarga statistik ishlov berish jarayonida omillar va chiqish parametrlarini muqobillash uchun tajribani matematik rejalashtirish usullari qo‘llaniladi. Ularga to‘la omilli tajriba (TOT), kasrli omilli tajriba, tasodifiy muvozanatli tajriba, simpleks katakli tajriba va hokazo usullar kiradi. Bizni tadqiqotlarimizda to‘la omilli tajribadan foydalanildi. Ko‘p hollarda javob funksiyasi to‘liqmas polinom ko‘rinishida tanlanadi.

Ma’lumki, javob funkvsiyasining analitik ifodasi nomalum bo‘lganda, odatda javob funksiyasining ko‘pxad bilan regressiya tenglamasi ko‘rinishida ifodalash mumkin.

Tajriba rejasini yozish va tajriba natijalarini qayta ishlash uchun X_1, X_2 xarflarda belgilanadigan faktorlarning kodlashgan qiymatlaridan foydalaniladi. X_i kodlashgan (o‘lchamsiz kattalik) va x_i fizik (tabiiy) o‘zgaruvchan quyidagi nisbatda o‘zaro bog‘langan.

Havoda deyarli mallaq turuvchi zarralar aerozollar deyiladi, ba'zi adabiyotlarda, dispers fazasi suyuqlik yoki qattiq jismdan, dispersion muhiti gazdan (odatda, havodan) dispers sistemalar aerozollar deyiladi. Dispers fazasi suyuqlik bo'lgan aerozol uchun tuman, dispers fazasi qattiq jism uchun chang va tutunlar misol bo'la oladi.

Atmosfera aerozol zarralari o'lchami keng diapozonga ega. Ularga diametri 1 nm tartibli bir necha molekulalar (klasterlar) va diametri bir necha o'n mikronlar (10^4 nm) oraliqda bo'ladi. Kichik o'lchamlari nano zarrachalar o'lchamlariga yaqin bo'lgani uchun aerozollarni xarakteristikalarini, optik xossalarini o'rganish xozirgi vaqtda fan tarraqiyoti yo'nalishlaridan biri.

Atmosfera aerozollarining asosiy manbai vulqonlar, insonning faoliyatida tutun va vulqon gazlari 20 km va undan katta balandlikga ko'tariladi, bunda eng mayda zarralar statosferada bir necha yil davomida qolib ketishi mumkin. Shu sababli bu zarralar Quyoshdan kelayotgan nurlani qaytarib yoki ma'lum yo'nalishga orentatsiyalab, strotosfera qatlamiga o'zining salbiy ta'siri ko'paymoqda, ularning massa ulushi o'rtacha yillik xisobda 10^8 tonnani tashkil etadi. Bu massa miqdori borga sari ortib bormoqda.

Atmosferada juda ko'p miqdorda aerozollar mavjudligi sababli optik tadqiqotlar o'tkazishda bir qancha muammolar yuzaga keldi.

Impulslarining uzunligi nanosekund va pikosekund tashkil qiladigan lazerlar bilan amalga oshirilgan tadqiqotlarda muhitni to'la ionizatsiyalanishi hisobiga lazer nuri yo'li atmosfera aerozollari tufayli to'sib qo'yilgan va natijada ko'plab qiziqarli hodisalar yashiringan holda qolib ketgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Femtosekundli ultra qisqa impulsli lazer texnikasi rivojlanishi natijasida, atmosferadagi aerozollar miqdori va kimyoviy tarkibini aniqlashda yangi ma'sofadan turib, atmosferani lazer nuri bilan zondlash yordamida amalga oshiriladigan metodlar ishlab chiqish imkoniyati yaratildi. Yuqori intinsivlikka ega lazer nurini aerozol zarrachalari bilan nochiziqli – optik ta'sirlashuvi natijasida bir qator effektlar vujudga keladi. Lazer nurini aerozol bilan ta'sirlashuvi, lazer nurini filamentatsiyalanish jarayoni ham kuchli ta'sir etadi [1].

O'ta qisqa lazer impulslari aerozolli muhitlarda tarqalganda, muhit bilan nochiziqli o'zaro ta'sir natijasida, o'z-o'zini fokuslash hodisasi ro'y berad, natijasida hosil bo'ladigan filamentlar lazer lokatsiyasi va atmosferani uzoq masofadan atmosfera aerozollari ayrim xarakteristikalarini aniqlash mumkin.

O'z – o'zini fokuslash hodisasi atmosferada ro'y berganda o'zining amaliy tadbiqlari bilan ajralib turadi. O'z–o'zini fokuslash jarayonida yorug'lik, lazer nurining ko'ndalang kesimining kichik bir qismiga to'planib, intensivligini o'zgartirmasdan uzoq masofalarga tarqalishi mumkin. Bu jarayon filamentatsiya hodisasi deb ataladi.

MUHOKAMA

Aerozol zarralarning o'lchamlari diapazonining juda keng bo'lishi va shaklining turli tumanligi natijasida aloxida zarralarda sochlish modellari turlicha bo'ladi. Bunda titan sapfin lazerida foydalanildi, uning λ=0,8 mkm to'lqin uzunligida suvli tomchilarning yutilish koeffitsyenti juda kichik sindirish ko'rsatgichi 1,33 ni tashkil etadi. Aerozol dasta intinsivligining o'zgarishi zarralardagi sochilish va difraktsiya bilan aniqlanadi [2].

.

$$2\mathrm{ik}\frac{\partial \mathrm{E}(\mathrm{t},\mathrm{x},\mathrm{y},\mathrm{z})}{\partial \mathrm{z}} = \Delta_{\perp}\mathrm{E}(\mathrm{t},\mathrm{x},\mathrm{y},\mathrm{z}) + \mathrm{D}_{\mathrm{aer}}\,\mathrm{E}(\mathrm{t},\mathrm{x},\mathrm{y},\mathrm{z}) +$$

$$+\frac{2\mathrm{k}^2}{\mathrm{n}_0}\Delta \mathrm{n}E(\mathrm{t},\mathrm{x},\mathrm{y},\mathrm{z}) + 2\mathrm{k}_0^2\mathrm{n}_1\mathrm{E} - \mathrm{ika}_{\mathrm{ion}}\mathrm{E}(\mathrm{t},\mathrm{x},\mathrm{y},\mathrm{z})$$

Qo'yilgan masalani yechish uchun bo'laklab entegrallash metodi qo'llaniladi. Bu model katta tomchilar bilan sochilishni hisoblash ancha qiyin bo'lgan nazariyasidan farqli

ko’rilayotgan zarralar o’lchamlarining keng diapozonida oson masshtablanadi.

Lazer nurlanishining aerozol zarralari bilan o’zaro ta’siri lazer impulsi filamentatsiya hodisasiga va oq yorug’lik femto sekundli bilan atmosferani keng qutubli zondlash uchun istiqbolli manba kabi qarash mumkin bo’lgan super kontinium generatsiyasiga katta ta’sir ko’rsatadi.

Lazer nurlanidshning kuchsizlanishi va sochilishidan tashqari ayrodespers muhit aerozol zaralarining joylashuvi natijasida yuzaga kelgan yorug’lik maydonining kuchli g’alayonlanishining yuzaga kelishiga olib keladi.

Shunday qilib, aerozol mikrozarralari ekran masalalari uchun tekshirish mustaqil obeyktigina bo’lib qolmay, real atmosfera sharoitlarida lazer impuslarining tarqalish jarayoniga ta’sirini tadqiq etuvchi tadqiqot abeyktidir. Shunig uchun aerozol zarralari quvvatli femtosekundli lazer impulslari o’zaro ta’siri ko’p qirrali masala bo’lib hisoblanadi.

Qo’yilgan masalani yechish uchun nurli trektoriyalar uzunligini qo’llab geometrik optikaga yaqinlashuvida shaffof sferik zarrachada nurlanishning tarqalishining kompyuter modeli ishlab chiqiladi. Kerr nochiziqiyligini xisobga olish uchun [3] da usul taklif etilib, u nurlanish ta’sirida bir jinsli bo’lmagan muhitlar uchun asoslangan. Bunday tasavvurni qo’llash ayrim olingan zarrachada ham nochiziqiy o’zi fokuslovchi nurlanishni ifoda etish imkonini beradi. Bu usul xar bir nur traektoriyasini tekshirish uchun Monte – Karlo usuli bilan birga qo’llaniladi. Shunday qilib uzunligi sferik zarracha diametridan oshmagan fazodagi impulslar uchun aerozol zarrachada femtosekundli lazer impulsining fazaviy taqsimoti o’rganildi.


Aerozol zarrachalaru ansambili ta’sirini ifoda etish uchun [4]da taklif etilgan muhitning bir jinsli emasligini ifodalash uchun qo’llaniladi. Taklif etilgan usul asosida, despers muhit kengigi Δr bo’lgan qatlamlar ketma-ketliga ko’rinishda tasvirlanadi va barcha bir despers muhitda yotgan zarralar bitta yassi Kerr, turbulent va aerozol ekran deb ataluvchi tekslikda yig’iladi.

Spektral usulni qo’llashda Furening tez o’zgartirish algaritmi qo’llanilsa hisoblashlarni ancha soddalashtirish va tezlashtirish mumkin. Ko’rsatilgan usul bilan tuzilgan atmosfera turbolentligi modeli bir jinsli emaslikning nurlanish fazasi fluktuatsiyasiga ta’sirini ifoda etadi. Shu fluktuatsiyalar dastaning dinamik mayda masshtabli o’z-o’zidan fokuslanishni yuzaga keltirib, bu multifilomentning hosil bo’lishiga olib keladi. Ta’siri fazaviy ekranda akslanadigan maksimal bir jinsli emaslik o’lchami ekran o’zining o’lchami bilan chegaralangan. Sindirish ko’rsatgichi yirik masshtabli bir jinsli emaslikning dasta fazasiga ta’sirini hisobga olish imkonini chegaralaydi. Boshqa tomondan yirik masshtabli bir jinsli emasliklar dastaga bir butundek ta’sir etadi,

bunda fazodagi dasta o'zining fluktuatsiyasini yuzaga keltiradi. Shuning uchun dasta mayda masshtabli o'z-o'zidan fokuslanishini tekshirishda dasta o'lchamidan ikki marta katta o'lchamli yirik bir jinsli emasliklarni hisobga olmaslik mumkin. Turbulent atmosferada intinsivlik fazasi fluktatsiyalarini modellash algaritmini chiqildi.


NATIJALAR

1-rasmda nurlanish maydoni fazasining fazaviy ekran ketidan yugurishi qiymati keltirilib, uning uzunligi 10 m ga teng bo'lib, C_n^2 = 5.0*10^{-14} m$^{-2/3}$ strukturaviy doimiyli turbolentlikning tashqi L=1 m masshtabli va ichki l=0,001 m masshtabli turbulent atmosferada trassaning o'tishiga mos keladi.



1-rasm. Birlik fazaviy ekranda maydon nurlanishining fazaviy ekrani keltirilgan, siljishi absisalar o'qi va ordinatalar o'qi-fazaviy yecheykalar raqami 0,003 m qadam bilan vertikal o'q faza siljishi qiymati radianlarda keltirilgan [4].

Ekranlar orasida difraktsiya va sochilishga duch kelgan nurlanishning nochiziqiy optik o'zaro ta'siri yuz beradi.




2-rasmda aerozolli atmosfera muhitda ultra qisqa lazer impulslarinig tarqalishi modellashishining umumiy chizmasi

2-rasmdagi chapdan birinchi fazoviy ekran atmosferaning bir jinsli bo'lmasligi tasiriga javoban ekrandir. Atmosferaning bir jinsli emasligi Karman model asosida ifodalanadi. Chapdan 2-rasm turbolentlikni ifodalaydi [4]. Chapdan uchinchi ekran aerozol mavjudliligiga asoslangan fazoviy siljishga javobgar ekran. Hisoblashlarni qisqartirish uchun birinchi yaqinlashishga aerozol monodespers ya'ni bir xil o'lchamli va bir xil sindirish ko'rsatgichli dumolq zarrachalardan tuzilgan deb hisoblanadi.

Kerr o'z-o'zini fokuslanishuviga dastaning nochiziqiy fokus shakllanadigan ko'ndalang kesimi sohasidagi intinsivlik keskin oshadi nurlanishning asosiy qismi joylashgan sohaning ko'ndalang o'lchami esa ayrim yirik aerozol zarracha o'lchamiga teng o'lchamgacha kichiklashadi (~100mkm), shuning uchun qiymatli eksperementlarda "nochiziqiy fazoviy ekranlar" orasidagi ma'sofa nurlanishning intinsivligining oshoshi bilan kamayadi.

Intinsivlikning dastlabki Gauss taqsimoti atmosferaning bir jinsli emasligining ta'sirri natijasida kuchli sindi. Tarqalishning boshlangich qismida aerozollarning filamentlar shakllanish jarayoniga tasiri sezilarsiz bo'ladi. Bir jinsli emaslikning ta'siri natijasida yagona dasta parchalanadi va va uchta nochiziqiy fokus xosil bo'ladi.

Keying tarqalishda ikkita nochiziqiy fokus felomentlarida shakllanadi, uchinchisi aerozoldagi rafraktsiya tas'virida parchalanib ketadi. Hisoblashlarning ko'rsatishicha, atmosfera turbolentliligining ta'siri o'zi fokuslanishning dastlabgi bosqichida kuchli nomoyon bo'ladi. Bunda sindirish ko'rsatgichining nochiziqiy o'zgarishi kichik yoki atmosfera turbolentliligi yuzaga keltirgan sindirish ko'rsatgichi o'zgarishi bilan tengdir.



3-rasm. Multeplit filamentga birinchi felomentning

shakllanish momentida intensivlikning maksimal fazoviy taqsimoti

P_0=38*10^9wt, $C_0^2 = 1 * 10^{-12} sm^{\frac{2}{3}}$ Δz=1,05m. 3-a-rasmda. Ultra qisqa lazar impulsi o'z-o'zini fokuslashdan yiroqda chunki lazerdan juda qisqa masofada tarqalmoqda shuning uchun filament hosil bo'lmaydi (3.2.b-rasm). Ultra qisqa lazar impulsi uzoq masofadagi tarmoqda. Bunda keng o'lchamga ega bo'lgan impuls fazo bo'yicha siqilib faza bo'yicha to'planadi, past konsentratsiyali plazma yorug'likka sochuvchi linza kabi tasir qiladi natijada yig'uvchi Kerr efekti va sochuvchi plazma orasida dinamik muvozanat yuzaga keladi.

Lazer quvvati kiritik quvvatdan ikki va 6,3 marta katta bo'lganda lazer ko'ndalang kesimidagi maksimal intinsivlik qonuniyati keltirilgan.

O'zi fokuslanuvchi jarayonda intinsivlikning oshishi bilan sindirish ko'rsatgichining nochiziqiy o'zgarishi oshadi, fokuslanishning aniq nomoyon bo'lgan markazi hosil bo'lganidan keyingina, turbolentlik fokuslanish jarayoniga katta ta'sir o'tkazmaydi. Feloment shakllanishining boshlang'ich bosqichida aerozollarning ta'siri sezilarsiz. Fokuslanish markazi hosil bo'lgan aerozol zarra nurlanishning kuchli refraktsiyasi tufayli nochiziqiy fokusning parchalanishiga olib keladi.

XULOSA

O'tkazilgan eksperementlar asosida quyidagi xulosani qilish mumkin: atmosfera aerozollari ta'siri o'zi fokuslanish boshlanganidan keyin fokuslanish markazi ko'ndalang o'lchamlari ayrim aerozollar o'lchamlari bilan teng bo'lib qolganda kuchliroq nomoyon bo'ladi. Nurlanishning tarqalishida va filamentlarning shakllanishida eng katta ta'sri yirik aerozollar ko'rsatadi. Kichik o'lchamli (~10 mkm) aerozollar refrektsiya yo'li bilan filamentlar tarqalishida deyarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki atmosfera turbolentligining o'z-o'zini fokuslash, fluktuatsiyaning boshlang'ich bosqichida. Intinsivlik atrofidagi nuqtalarga qaraganda bir necha bor ortganda filamentatsiya jarayoniga ta'siri kamayadi.

REFERENCES

1. Л.С.Ивлев, Ю.А.Довгалюк "Физика атмосферных аэрозольных систем"Санкт-Петербург 1999 г

2. A.K. Kasimiv, U.A.Eshniyozov "Влияние атмосферного аэрозоля на процесс филаментации ультракоротких лазерных импульсов" O'zMU.Toshkent.2016y.

3. Панов Н.А., Саввин А.Д., Косарева О.Г., Савельев-Трофимов А.Б., Кандидов В.П.,Потанин С.А.,Польских С.Д. "Фемтосекундные филаменты как новый тип опорных

лазерных источников для астрономической адаптивной оптики”. Квантовая электроника. (2009). 39, 560.

4. В.О. Милиции, Л.С. Кузьминский, В.П. Кандидов, "Стратифицированная модель распространения мощного фемтосекундного лазерного излучения в атмосферном аэрозоле", *Оптика атмосферы и океана,* **18**(10), 880-886 (2005).

5. Турсунов, И. Г., & Умбаров, А. У. Ў. (2024). Формы и методы организации индивидуального обучения студентов педагогических вузов по кредитно-модульной системе. Science and innovation, 3(Special Issue 23), 337-341.

6. Umbarov A.U. Pedagogika oliy ta’lim muassalarida umumiy fizikaning Elektromagnetizm bo‘limini o‘qitishda individual ta’limning pedagogik shart-sharoitlari // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – Buxoro, 2023/12 12-son – B. 316-319.

7. Umbarov A.U. Higher education pedagogical - psychological support of individual educational trajectories of students // JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. 2023/7 Volume 9, Issue 6, pp 11-15.

PRACTICAL STRATEGIES FOR INTERACTIVE BILINGUAL LEARNING IN CLIL

Dilafruz Abdisalimovna Kenjabaeva
Associate Professor, Termez State University,
Doctor of Philosophy in Education (PhD)
kenjabaevadilafruz605@gmail.com

ABSTRACT

This article explores the practical implementation of interactive bilingual learning strategies within the Content and Language Integrated Learning (CLIL) framework. Focusing on task-based learning, collaborative group work, bilingual scaffolding, and the integration of technology, it evaluates their effectiveness in fostering linguistic and subject-matter proficiency. Drawing on examples from classroom practices, the study demonstrates the potential of bilingual strategies to enhance both cognitive and linguistic development in learners.

Keywords. Content and Language Integrated Learning, bilingual education, task-based learning, scaffolding, collaborative learning, interactive technology

INTRODUCTION

Content and Language Integrated Learning (CLIL) combines subject instruction with language learning, providing students with opportunities to develop linguistic skills while mastering academic content. Interactive bilingual learning within CLIL further leverages the learners' first language (L1) alongside the target language (L2) to facilitate deeper understanding and active participation. However, implementing interactive bilingual strategies requires carefully designed methodologies to address linguistic challenges while maintaining academic rigor. This study examines practical strategies for integrating bilingual learning into CLIL classrooms and assesses their impact on learners' outcomes.

METHODOLOGY

Research Design

This study employed a qualitative approach, incorporating classroom observations, teacher interviews, and student feedback to evaluate the effectiveness of interactive bilingual strategies in CLIL. A total of 10 classrooms in bilingual schools were observed over a three-month period, focusing on subjects taught in English, such as science, mathematics, and history.

Participants

The participants included 200 students aged 13–16 and 20 teachers from bilingual schools in Uzbekistan. The students had intermediate proficiency in English, while the teachers were trained in CLIL methodologies.

Data Collection

Data were collected through:

1. **Classroom Observations:** To document the implementation of interactive bilingual strategies and student engagement.
2. **Teacher Interviews:** To gather insights into the challenges and benefits of using bilingual methods.
3. **Student Surveys:** To measure learners' perceived improvement in language skills and content comprehension.

Data Analysis

The data were analyzed using thematic analysis to identify recurring patterns and themes related to the effectiveness of bilingual strategies in CLIL.

RESULTS

Task-Based Learning. Task-based activities encouraged students to apply both L1 and L2 for problem-solving and project completion. For example, a science experiment required students to discuss hypotheses in their native language and present findings in English. Observations showed a 25% increase in students' active participation compared to traditional methods.

Collaborative Group Work. Group activities, such as peer teaching and joint presentations, promoted teamwork and language practice. In history lessons, students researched in Uzbek and presented in English, improving their bilingual communication. Over 80% of students reported feeling more confident expressing ideas in English.

Bilingual Scaffolding. Teachers used bilingual glossaries, translated materials, and visual aids to support comprehension. Students demonstrated improved understanding of subject-specific terminology, with 70% able to accurately use key terms in both languages after two weeks of scaffolding.

Interactive Technology Tools. The use of digital platforms like Kahoot! and Padlet facilitated bilingual learning. For instance, quizzes in English and discussions in Uzbek encouraged active engagement, with 90% of students reporting increased enjoyment in lessons.

DISCUSSION

The findings highlight the effectiveness of interactive bilingual learning strategies in improving both language proficiency and subject comprehension. Task-based learning and collaborative work encouraged meaningful language use, while scaffolding provided essential support for navigating complex content. Technology tools further enhanced engagement and reinforced bilingual learning in interactive and dynamic ways.

However, challenges such as limited teacher training and access to bilingual resources were noted. Teachers emphasized the need for professional development programs to better integrate bilingual strategies into CLIL classrooms.

CONCLUSION

Interactive bilingual learning offers practical strategies for enhancing English language proficiency and academic achievement within the CLIL framework. By implementing task-based learning, group collaboration, bilingual scaffolding, and technology integration, educators can create an inclusive and effective bilingual learning environment. Future research should focus on developing teacher training programs and expanding bilingual resources to address current challenges.

REFERENCES:

1. Faxriddinovna, Q. B. (2023). The role and importance of an integrated bilingual approach in teaching English to students.
2. Fakhriddinovna, K. B., & Fakhriddinovna, U. N. (2021). The Use of Interactive Bilingual Learning for Teaching English Language the Ages Of 5-6. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, *3*, 135-138.
3. Karshieva, B. F. (2022). Methodology and pedagogical practice-test result of organization of pedagogical training. *Экономика и социум*, (12-1 (103)), 135-138.
4. Kenjabayeva Dilafro'z Abdisalimovna, . (2023). PROVERBS AND SAYINGS ARE AN INEXHAUSTIBLE WEALTH IN THE LIFE. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, *3*(12), 184–189. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/eijmrms/article/view/27737
5. Кенжабаева, Д. (2023). ДЕОНТОЛОГИЧЕСКИЙ КОМПОНЕНТ СОВРЕМЕННОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ В УСЛОВИЯХ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, *3*(11). https://doi.org/10.47390/SP1342V3I11Y2023N71

NO‘XAT (*CICER ARIETINUM* L.) O‘SIMLIGI NAV VA NAMUNALARIDAGI HOSILDORLIK BELGILARI

Sardor Zoirjon o‘g‘li Pardaboyev
Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

Hasan Aliqulovich Mo‘minov
Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, biologiya fanlari doktori

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada no‘xat o‘simligining nav va namunalarida don soni, don og‘irligi, 1000 ta don vazni kabi hosildorlik belgilari va 1 m^2 don hosili (g.) ko‘rsatkichlari aniqlandi va qiyosiy tahlil qilindi, Tahlil natijalariga asoslanib no‘xatning nav va namunalari orasidan don soni, don og‘irligi va 1 m^2 don hosilining eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgani CIFN – 126 namunasi ekanligi aniqlandi va seleksion tadqiqotlar uchun tanlab olindi.

Kalit so‘zlar: no‘xat, dukkak, don, hosildorlik, 1000 don vazni, oziq-ovqat xavfsizligi

ABSTRACT

In this article, the yield-related traits of chickpea varieties and accessions, such as the number of seeds, seed weight, 1000-seed weight, and grain yield per 1 m^2 (g), were determined and comparatively analyzed. Based on the analysis results, CIFN-126 accession was identified as having the highest indicators for the number of seeds, seed weight, and grain yield per 1 m^2 and was selected for breeding studies.

Keywords: chickpea,pod, grain, yield, 1000-seed weight, food security

KIRISH

Hozirgi kunda global iqlim o‘zgarishi dunyoning ko‘plab hududlarida suv tanqisligining kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday holatlarda suv tanqisligiga chidamli bo‘lgan ekin turlarini ko‘paytirish talab etiladi. Bunday ekin turlaridan biri no‘xat o‘simligi hisoblanadi [1,2]. No‘xat o‘simligi quruq iqlim sharoitli 55 dan ortiq mamalakatlarda yetishtiriladi. Aholi o‘sishi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda (Hindiston, Pokistan, Meksika, Efiopiya) no‘xat asosiy oziq-ovqat mahsuloti sifatida ovqat ratsioniga kiritilgan [4]. No‘xat doni tarkibida o‘rtacha 25% oqsil, 4,5% moy, 46% gacha kraxmal, B_1 vitamini, turli mineral tuzlar va ovqat hazm qilishga yordam beradigan eng muhim aminokislotalar bor. No‘xat mevasi dorivorlik hususiyatlari bilan ham alohida ajralib

turadi. Qandli diabet bilan kasallangan odamlar no‘xat mevasidan tayyorlangan taomlarni iste’mol qilsa, qondagi qand miqdori barqarorlashadi va qondagi gemoglobin miqdori ham ortadi. Bundan tashqari no‘xat ovqat hazm qilish organlari faoliyatini normallashtiradi [7]. Shuning uchun no‘xatning respublikamiz tuproq-iqlim sharoitlariga moslashgan, hosildor navlarini tanlab olish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbekistonda tadqiqotchilar tomonidan dukkakli ekinlarning seleksiyasi, genetikasi, yetishtirish texnologiyasi hamda fiziologik-biokimyoviy xususiyatlariga oid bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda.

O.Rasulova va boshqalar tomonidan dukkakli ekinlar no‘xat (*Cicer arietinum* L.), ko‘k no‘xat (*Pisum sativum* L.), mosh (*Vigna radiata* L.), yasmiq (*Lens culinaris*), loviya (*Phaseolus vulgaris*), soya (*Glycine max*), yeryong‘oq (*Arachis hypogaeae* L.) larning don tarkibi, organizm uchun foydali xususiyatlari, oziq-ovqat xavfsizligida ahamiyati haqida ma’lumotlar yoritilgan [6].

D.Qulmamatova va boshqalar tadqiqotlarida no‘xat o‘simligida zambrug‘li kasalliklarda hosildorlik belgilari va fiziologik jarayonlarning o‘zgarishi [11], no‘xat namunalaridagi hosildorlik belgilarining korrelyatsion va regression analiziga [5] doir tadqiqotlar olib borilgan.

X.Nurgaliyev va boshqalar tadqiqotlarida esa ICARDA xalqaro tashkilotining dukkakli ekinlar kolleksiyasidan olingan kuzgi no‘xatning Xalqaro elita ko‘chatzori namunalarida qimmatli xo‘jalik belgilarini qiyosiy tahlil qilish yo‘li orqali hosildorligi yuqori bo‘lgan namunalar ajratib olingan [13].

F.I.Matkarimov va boshqalar tadqiqotlarida no‘xat yetishtirish biotexnologiyasi, no‘xat o‘simligiga mikrobiologik preparatlarning ta’siri, no‘xat o‘simligida kechadigan fiziologik va biokimyoviy jarayonlarga oid tadqiqotlar olib borilgan [3,7,8,9,10].

J.Naxalboyev tadqiqotlarida respublikamizning lalmi hududlariga moslashgan no‘xat namunalaridagi askoxitoz kasalligi, ekish muddatalarining no‘xat hosildorligiga ta’siriga oid tadqiqotlar olib borilgan [12].

Har qanday qishloq xo‘jalik ekinlarining yangi navlarini yaratishda boshlang‘ich material sifatida jahon kolleksiyasidan foydalanish yaxshi samara beradi. Shu maqsadda tadqiqotimizda ICARDA xalqaro tashkilotining dukkakli ekinlar kolleksiyasidan olingan no‘xat namunalari va mahalliy no‘xat navlarida qimmatli xo‘jalik belgilari qiyosiy tahlil qilib o‘rganildi.

TADQIQOT OB’EKTI VA USLUBLARI

Maqolada ICARDA xalqaro tashkilotining dukkakli ekinlar kolleksiyasidan olingan CIFN – 20, CW – 119, CW – 126, Sifun – 20 namunalaridan hamda, Oq pari, Eron navalaridan foydalanildi. Ushbu nav va namunalaridagi qimmatli xo‘jalik belgilari ANOVA statistik programmasida tahlil qilindi.

NATIJALAR TAHLILI VA MUHOKAMASI

No‘xat o‘simligi nav va namunalarida hosildorlik belgilarini tahlil qilish maqsadida Chirchiq davlat pedagogika universitetining Tabiiy fanlar fakulteti tajriba maydonida no‘xatning Eron va Oq pari navlari hamda Sifun – 20, CIFN – 20, CIFN – 119, CIFN – 126 kolleksiya na’munalaridan hosildorlik belgilarini o‘rganish maqsadida tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqotda no‘xat o‘simligi nav va na’munalaridagi hosildorlik belgilari qiyosiy tahlil qilindi.Tahlil natijalariga ko‘ra bir o‘simlikdagi don soni 29,5 ± 0,5 tadan 40,6 ± 0,5 gacha, bir o‘simlikdagi don og‘irligi 9,08 ± 0,13 g. dan 12,99 ± 0,59 g. gacha, 1000 don og‘irligi 296,6 ± 1,34 g. dan 389,6 ± 1,7 g. gacha ekanligi kuzatildi (1-jadval).

Tadqiqotda no‘xatning nav va namunalarida hosildorlik belgilari bo‘yicha qiyosiy tahlil qilinganda, don soni, don og‘irligi va 1 m^2 hosildorlik bo‘yicha eng past ko‘rsatkich Oq pari navida kuzatildi. No‘xatning nav va namunalarida hosildorlik belgilari bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich CW – 126 namunasida aniqlandi. CW – 126 namunasida Eron va Oq pari naviga nisbatan 1 m^2 dagi hosildorlik mos ravishda 20,0% va 58,2% ga yuqori bo‘ldi. Namunalar orasidan yuqori hosildorlik belgilariga ega bo‘lgan CW – 126 namunasidan seleksion tadqiqotlar uchun tanlab olindi.

1-jadval

No‘xat o‘simligi nav va namunalaridagi hosildorlik belgilari

	Namuna-lar	Bir o‘simlikdagi don soni		Bir o‘simlikdagi don og‘irligi, g.		1000 don og‘irligi, g.		1 m^2 dagi hosildorlik, g.
		$\bar{x} \pm S\bar{x}$	V%	$\bar{x} \pm S\bar{x}$	V%	$\bar{x} \pm S\bar{x}$	V%	
1.	Eron	30,9 ± 0,4	5,6	12,1 ± 0,15	5,6	389,6 ± 1,7	1,9	145
2.	Oq pari	29,5 ± 0,5	6,7	9,10 ± 0,13	6,2	307,2 ± 1,33	1,8	110
3.	CIFN – 20	40,6 ± 0,5	4,8	13,0 ± 0,59	4,6	320,6 ± 2,7	3,6	156

4.	CW – 119	34,2 ± 0,2	2,4	10,7 ± 0,19	2,4	312,6 ± 1,5	1,3	130
5.	CW – 126	48,3 ± 0,6	5,1	14,5 ± 0,19	5,6	296,6 ± 1,34	1,9	174
6.	Sifun – 20	39,1 ± 0,4	5,1	11,9 ± 0,15	5,1	303,8 ± 4,94	6,9	143

XULOSA

No‘xat o‘simligining nav va namunalarida don soni, don og‘irligi, 1000 ta don vazni kabi hosildorlik belgilari va 1 m^2 don hosili ko‘rsatkichlari o‘rganildi hamda qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijalarida asoslanib no‘xatning nav va namunalari orasidan bir o‘simlikdagi don soni va og‘irligi ko‘rsatkichlarining ortishi hisobiga 1 m^2 don hosilining eng yuqori ko‘rsatkichi CW – 126 namunasida aniqlandi va seleksion tadqiqotlar uchun tanlab olindi.

REFERENCES

1. FAOSTAT, 2012 Food Agrocultural Organization Statisticalc Database. Rome (http://faostat.3fao.org).
2. Field C.B., Barros V.R. and et. al. IPCC, 2014: Summary for policymakers. In: Climate Change 2014: Impacts, Adaptation, and Vulnerability. Part A: Global and Sectoral Aspects. Contribution of Working Group II to the Fifth Assessment Report of the Intergovernmental Panel on Climate Change //Cambridge, United Kingdom and New York, NY, USA: 1-32
3. Matkarimov, F., Kholliyev, O., Fayzullaev, A., Raulova, O., Kulmamatova, D., & Baboev, S. (2024). INFLUENCE OF MICROBIAL FERTILIZERS ON MORPHOLOGICAL, PHYSIOLOGICAL AND VALUABLE ECONOMIC CHARACTER OF CHICKPEA (CICER ARIETINUM L.). *The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering*, *6*(10), 32-42.
4. Poltrnieri F., Areas J.A.G., Colli C. Extrusion and iron bioavailability in chickpea (*Cicer arietinum* L.). Food Chem., 2000, 70: 175-180
5. Qulmamatova, D. E., ShSh, A., Matkarimov, F. I., Fayzullaev, A. Z., KhS, N., Kholliyev, O. E., ... & Baboev, S. K. (2024). REGRESSION ANALYSIS OF YIELD-RELATED TRAITS IN CHICKPEA (CICER ARIETINUM L.). *SABRAO Journal of Breeding & Genetics*, *56*(4).
6. Амирова, М. А. Қ., Ғойипова, Н. Ғ. Қ., & Маткаримова, С. Ҳ. (2024). ДУККАКЛИ ЭКИНЛАРНИНГ ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВСИЗЛИГИДАГИ АҲАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, *5*(5), 136-140.

7. Маткаримов Ф.И., Бабоев С.К., Давронов Қ.Д., Қулмаматова Д.Э., Тохирбоева Д.У. Нўхат етиштириш технологияси. Тавсиянома.- «Наврўз» нашриёти, Тошкент, Ўзбекистон, 2020.- 7 б.
8. Маткаримов, Ф. И., & Бабоев, С. К. (2022). НЎХАТ ЎСИМЛИГИНИНГ УРУҒ УНУВЧАНЛИГИГА ВА ЎСИШ ДИНАМИКАСИГА МИКРОБИОЛОГИК ЎҒИТЛАРНИНГ ТАЪСИРИ. *Academic research in educational sciences*, *3*(11), 237-241.
9. Маткаримов, Ф. И., Бабоев, С. К., Кулмаматова, Д. Э., & Тохирбоева, Д. У. (2021). Влияние (действие) микробиологических препаратов на количество хлорофилла и каротиноидов у растений нута (Cicer arietinum L.). In *МОЛОДЕЖНАЯ НАУКА КАК ФАКТОР И РЕСУРС ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ* (pp. 56-60).
10. Маткаримов, Ф. И., Бабоев, С. К., Тохирбоева, Д. У., & Холлиев, О. Э. У. (2020). Влияние биопрепаратов на урожайность бобовых культур. *Academic research in educational sciences*, (1), 314-323.
11. Маткаримов, Ф. И., Бобомуродова, М. Ў., Икромова, У. Ҳ., & Шеримбетов, А. Г. (2023). ФУЗАРИУМ ЗАМБУРУҒИ БИЛАН ЗАРАРЛАНГАН НЎХАТ ЎСИМЛИГИ НАМУНАЛАРИДА SPAD 502 КЎРСАТКИЧИНИНГ ЎЗГАРИШИ. *Academic research in educational sciences*, *4*(8), 137-145.
12. Нахалбаев, Ж. Т., & Хамдамов, И. Х. (2020). Оценка поражаемости аскохитозом сортов и линии нута в полевых условиях Узбекистана. *Аграрная наука*, (6), 74-77.
13. Нургалиев, Х. А., Маткаримов, Ф. И., Холлиев, О. Э. Ў., & Бабоев, С. К. (2021). КУЗГИ НЎХАТ НАМУНАЛАРИДА ҚИММАТЛИ-ХЎЖАЛИК БЕЛГИЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАХЛИЛИ. *Academic research in educational sciences*, *2*(9), 556-560.

VIRTUAL REALLIK FALSAFIY MUAMMO SIFATIDA

Abror Nazarovich Sanaqulov
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
“Gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)
sanabror80@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada virtual reallikning mohiyati, shakllari, psixologik virtual reallikning ko‘rinishlari, virtual reallik tushunchasining falsafiy maqomi ochib berilgan. Virtual reallikning interaktiv imkoniyatlari, virtualistikaning nazariy va uslubiy natijalarini ijtimoiy hayot sohalarida qo‘llanilishi hamda virtuallik fenomeni tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: virtual reallik, falsafa, borliq, texnologiya, gratual, ingratual, prinsip, gipoteza, induksiya, deduksiya

ABSTRACT

The article reveals the essence, forms of virtual reality, manifestations of psychological virtual reality, and the philosophical status of the concept of virtual reality. Also in the article are analyzed interactive possibilities of virtual reality, application of theoretical and methodological results of virtualistics in the spheres of social life, and the phenomenon of virtuality.

Keywords: virtual reality, philosophy, existence, technology, ceremonial, integral, principle, hypothesis, induction, deduction

KIRISH

Jahon axborotlashgan jamiyat tizimida zamonaviy virtual texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu mavzu allaqachon, virtual reallikni yuzaga keltirgan – kibernetika sohasi chegarasidan tashqariga chiqib, ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimiga chuqur kirib bordi va ijtimoiy-falsafa, psixologiya va madaniyat falsafasi sohasidagi tadqiqotlarni asosiy o‘rganish obyektiga aylandi. Ayniqsa, bugungi kunda rivojlangan davlatlarning nufuzli universitetlari va ilmiy tadqiqot markazlarida jamiyatda shakllanayotgan yangi virtual madaniyat va uning o‘ziga xos xususiyatlaridan tortib, to uning virtual reallikda mavjud bo‘lish oqibatlarini ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu boisdan ham axborotlashgan jamiyatda virtual reallikning namoyon bo‘lish indikatorlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan baholash strategik ma’no-mazmunga ega.

XX asrning 60 yillarida amerikalik neyropsixolog olim K.Pribramning tushuntirishicha, inson miyasi axborotni qayta ishlash, saqlashdan va uzatishdan iborat golografiya prinsipi asosida ishlaydi. Ya'ni inson miyasi, fikr, ong ishlab chiqaruvchi "fabrika" emas, tashqi va ichki dunyoni passiv akslantiruvchi oyna ham emas, balki tashqi axborot maydonidan keluvchi muayyan chastotadagi (masalan, elektro-magnit to'lqinlari tipidagi) axborotni o'z quvvatiga ko'ra qabul qilib olish, qayta ishlovdan o'tkazish va tashqariga qaytarishdan iborat murakkab axborot almashinuvi ontologik jarayonining zaruriy mexanizmi sifatida ishtirok etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi davr kibernetika fanida "axborot maydoni"ni talqin etishda virtual reallik tushunchasi keng qo'llanilmoqda. Vaholanki bu g'oya ham falsafa uchun yangi emas, u qadimgi falsafadayoq shakllangan bo'lib, F.Akvinskiy ta'limotida ayniqsa keng o'rin egallagan. Bu tushunchaning biz uchun yaqinroq, tushunarliroq talqinini uyg'onish davrining eng yirik faylasuflaridan biri bo'lgan N.Kuzanskiy bergan edi. U birinchilardan bo'lib virtual reallikni yong'oq daraxtida sodir bo'ladigan jarayonlar misolida asoslab bergan. N.Kuzanskiy fikricha, biz yong'oq daraxti kattaligini, sershohligini, ko'm-ko'kligini, mevalarini vujudiy ko'zimiz bilan ko'ramiz. "Keyin, - deydi u, - men o'zimning aql ko'zim bilan ham aynan o'sha daraxtning hozirgiday o'sib ungan, meva bergan va h. k. xolatida emas, balki urug'da, ya'ni virtuallikda ekanida qanday bo'lganini, uning urug'dagi ajib go'zalligini, shoxu butoq va mevalari bilan birgalikdagi bir butun bo'lgan daraxtni tasavvur etaman, ya'ni urug'da jo bo'lgan kuch-quvvatga o'z e'tiborimni qarataman... Yong'oq mening kuzatishimcha, urug'dagi o'sha kuchning amalga oshuvidir" [1]. Ushbu talqin borliqdagi obyektlar zamirida faol (Virtus) ongli asos, ichki kuch va qobiliyat, imkoniyat mavjudligi g'oyasini oldinga suradi. Ya'ni, daraxt o'z urug'ida virtual imkoniyat tarzidagi mavjud bo'lib, bu holatda jo bo'lgan ichki kuch tegishli sharoit tayyor bo'lganida urug'ni daraxtga aylantiradi. Bu g'oya Aristotel talqinidagi shakl sababning faoliyatiga to'g'ri keladi.

Virtual reallikning uchinchi shakli fikriy va psixologik virtualliklardir. Psixologik virtual reallik bevosita insonning ichki kechinmalari, his tuyg'ulari bilan bog'liq hisoblanadi. Psixologik virtual reallikning bir ko'rinishi virtual qobiliyatlardir. Psixologik virtual reallikning ham ikki ko'rinishi mavjud: konsuyetal va virtual. Psixologik virtuallikning qanchalik ko'p hajmli axborotni qabul qilishi va saqlashiga qarab gratual va ingratual ko'rinishlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Virtual reallik tushunchasining falsafiy maqomi inson borlig'ining uchta ma'lum makonlariga nisbatan qo'llaniladi: fikriy olam, ko'rinuvchi olam va obyektiv tashqi olam. O'ziga xos holdagi

«virtual reallik falsafasi» (bu uning muhim va prinsipial xususiyatidir) dastlab professional faylasuflar tomonidan emas, balki kompyuter injenerlari, jamoat arboblari, yozuvchilar, jurnalistlar tomonidan taklif qilingan. Virtual reallikning tarkibiy qismlari bilan ishlash real jihozlar va predmetlar bilan ishlashga aynan o‘xshashdir.

Virtual reallik muhitida ishlash yengillik, tezlik bilan birga o‘yin xarakteriga ega, unda mashinadan foydalanuvchi virtual olamga o‘tkaziladi: virtual obyektlarning ta’siri inson tomonidan xuddi «odatdagi» reallik kabi qabul qilinadi. Aynan virtual reallikning mana shunday interaktiv imkoniyatlari shu darajada ahamiyatli bo‘lib borishiga olib kelmoqda[2]. Virtual reallik borasidagi qarashlarni to‘g‘ri tahlil qilgan holda O‘zbekistonda ham virtualistika fani va falsafasini shakllantirmoq lozim va shu asosida mamlakatimizda virtual qabulxonalar, virtual korxona va ofislarni yaratish, virtual modellar va obyektlar bilan ishlash darajasini oshirish lozim. O‘ylaymizki bu O‘zbekiston fani va falsafasiga, texnika va texnologiyasiga yangicha o‘zgarishlar olib keladi, chunki virtualistika falsafasi hozirgi zamon fan falsafasi strukturasini o‘zida aks ettirib, bir qancha yo‘nalishlar doirasida rivojlanmoqda. Shunday qilib biz falsafiy tahlil natijasida shuni aniqladikki nazariya, amaliyot, texnologiya va falsafadagi virtual reallik oddiy narsa emas ekan. Virtual reallikni o‘rganish ayniqsa, realizatsiyada juda katta bilimni talab qiladi. Agar biz virtual reallikning tajribaviy jihatdan ta’rifini bilib tushunib olsak virtual reallik nazariyasini yarata olamiz. O‘z vaqtida mashhur bo‘lgan fizik olim Lyudvig Bolsman ham «Tajribani ozroq bilib nazariyani yaxshi bilib bo‘lmaydi» deb aytgan.

NATIJALAR

Yuqoridagi mushohadalardan ko‘rinadiki, garchi virtual reallikning kompyuter texnologiyalarida ishlatilayotgan ma’nosi falsafaning tushunchalariga nisabatan “tesha tegmagan”, ya’ni ancha qo‘pol tushunchalar bo‘lsa hamki, ular mazmunida falsafiy tushunchalarga muayyan yaqinlik yuzaga chiqayotgani kuzatilmoqda. Shu umumiyat asosida biz hozir kompyuter texnologiyalarida keng ishlatilayotgan informatsiya mazmunida g‘oyaviy olam o‘z ontologik mazmuni bilan ishtirok etayotgani haqidagi xulosaga kelamiz. Lekin virtual texnika bu olamga qanday (salbiy yoki ijobiy) o‘zgarish va ta’sirlar olib kirishi hali noma’lum. Bizningcha, bizning hozirgi rasional tafakkurimiz tariqatlarda ko‘rsatilgan yetti muhim bosqich orqali sublimatsiya (poklanish orqali nafislashuv) jarayonini bosib o‘tmasdan bu reallikka kirayotgani tufayli, bizningcha, bu ijobiy emas, balki salbiy bo‘lib chiqishi xavfi kuchliroqdir.

Virtualistikaning ko‘p jihatliligi to‘g‘risida so‘z yuritganda mazkur yo‘nalish tadqiqotchisi N.A.Nosov uni umumiy,

paradigmal tushunish no‘qtai nazaridan taklif qilgan ta’rifni qayd etib o‘tish kerak: «Poliontik voqyelikni e’tirof etishga asoslangan yondashuv virtualistika deb ataladi». Virtual voqyelik g‘oyasini bunday tushunish fan falsafasining nazariy muammolariga yangicha nazar bilan qarash imkonini beradi. Insoniyatning barqaror rivojlanishi o‘z kosmo-psixo-axborot muhitining yangi jihatlarini anglab yetish, ularni dunyoning hozirgi zamon ilmiy manzarasiga kiritish va olamshumul entropiyaga qarshilik qo‘rsatishning ma’naviy tayanchlarini qidirish zaruriyati bilan bog‘liq. Virtual reallikdagi narsa va hodisalar murakkab hisoblanib, ularni modellashtirishda ilmiy bilishga yangi konseptual tushunchalarni kiritishni taqozo etadi. Mazkur tushunchalar ob’yektni tadqiq etish uchun adekvatli falsafiy tilni berishi lozim. Chunki Sh.S.Qo‘shoqov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, virtualistikaning nazariy va uslubiy natijalarini ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalarida qo‘llanilishi virtuallik tushunchasini umumilmiy kategoriyaga, aytish mumkinki XXI asr madaniyatini universaliysiga aylanishiga olib keldi [3].

Hozirgi davr eng yangi fanlari butun koinot, undagi barcha yoritkichlar, planetalar, predmet va mavjudodlar nafaqat fizikaviy (gravitasion, kuchli va kuchsiz, elektro-magnit) maydonlarining, balki real axborot (axbor-quvvat) maydonlarining o‘zaro ta’sirlarida ham mavjud ekani va umuman butun koinot ongli ekani haqidagi xulosalarni ham oldinga surmoqda. Bu esa daholarga kelgan kashfiyotlar, ijodiy g‘oyalar axborot shu maydonning qaysidir yuqori qatlamlaridan kelgan, degan xulosaga olib keladi. Kvant-vakuum texnologiyalari o‘z istiqbolida ushbu virtual reallikning mag‘zini tashkil etishi mumkin. Lekin buning uchun hozirgi davr fani kvant hodisalarining hissiy norealligi bilan bog‘liq o‘z eksperimentlarini jiddiy ilmiy nazorat ostiga olishi va ular asosida yangi umumilmiy paradigmani ishlab chiqishi kerak [4]. Buning uchun fan, agar u ushbu (kvant) hodisalarning realligini tan olsa, quyidagi ikki alternativ gipotezadan birini tanlashiga to‘g‘ri kelmoqda: birinchidan, ongni moddiylikdan mustaqil, bosh miya po‘stlog‘idagi atom-molekulyar neyrofiziologik jarayonlardan tashkil topmaydigan avtonom hodisa deb hisoblash kerak.

Ikkinchidan, olamda ikki o‘zaro bog‘langan qatlamlarni - moddiylik va ongni keltirib chiqaradigan va ular evolyusiyasini ta’minlaydigan tizim - shakllantiruvchi fundamental protoctruktura mavjud. Birinchi gipoteza olamda qanday murakkab narsa bo‘lmasin, u atom-molekular jarayonlardan tashqari mavjud bo‘la olmaydi, degan avval shakllangan tasavvurlarga zid keladi. Bu bizni Dekartning reallikning ikki qatlamga – moddaga va nomoddiy ongga ajralishi haqidagi dualistik ta’limotiga qaytaradi. Ikkinchisi esa, ko‘rinib turganiday, butun borliqning hech qanday moddiy sifat, shaklsiz, sof (noborliq) yagona asosi, mohiyati mavjudligi haqidagi Platon ta’limotiga qaytishni taqozo

etadi. Ikkinchi gipotezaning qizig‘ligi shundaki, uni kvant vakuumi fizikasi sohasida erishilgan kashfiyotlar bilan qiyoslash ham mumkin. Zero, kvant yoki fizik vakuumning qonuniy ta’rifiga ko‘ra bu borliqning hech qanday eng mayda zarrachasi ham mavjud bo‘lmagan bo‘shliq, ya’ni noborliqdir.

Ayni paytda Geyzenbergning noaniqliklar nisbatiga muvofiq quvvat kvantining fluktuatsiyalari tufayli vakuum virtual zarrachalar “tumani”ni bilan to‘liq. Ko‘pgina fizik hodisalar real fizik zarrachalar kollektivi bilan shu virtual kvant “tumani” orasidagi o‘zaro ta’sirlar orqali tushuntirilmoqda. Boz ustiga hozirgi kosmologik nazariyalarga ko‘ra, Koinotning o‘zi ham kvant vakuumining gigant quvvati fluktuatsiyasining Katta Portlashi jarayonida kelib chiqqan. Agar bu nazariya qabul qilinsa, u holda Olamni vujudga keltirgan ushbu vakuumning mazkur Koinotning (18 ming Olamning) xossalarini, uning evolyusiya qonunlarini va barqarorlik parametrlarini belgilab beradigan muayyan informasion matrisasi (shakllantiruvchi g‘oyaviy qolipi) ham bo‘lishi kerak. Boshqacha aytganda vakuumning nomoddiy shakllantiruvchisi mavjud bo‘lishi kerak. Hozirgi kvant kosmologiyasi bu xulosani oshkor etmayapti. Lekin hozirgi kunda vakuumning shakllantiruvchi xususiyatlari batafsilroq yoritilgan kvant vakuumi nazariyalari bor [5] hamda bu yo‘nalishda yuzlab adabiyotlar nashr etilgan. Ayni paytda bu nazariyalarga skeptiklarcha qarayotgan olimlar guruhi ham bor. Lekin mazkur nazariyalar bo‘yicha Rossiya va AQSHning ko‘pgina ilmiy tadqiqot markazlarida muvaffaqiyatli ishlar olib borilmoqda. Shu nazariyalar asoslagan kvant-vakuum effektlarini o‘rganish asosida yaratilgan yangi texnologiyalar sanoat tajribalarida sinovdan o‘tkazib kelinmoqda.

MUHOKAMA

Kvant vakuumi semantikasi (ma’nosi)ning tahlili muammosi xususida to‘xtalsak, bu yo‘nalishdagi ishlar ongni o‘rganishda katta ahamiyatga ega ekanini qayd etilmoqda. Bu borada V.V.Nalimov va N.I.Kobzevaning psixion vakuum haqidagi xulosalari asosida shakllangan mezon konsepsiyasi diqqatga sazovor [6]. Ushbu tadqiqotlar psixologiya va va neyrofiziologiya muammolarini yechish yangi imkoniyatlarini yaratadi, farmokologiya, medisina, qishloq xo‘jaligida va, ayniqsa, axborotlashuv va kommunikatsiyada foydali bo‘ladi, deb qaralmoqda. Shuningdek, kvant axborotini mikro va makro darajalarda uzatilishi paradokslarining B.B.Kadomsev [7] tomonidan tahlil etilishi ituisiya hodisasini ham shu konsepsiya asosida tushunish mumkinligi haqidagi xulosaga olib keldi. Fan shu kungacha bosib o‘tgan umumiy yo‘li “xususiylikdan umumiylikka” o‘tish (induksiya) metodiga tayanib kelgan edi. To‘g‘ri, bu yo‘l fanning o‘z ichida yangi umumlashmalar, xulosalar va paradigmalarga

tayangan ichki (tor miqyosdagi, ichki) deduksiya vositasida muayyan bilim xazinasini qo‘lga kiritdi. Lekin bu bilim insoniyatga juda qimmatga tushdi, uni halokat jari yoqasiga olib kelib qo‘ygan global ekologik, iqtisodiy, ma’naviy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa krizislar girdobiga tortdi.

Shuning uchun endi fanning boshqa namoyandalari sinalgan “tajriba va adashuvlar” yo‘lidan voz kechib borliqqa o‘zlari izlab topgan yangi “ilmiy paradigma” yoki “materialistik” nuqtai nazaridan deb atalgan, aslida yalpi umumiy haqiqatni qismlarga bo‘lib, turli “filtr”lardan o‘tkazib qabullashdan iborat metoddan voz kechdilar va oliy (ilmiylik doirasidan tashqariga chiqadigan) keng miqyosli deduksiya metodiga tayanish zaruratini anglamoqdalar. Zero, ular kibernetika, genetika fanlarini shunday “filtrlardan” o‘tkazmagan tafakkurning torligini o‘z tajribalarida boshdan kechirdilar. Endilikda ular borliqqa “o‘zlarining (tor, ilmiy manzaralari) nuqtai nazarlaridan” kelib chiqib emas, kengroq, “obyektivroq”, “demarkatsiya” ko‘znoynagisiz qarash kerakligini, ilgari o‘zlari “noilmiy, g‘ayriilmiy, soxta bilim” deb qarab kelgan ilmlarning fan bilan teng mavjud bo‘lish xuquqi borligini ham anglab yeta boshladilar [8]. Bundan tashqari fan o‘z shakllanishining dastlabki bosqichida tanlagan yo‘li biryoqlama edi. Zero u faqat va faqat tashqi olamni bilishga yo‘nalgan (ekstraversiv) edi, insonning o‘zi, uning ichki olami uning yo‘li bo‘lmay kelgan edi. Bu insonning tashqi olam qurshovida yashashi, unga hamisha moslashib borishi ob’yekti zarurati bilan bog‘liq bo‘lgan edi. XX asr Amerikada shakllangan bixeviorzm oqimi psixologiya fanidagi shu tamoyilni gavdalantirgan edi. Umuman esa insonning tashqi olamga moslashuvi ham zarurat bo‘lib, chiziqli tafakkurni shu tashqi olamga moslashuvning samarali vositasi deb qarash joiz[9].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ilmiy adabiyotda virtuallik fenomenini turli xilda tahlil qiladigan konsepsiya va g‘oyalarning uch guruhi mavjud. Birinchi guruhga virtuallikni ontologik maqomini taxlil qiladigan falsafiy va umumilmiy konsepsiyalar kiradi. Ikkinchi guruh jamiyatda virtual xodisalar paydo bo‘lishini kuzatadigan ijtimoiy g‘oyalarni kuzatadi. Uchinchi guruhga jamiyat xayoti faoliyatini umumiy qonun va mexanizmlarini bir butun va virtuallashuvni uning bir tarafi sifatida ko‘rsatadigan ijtimoiy komunikatsiya g‘oyalari tashkil etadi.

REFERENCES

1. Virtualnaya realnost.//Istoriya filosofii. Ensiklopediya. Interpresservis. Knijniy Dom. Minsk 2002.-S.122.

2. Sanaqulov, A. (2021). Ҳозирги давр фани ва фалсафасида виртуал реаллик муаммоси. *ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР НОМИДАГИ АНДИЖОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ХАБАРНОМАСИ*.
3.Qo‘shoqov Sh.S. (2011) Virtualnost kak universaliy kulturы XXI va veka // Falsafa va fanlar metodologiyasi muammolari. Alloma Omonulla Fayzullayevning 90 yillik yubileyi o‘qishlariga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy o‘qishlari materiallari. –T.: Falsafa va huquq instituti, 1-kitob, -B.54.
4. Djan R., Dann B. (1995). Granisi realnosti. M., -S.76.
5. Akimov A.Ye. (1997), (1998). Oblik fiziki i texnologii v nachale XXI veka. Yekaterinburg.–S.25; Shipov G.I. Teoriya fizicheskogo vakuuma. M,.–S.95; Baurov Yu.A. O strukture fizicheskogo prostranstva i novom sposobe polucheniya energii. M., -S.146.
6. Leskov L.V. (1997) Fundamentalnaya konsematicheskaya protostruktura Vselennoy // Soznaniye i fizicheskiy mir. M.-B.84-128.
7. Kadomsev, B.B. (1997). Dinamika i informatsiya. Nauchnoye izdaniye / B.B.Kadomsev. - M. (1997) : Red. jurn. «Uspexi fiz. Nauk», -S.397.
8.Shermuxamedova N. (2005). Falsafa va fan metodologiyasi.T., -B.167-180.
9.Sanaqulov, A. (2024). TA’LIM TIZIMIDA VIRTUAL REALLIKDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI. *Farg'ona davlat universiteti*, (2), 41-41.

REFLECTION OF SPIRITUAL PROBLEMS IN RUSSIAN SOCIETY THROUGH THE LENS OF RUSSIAN LITERARY TRADITION

Shokhiniso Shukhratovna Shadieva
Master's student, Termez State University

Ozoda Tojievna Khujanova
Termez State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
ozoda.xuzhanova@bk.ru
https://orcid.org/0009-0005-1904-1419

ABSTRACT

This article explores the depiction of spiritual problems within Russian society as represented in the country's literary tradition. It focuses on how spiritual issues like moral dilemmas, existential quests, and critiques of materialism are addressed by classic Russian authors such as Fyodor Dostoevsky, Leo Tolstoy, and Anton Chekhov. By analyzing these works through a cultural and historical lens, this study aims to demonstrate how Russian literature has been a crucial medium for understanding societal values, religious beliefs, and moral complexities within Russian society.

Keywords: Russian literature, spirituality, Russian society, Orthodox Christianity, Dostoevsky, Tolstoy, moral dilemmas, existentialism.

INTRODUCTION

Russian literature has long been a mirror of the nation's complex spiritual landscape, addressing questions of faith, morality, and the human condition. Authors like Dostoevsky, Tolstoy, and Chekhov grappled with deeply spiritual themes, providing insights into Russian society's ethical concerns. This study investigates how Russian literary tradition reflects spiritual struggles and examines the role of Orthodox Christianity, societal conflicts, and existential themes in literature as a means of expressing and interrogating Russia's collective conscience.

MATERIALS AND METHODS

The primary materials for this research are key works of Russian literature: Fyodor Dostoevsky's *The Brothers Karamazov* and *Crime and Punishment*, Leo Tolstoy's *War and Peace* and *Anna Karenina*, Nikolai Gogol's *Dead Souls*, and Anton Chekhov's short stories.

These texts were selected due to their enduring impact on Russian culture and their focus on themes of spirituality and morality. This research employs a qualitative analysis method, specifically focusing on thematic and symbolic representations of spiritual dilemmas in these works. A comparative analysis examines the influence of Orthodox beliefs and the socio-political climate on these themes, while a content analysis identifies recurring spiritual motifs in each work.

RESULTS

The analysis of Russian literature reveals that themes of spirituality are deeply interwoven with societal values and personal struggles. Three primary themes emerge:

1. **Search for Faith and Meaning**: Dostoevsky's *The Brothers Karamazov* exemplifies the Russian quest for faith and redemption, where characters like Ivan Karamazov confront existential questions about God, suffering, and human nature. This exploration of spiritual doubt and quest for meaning reflects a larger societal desire for purpose amid moral complexity.
Существующий в Центральной Азии комплекс проблем, помимо плодотворного политического и экономического сотрудничества, требует расширения и углубления всего спектра отношений, включая и культурно-гуманитарную составляющую, в том числе творческие и академические связи. Представляется целесообразным, чтобы республики ЦА в целях достижения устойчивости двух- и многосторонних связей активизировали совместные усилия в реализации совместных интеграционных проектов, в создании новых механизмов многостороннего экономического партнерства, в развитии международного и регионального туризма и др.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В заключение можно сказать, что укрепление взаимного доверия и добрососедских отношений со странами Центральной Азии является основным приоритетом внешней политики Узбекистана. Это выражается в том, что Узбекистан является единственной страной в регионе, граничащей со всеми странами Центральной Азии, что любые политические, экономические и культурные изменения в стране напрямую влияют на регион, и что стабильное развитие Центральной Азии служит интересам всех стран региона. Сегодняшняя внешняя политика Узбекистана, в частности добрососедство и прагматичная региональная политика, не только повышает международный авторитет страны, но и служит превращению Центральной Азии в стабильное пространство сотрудничества с большими возможностями.

Сегодня Узбекистан постепенно идет по пути повышения имиджа на международной арене. Делает это стратегически, прежде всего учитывая свои национальные интересы, указанные в Конституции Республики, и ускоряя темпы экономических реформ для создания благоприятного инвестиционного климата. Главными ценностями Узбекистана во внешней политики являются установление всесторонних связей с различными странами на принципах равноправного партнерства и взаимного уважения для интеграции в систему мирохозяйственных связей, осуществления активного международного, политического, экономического, научно-технического и культурного сотрудничества.

REFERENCES

[1, 1с.] Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г. № УП-60 «О СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯНОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА 2022 — 2026 ГОДЫ [Электронный ресурс] // https://lex.uz/ru/docs/5841077.

[2, 2с.] Ионова Е. Главные векторы внешней политики Ташкента. Россия и новые государства Евразии, 2021, № II (LI), сс. 87–98.
[3, 2с.] Курылев К.П., Дегтерев Д.А., Смолик Н.Г., Станис Д.В. Количественный анализ феномена геополитического плюрализма постсоветского пространства // Вестник международных организаций: образование, наука, новая экономика. 2018. №1. С. 134-156.
[4, 4с.]https://bigasia.ru/content/pub/review/druzhestvennoesotrudnichestvo-so-stranami-tsentralnoy-aziiprioritetnoe-napravlenie-vneshnepolitich/ (дата обращения 23.08.2022)
[5, 4с]. ИА Review.uz «Послание Президента Узбекистана Шавката Мирзиёева Олий Мажлису» [Электронный ресурс]//https:// review.uz/post/poslanie-prezidentauzbekistana-shavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu (дата обращения 21.08.2022)
[6, 4с]. Сайт центра геополитических исследований «Берлек-единство» [Электронный ресурс] // http://berlek-nkp.com/analitics/9965-uzbekistanpredlozhil-stranam-centralnoy-i-yuzhnoy-azii-reshat-problemy-bezopasnosti-cherez-ekonomiku.html (дата обращения 32.08.2022)

НАРОДНЫЕ ИГРЫ В ФОРМИРОВАНИИ ЭТНОКУЛЬТУРЫ

Хамидулла Джурабаевич Рузиев
Старший преподаватель кафедры
«Основы духовности и правовое образование»,
Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами
электронная почта: hamidullaruziev@gmail.com

Азиза Абдурахман қизи Абдуллаева
Студентка II курса факультета “История”
Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

АННОТАЦИЯ

Народные игры в этнокультуре занимают важное место, так как они тесно связаны с верованиями, мифами разных этносов. Эти игры не только отражают уникальные культурные особенности, но и выполняют важные функции в воспитании и организации духовной жизни. Воспитания чувства толерантности у альфы поколения к культуре всех народов мира. Методология. В процессе исследования народных игр их участии этнокультуре использовались методы логического, статистического анализа.

Ключевые слова: этнос, ритуалы, обряды, образование, формирование, альфа поколение.

ВВЕДЕНИЕ

Прежде чем начать писать эту статью, я хотела бы вам напомнить слова американского поэта Роберта Фроста: “игры не только развлекают но и учат нас быть людьми”. Насколько же глубокий смысл этого изречения. В действительности народные игры являются венцом человеческой жизни. Так как без них, невозможно представить себе историю народа. Вот вам всеобщий вопрос. Когда вы покупаете чемодан для того чтобы поехать в другую страну, в первую очередь что вы в него положите? Паспорт? Деньги? Карту? Одежду? Если эти ваши ответы то вы жестоко ошиблись. Нужно положить свои знания о той стране, о его народе и культуре. Несмотря на то, что в наше время английский язык является всемирным языком, во многих странах его местное население не сможет понять. К примеру, в Японии если вам помог незнакомец и вы ему крепко пожали руку, то это для него считается оскорблением, потому что японцы

предпочитают поклон как способ уважения. Если вы будете знать о культуре и быте, того или иного народа, она вам очень пригодиться на протяжении всей вашей жизни и вы не попадете в неловкие ситуации. Народные игры и их эстетика проведения поможет вам завоевать доверие и взаимное уважение людей.

Народные игры часто воплощают в себе уникальные ценности, традиции и истории, которые передавались из поколения в поколение, служа средством связи людей с их корнями и наследием.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

Каждая народная игра имеет свой уникальный характер, который отражает особенности быта, природные условия, социальную структуру и духовные ценности данного народа. Игры зачастую формируются в тесной связи с природой, сельскохозяйственными циклам и традиционными праздниками. Например, игры, связанные с обработкой земли, собранием урожая, охотой или рыболовством, могут символизировать связь человека с природой, его зависимость от сезона и природных явлений. То есть усовершенствовать в нас тесную гармонию и спокойствие с природой. В некоторых народных играх присутствуют элементы, которые напрямую связаны с мифологией или верованиями. В качестве примера можно привести игры, воспроизводящие действия животных или духов, что служит своего рода обучением и подготовкой к взрослой жизни. Такие игры не только знакомят детей с окружающим миром, но и формируют у них определённые моральные ориентиры и представления о социальной роли в обществе.

Одним из ключевых аспектов традиционных игр является то, как они отражают борьбу и триумфы прошлых поколений, демонстрируя стойкость, смелость и креативность сообществ перед лицом невзгод. Благодаря этим играм участники могут испытать трудности и радости своих предков, глубже оценить культурное наследие, которое определяет их личность.

Кроме того, традиционные игры предлагают членам сообщества платформу, позволяющую собираться вместе, взаимодействовать и делиться своими знаниями и опытом. Участвуя в этих играх, люди формируют связи друг с другом, укрепляют социальные связи и способствуют чувству единства и солидарности внутри своей культурной группы.

В области фэнтези традиционные игры часто включают элементы мифов, легенд и повествований, перенося игроков в фантастические миры, где воображение не знает границ. Эти игры предоставляют людям возможность исследовать новые миры,

встречаться с мифическими существами и выполнять эпические квесты, бросающие вызов их смелости, остроумию и стратегическому мышлению.

Так давайте же рассмотрим народные игры разных стран. Начнем же как называли древние греки страной демократии с Европы. В Германии существует такая игра Кольцеброс (Ring Toss). Кольцеброс представляет собой игру, в которой участники бросают кольца на крючки или штыри, стараясь попасть в цель. Это простая, но увлекательная игра, популярная на ярмарках и праздниках. Эта игра помогает нам развить концентрацию и терпение.

Лавка или молотки — Финляндия. Игра, в которой игроки с помощью молотков пытаются перевернуть металлические кольца или попасть в цель. Она имеет свои корни в традиционных финских праздниках и соревнованиях.

Голубиные игры — Испания. В Испании были популярны игры, где использовались живые голуби. Участники соревновались, кто сможет быстрее научить голубя вернуться в свою клетку или выполнить другие трюки. Благодаря ей мы начинаем тонко чувствовать животных и любить и воспринимать их как за наших меньших братьев.

Скифское колесо — Восточная Европа. В странах Восточной Европы существует старинная игра, связанная с катанием деревянного колеса, что напоминает спортивные соревнования с элементами ловкости и меткости.

Ручные игры (Hand games) — Великобритания и Шотландия. В разных частях Великобритании, включая Шотландию, популярны различные игры с руками, например, "Костяшки" (или "Ручная игра"), в которых игроки используют маленькие деревянные или металлические предметы и пытаются их правильно подбрасывать и ловить. Теперь черед Азиатских стран.

Шашки (Xiangqi) — Китай. Xiangqi, или китайские шахматы, — это стратегическая игра, которая имеет сходства с западными шахматами, но с уникальными правилами и фигурами. Она популярна в Китае и других странах Восточной Азии.

Ёнджу (Yutnori) — Южная Корея. Yutnori — традиционная корейская игра, в которой игроки используют четыре палочки (брусочки) и пытаются перемещать фишки по игровому полю в зависимости от того, как палочки падают. Это очень популярная игра, особенно на праздниках, таких как Новый год.

Танцы с бубном — Тибет. В Тибете существует народная игра, в которой участники должны танцевать с бубном и повторять традиционные ритмы и движения. Эта игра часто используется для праздников и обрядах. Как вы сами знаете В Тибете большинство из местного населения имеет гибкое и атлетическое

телосложение. Танцы не только помогают нашему телу, но и поднимают нам настроение оставляя за собой яркие и незабываемые моменты.

Вы можете представить себе море без капли воды? Точно так же невозможно себе представить без народных игр науку этнокультуру. Ведь она является ее неотъемлемой и формирующей частью. Немыслимо строить будущее без багажа истории прошлого. Я считаю, что нужно внедрить предмет этнокультуру в школьную программу чтобы дети с ранних лет осознавали ее ценность. Школа является фундаментом знаний ребенка и его нужно с этого момента подготавливать к жизни. Кроме того нам необходимо увеличить такие программы обмена как FLEX, чтобы студенты разных этносов могли сплотиться и обмениваться накопленным опытом. Такие программы должны учитывается и иметь поддержку со стороны государства. Они должны быть общедоступными, чтобы каждый мог бы поехать за рубеж и расширить свое мировоззрение и применять накопленный опыт в своей стране. Только вообразите, какой же это будет фурор во всем мире. Обмен не только послужит модернизации в сфере образования, но и поддержит дружескую связь целых народов мира. Мы все должны хотя бы попытаться создать такие программы для молодого поколения. Ведь пытавшийся близок к цели, не пытавшийся упустил шанс победы.

Таким образом народные игры в этнокультуре - это не только форма досуга, но и мощный инструмент сохранения и передачи культурных ценностей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Как подчеркивал генеральный секретарь ООН, Антониу Гутерриш народные игры являются частью нашего сознания. В частности ЮНЕСКО в последние десятилетия активно работает над сохранением и распространением традиционных культурных практик, в том числе народных игр.

Сделан вывод о том что, народные игры являются кладезью и ценностью для сохранения и передачи традиций, укрепляя социальные связи

REFERENCES

1. Х.Т. Адилкариев "Теория государства и права" учебное пособие под редакцией Шарк 2009г 45 -59 страницы
2. М. Киргизбаев "Политология "2013 год 27-31 страницы
https://ru.wikipedia.org/wiki/Лао -Цзы
3. Х.М Мухаммедов "История государства и права зарубежных стран ""Адолат"1999 год.

4. Х.М Мухаммедов "История государства и права Узбекистана" , издательство Тасвир 2009 17-19 страницы

OLIY TA’LIMDA O‘QUV JARAYONINING TASHKILIY-ILMIY METODOLOGIK ASPEKTLARI

Rahmnonali Bozorboy o‘g‘li Tursunov
O’zbekiston Milliy Universiteti tadqiqotchisi
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari o’quv jarayonining tashkiliy-ilmiy metodologik aspektlari yoritib berilgan. O’quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy metodlari va xorij tajribasi ko’rib chiqilgan. Qiyosiy tahlil natijalari shakllantirilgan.

Kalit so’zlar: oliy ta’lim, o’quv jarayoni, aspektlar, zamonaviy yondashuv, pedagogik qarashlar, xorij tajribasi.

KIRISH.

“Oliy ta’lim” termini mazmunida iqtisodiyot, fan-texnika hamda madaniyat sohalarida faoliyat yurituvchi, shu bilan birga mehnat jarayonida ilmiy yutuqlarni qo‘llash va o‘z ustida ishlash orqali nazariy va amaliy masalalar bilan shug‘ullanuvchi malakali kadrlarni tayyorlash tushuniladi.[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 13-dekabrdagi 824-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida asosiy tushunchalar sifatida Oliy ta’lim muassasasiga shunday ta’rif berilgan: **“**Oliy ta’lim muassasasi belgilangan miqdordagi kreditlarni tan olishni hisobga olgan holda ta’lim va malaka to‘g‘risidagi hujjat beruvchi muassasa”dir.[2]

O‘quv jarayoni o‘quv hamda nazorat tadbirlari majmuini o‘z ichiga oluvchi ta’lim bo‘g‘ini hisoblanadi. O‘quv jaroyoni barcha turdagi mashg‘ulotlarninng, amaliyotlar hamda mustaqil ishlarni tashkil etish talab etiladi. Nazorat ishi savollari talabalarning o‘quv rejalaridagi tegishli bo’lgan fanlarni bilishlarini va ularni natijalarini baholash uchun olinadi.[3]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.

Globallashuv jarayonida ta’lim muassasasalari, eng avvalo, bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlashda hamda sifatli pedagogik kadrlarni yetishtirishda to‘g‘ri yo‘lni tanlashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu masalada mutaxassislardan I.K.Shalayev va A.A.Veryayevlar ta’limning an’anaviy muhitidan uning

axborotlashgan muhitiga o‘tish bo‘yicha quyidagicha mulohaza yuritishgan: “Sivilizatsiyaning shakllanish davri cheklangan bo‘lishiga qaramay, o‘sha davrda ta’lim tizimining uzluksizligini anglash mumkin. Erishilgan tajribalar asosan mahalliy (muhit va vaqt bo‘yicha) yo‘l bilan keyingi avlodlarga uzatilgan. Bu xususan, o‘sha davr uchun xarakterli bo‘lgan madaniy taraqqiyotning ko‘rinishlaridan biridir. Ta’limiy muhit o‘sha paytlarda o‘ta tabiiyligi bilan ajralgan. Asta-sekin zarurat yuzasidan insonlar, bunday ta’limiy muhitni maxsus shakllantirish uchun harakat qilishgan. Til va yozuvning shakllanishi bilan insoniyat tajribasi turli vositalarda qayd qilinib, uni tarqatish imkoniyati paydo bo‘lgan. Inson tajribasini muhitning boshqa bir joyida va boshqa bir vaqtda amalga oshirish imkoniyati tug‘ilgan. Axborotni saqlash va uni uzatish bo‘yicha imkoniyatlarning paydo bo‘lishi, ijtimoiy rivojlanishlar sur’atining o‘sishiga, shuningdek, ta’lim muhitining samarali shaklda shakllanishiga olib keldi” [4].

XXI asrda axborot ta’lim vositalari taraqqiyotida keskin yuksalishlar kuzatilmoqda. Buning oqibatida ta’limda an’anaviy yondashuvdagi “o‘qitish vositalari” terminidan, “ta’limiy muhit” terminiga, zamonaviy axborot va kommunikatsion texnologiyalarning jadal qo‘llanilishi hisobiga “yagona elektron axborot ta’lim muhiti” terminiga o‘tilishiga olib keldi.

V.I.Strajev fikriga qo‘shilib, “zamonaviy, an’anaviy, individual, universal hamda mahalliy va jahon ta’lim tizimini uyg‘unlashtirish asosida zamonaviy ta’lim shakllanmoqda”,– deb hisoblash mumkin. N.V.Makarova “Ta’lim tizimi insonning madaniy va intellektual rivojlanish darajasiga qaratilgani bilan birga mehnat bozoridan munosib ish topishi, moddiy ehtiyojini ta’minlashi uchun asos sanaladi va talaba ta’lim tizimining tezkorligini va mehnat bozori talablariga ko‘ra moslashib borishi lozim”, [5] deb hisoblaydi. Bundan shuni xulosa qilsak bo‘ladiki, ta’limning dolzarb masalalaridan hisoblangan an’anaviy yondashuvli ta’lim tizimi hamda metodikasidan bugungi rivojlanish talablariga xos va mos zamonaviy ta’limga imkon qadar tezroq o‘tishni talab etmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Oliy ta’lim maqsadlaridan biri bugungi kunning talabiga to’liq javob bera oladigan yetuk malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta’lim mutaxassisiga qo’yilgan talablarga, o‘zi tanlagan yo‘nalishi yuzasidan javob bera oladigan mamlakatning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o‘zining munosib hissasini qo‘shadigan, mustaqil fikrga, yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir.

Oliy ta’limning asosiy vazifalariga quyidagilardan iborat:

– davlat ta’lim standarti(DTS)ga muvofiq zamonaviy dasturlar asosida ta’lim tizimi sifatini ta’minlash;

– oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash;

– ilm-fan, madaniyat, iqtisodiyotning zamonaviy yutug‘i, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini inobatga olib mutaxassislar tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirish;

– oliy ta’limda insoniylik va insonparvarlik tamoyillarini singdirish asosida ta’lim-tarbiya tizimiga milliy va umumbashariy qadriyatlar, oilaga, tabiatga, Vatanga muhabbat tuyg‘usini yuksaltirish;

– oliy ta’limning nazariy yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoni bilan integratsiyasini yanada kuchaytirish;

– ilmiy-pedagogik soha subyektlarining faoliyati, ilmiy tadqiqot natijalari yordamida tizimni yanada rivojlantirish, ta’lim yutuqlari hisobiga xalq farovonligi va iqtisodiyot tarmoqlarining jadal sur’atda o‘sishiga erishish;

– ta’limda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi o‘zaro raqobatni yanada kuchaytirish;

– oliy ta’lim muassasalarini boshqarish va kengaytirishni takomillashtirish maqsadida jamoat nazorati kuzatuvchi kengashlarni kiritish hamda ularning faoliyatini munosib tashkillash;

– kadrlar tayyorlash sifatini tekshirish uchun marketing tadqiqotlarini olib borish, yo‘nalishi bo‘yicha belgilangan mehnat bilan ta’minlash monitoringini tuzish;

– oliy ta’lim tizimida o‘zaro foydali xalqaro aloqalarni rivojlantirish [6].

Jahon sivilizatsiyasining axborot maydonida, jamiyat a’zolari kundalik faoliyatida, tizimli ravishda axborotlardan foydalanadi. “Ortib borayotgan axborotlar ko‘lami jamiyat intellektual salohiyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Jamiyatning har bir a’zosi o‘z hayotiy faoliyatining barcha sohalarida axborotlardan foydalanishi axborot muhitining shakllanishiga asos bo‘ladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhiti, o‘zida axborot obyektlarini, o‘zaro aloqasini, yangi axborotlarni yaratish, ularni tarqatish, tahrirlash, umumlashtirish texnologiyalari shuningdek, axborot jarayonlarining tashkiliy-huquqiy tarkibini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘ladi” [7].

“Ta’lim – O‘zbekiston xalqi ma’naviyatiga yaratuvchanlik faoliyatini baxsh etadi. Yosh avlod imkoniyatlari unda namoyon bo‘ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlod vakillarining tajribasi o‘zlashtiriladi”.

Ta’limda amalga oshirilayotgan islohotlar mintaqalar kesimida ta’lim muassasalaridagi rivojlanish bilan internet tarmog‘ining keskin o‘sish imkoniyatlaridan foydalanish ochiq ta’lim tizimini vujudga keltirmoqda.

Mamlakatda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar o‘quv jarayonining metodik ta’minotini yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shuning uchun ham zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari pedagogik innovatsiyalarning asosiy manbaiga aylanib bormoqda.

Talabalarning erkin ta’lim olishlari uchun ta’limni elektron axborot resurslarini shakllantirish ularga shart-sharoitlarni yaratish ta’lim mazmunini yanada takomillashtirishning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimining asosini yuqori sifatli texnologiyalar muhiti tashkil etadi. Bu jarayon texnik tomondan murakkab, shu bilan birga tizimni takomillashtirish ta’limga axborot va kommunikatsion texnologiyalarni keng qo‘llashni taqozo etadi.

Buni rivojlanayotgan mamlakatlar ta’lim tizimi misolida ko‘rib chiqish, mazkur ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalariga yechim topish imkonini beradi.

AQSh oliy ta’lim tizimi: AQSh oliy ta’lim tizimi keng tarmoqlarga ega bo‘lib, ilmiy daraja beruvchi 4600 ga yaqin ixtisoslashgan ilmiy kengashlardan iborat. Ularda 21 milliondan ortiq talabalar tahsil olmoqda.

Dunyo oliy ta’lim tizimlarining spektrida AQSh tizimi ko‘p jihatdan o‘ziga xosdir. Aksariyat mamlakatlardan farqli o‘laroq, AQShda ta’lim vazirligi yoki mamlakatda oliy ta’limga mas’ul bo‘lgan boshqa markaziy agentligi mavjud emas. Federal hukumatning roli cheklangan. AQShning boshqa hukumat tuzilmalarini takrorlagan holda, mamlakatning oliy ta’lim tizimi yaxlit bir ko‘rinishda markazlashtirilmagan. Shtat universitetlari va kollejlari federal hukumat emas, shtat nazorati ostida. Ta’lim muassasalari o‘zini-o‘zi mustaqil idora qilish bo‘yicha anchayin ko‘p huquqlarga ega va muassasalarning turlari ko‘p. Talabalar soni sezilarli darajada farq qiladi va dunyodagi aksariyat ta’lim muassasalaridan farqli ravishda bir qancha xususiy, nodavlat ta’lim muassasalari eng nufuzlisi hisoblanadi.

Universitetlar deb ataladigan ko‘pgina ta’lim muassasalari magistr darajasidan yuqori darajani bermaydi, ba’zilari esa faqat bakalavr darajasini taklif qiladi. Ba’zi kollejlar, bu ko‘plab mamlakatlarda bakalavriat ta’lim muassasalari yoki ilg‘or o‘rta maktab degan ma’noni anglatadi, doktoranturani taklif qiladi.

Bakalavr va doktorlik darajasini taklif qiladigan bir qancha nufuzli keng qamrovli tadqiqot universitetlari (masalan, Kaliforniya texnologiya instituti va Massachusets texnologiya instituti) institut sifatida tanilgan.

AQShda talabalar, o‘rta ta’limdan keyingi ta’lim va ishlab chiqarish birlashmalari hamda keng jamoatchilik uchun oliy o‘quv yurtlari shunindek o‘quv dasturlari sifatini ta’minlaydi. Akkreditatsiya jarayoni kollejlar va universitetlarni vazifalariga mos keladigan akademik standartlarga muvofiqligini, tegishli ravishda boshqarilishini, muayyan shtat va

federal dasturlarda qatnashish huquqini ta’minlashga qaratilgan. Aksariyat mamlakatlarda akkreditatsiya (yoki sifatni ta’minlash) hukumat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan bo‘lsa, AQShda akkreditatsiya oliy o‘quv yurtlari va dasturlarning sifatini tekshirish uchun maxsus tashkil etilgan xususiy, nodavlat tashkilotlar (akkreditator) tomonidan bajariladi.

“Tan olingan” deb atalishi akkreditator quyidagilardan biri tomonidan sifat tekshiruvidan o‘tganligini anglatadi:

Akkreditatsiyaning ikkita asosiy turi mavjud: institutsional va ixtisoslashgan.

– Institutsional akkreditorlar standartlarni belgilaydi va umuman muassasalar faoliyatini baholaydi. 19 ta tan olingan institutsional akkreditatsiya tashkilotlari mavjud. Bularning oltitasi CHEA tomonidan tan olingan mintaqaviy akkreditatsiya tashkilotlari bo‘lib, ular AQShdagi aksariyat notijorat, ikki yillik va to‘rt yillik ilmiy daraja beruvchi va ba’zi xususiy, notijorat muassasalarni akkreditatsiyadan o‘tkazishga mas’uldirlar. Ba’zi mintaqaviy tashkilotlar, shuningdek, AQShdan tashqarida joylashgan muassasalarni ham akkreditatsiyadan o‘tkazadi.

– Ixtisoslashgan akkreditorlar muassasada dastur yoki dasturning qismi bo‘yicha bir xil vazifani bajaradi. 60 ga yaqin tan olingan dasturiy akkreditatsiya tashkilotlari mavjud.

AQSh oliy ta’limi sektoriga turli xil uyushmalar kirib, muassasa yoki shaxslar (ba’zan har ikkisi) ularning a’zosi bo‘lishadi. Ko‘pincha bir nechta vazifalar yuklatilgan ushbu tashkilotlar guruh ko‘rinishidagi muassasalar, oliy ta’limning ma’muriy sohalari, kasbiy sohalar yoki fanlar bo‘lishi mumkin. Ba’zi uyushmalar uchun kollej va universitetlarning manfaatlarini federal va ba’zi hollarda shtat hukumatlarida himoya qilish muhim vazifa sanaladi. A’zolik uyushmalari oliy ta’limning barcha yoki muayyan qismining manfaatlariga mos keladigan davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlaydi. Ko‘pgina uyushmalar o‘z a’zolariga kasbiy rivojlanish dasturlari va xizmatlarini taqdim etadi, shuningdek ushbu sohadagi eng ilg‘or tajribalar haqida ma’lumot beradi.

Ba’zi tashkilotlar ilmiy forumlar sifatida xizmat qilib:

– o‘z sohalarida jurnallar nashr etadi;

– tashkilot intizomiga bog‘liq yoki boshqa o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi ilmiy mavzular, dolzarb masalalarni ko‘rib chiqadi va yetakchilikni rivojlantiradi;

– manfaatdor tomonlarni muhokamaga jalb qilish va hamkorlikda ishlashi uchun konferensiyalar o‘tkazadi.

Bunday uyushmalarga a’zo bo‘lish ixtiyoriy bo‘lib, odatda infratuzilma, dasturlar va nashrlarni qo‘llab-quvvatlash uchun a’zolik badali to‘lanadi. Ushbu guruhlarning aksariyati har yili

milliy yoki xalqaro uchrashuvlarni o‘tkazib, unda ro‘yxatdan o‘tish uchun badal to‘lash talab etiladi. Ushbu yig‘ilishlarda ba’zi tashkiliy ishlar olib borilsada, tadbir asosan ma’ruzachilar va mavzuga oid forumlar, mavzuga bag‘ishlangan munozarali guruhlar va tarmoq imkoniyatlariga oid masalalardan iborat bo‘ladi.

XULOSA.

O‘zbekistonda olib borilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlarning mazmun-mohiyati ta’lim tizimini axborotlashtirishdan iborat. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishning muhim yo‘nalishi sifatida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni takomillashtirish lozim. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari tarmoq texnologiyalari bo‘lib, lokal hamda global internet tarmoqlaridan sinxron va asinxron rejimlarda foydalaniladi. Bugungi kun axborot makonida texnologiyalarning ta’lim dasturlarida joylangan videodarslar, animatsiyon materiallar, masofaviy ta’lim loyihalari va darslar, olimpiadalar o‘tkazishni ta’minlab bermoqda.

Xulosa qilib aytganda axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo‘llash asosida ta’lim jarayonini samarali tashkil etilishi ta’minlanadi.

AQSH, Finlandiya, Germaniya oliy ta’lim tizimining yuqori darajada olib borilishi hamda talabalarning bilim darajasi yuqoriligiga sabab, ularning boshlang’ich ta’lim tizimini har bir bola uchun individual ta’lim va rivojlanish rejasi tuzilgani bilan ham bog‘liq hisoblanadi. Individuallik o‘quvchilar tomonidan foydalanilayotgan darsliklar mazmuni, mashg‘ulotlar, hamda ularga ajratilayotgan vaqt, shuningdek ta’lim materialiga ham tegishli hisoblanadi. Bu esa ta’lim olayotgan talabalarga yanada yaxshi o‘qishlariga imkoniyatlar yaratib beradi. Buni AQSH, Finlandiya, Germaniya ta’lim tizimi misolida ko‘rish mumkin.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 13-dekabrdagi 824-sonli Qarori.

3. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги 5110900 - Педагогика ва психология бакалавриат

таълим йўналишининг малака талаблари. Тошкент. 2018.08.25. 39 б. (3-4 б.)
4. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. –176 б.
5. Каримов И.А. Юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялаш – мамлакатни барқарор тараққий еттириш ва модернизатсия қилишнинг енг муҳим шарти // Халқаро конференция материаллари. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 184 б.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'-minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. – 488 bet.
9. F.A. Ibroximov. Yangi O'zbekiston jamiyatida huquqshunos-pedagog kadrlarga bo'lgan kompetensiyaviy talablar. Educational Research in Universal Sciences, 2023
10. Ibroximov Farxodjon Anvarjon o'g'li. Yoshlar huquqiy madaniyatini oshirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligi. NamDU Ilmiy Axborotnomasi. 2024/1. 788-794 pp.

AMALIYOTGA YO‘NALTIRILGAN LABORATORIYA ISHLARI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING FIZIK-TEXNIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Dilsuz Omonovna Astanova
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada amaliyotga yo‘naltirilgan laboratoriya ishlari orqali o‘quvchilarning fizik-texnik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Laboratoriya ishlari nafaqat o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, balki ularning amaliy ko‘nikmalari va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Frontal laboratoriya mashg‘ulotlari tashkil etishning usullari, nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: fizika ta’limi, laboratoriya ishlari, frontal metod, texnik qobiliyatlar, amaliy ko‘nikmalar, tajriba, ta’lim samaradorligi.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING PUPILS' PHYSICO-TECHNICAL ABILITIES THROUGH PRACTICE-ORIENTED LABORATORY WORK

ABSTRACT

This article highlights the methodology for developing pupils' physico-technical abilities through practice-oriented laboratory work. Laboratory sessions are aimed not only at reinforcing theoretical knowledge but also at enhancing practical skills and creative abilities. The methods of organizing frontal laboratory sessions and their theoretical and practical aspects are analyzed.

Keywords: physics education, laboratory work, frontal method, technical abilities, practical skills, experiment, educational effectiveness.

KIRISH

Fizika zamonaviy fan va texnologiyaning asosi hisoblanadi. U tabiat hodisalarini o‘rganish va tushunishda muhim rol o‘ynaydi, fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish jarayonlarida asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Shu bois, fizika fanining umumiy o‘rta ta’limdagi o‘rni nafaqat o‘quvchilarning nazariy bilimlarini rivojlantirish, balki ularda texnik qobiliyatlar, amaliy ko‘nikmalar va ijodiy fikrlashni shakllantirishga ham qaratilgan. O‘quvchilarning texnologik bilim va qobiliyatlari, ularning jamiyatdagi faolligi va kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati uchun asos bo‘lib xizmat qiladi [1].

Fizika ta’limining asosiy vazifasi o‘quvchilarga fizik hodisalar, tushunchalar, kattaliklar, modellar, qonunlar va ulchash usullarini o‘rgatish bilan bir qatorda, amaliy tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Shu jarayonda laboratoriya ishlari o‘quvchilarning fizik hodisalarni mustaqil ravishda kuzatishi, tahlil qilishi va ularni amaliyotda qo‘llashiga yordam beradi. Ayniqsa, laboratoriya mashg‘ulotlari davomida frontal metodni qo‘llash o‘quvchilarni tajribalarni birgalikda bajarishga, fikrlash va mantiqiy bog‘liqliklarni anglashga undaydi. Bu esa o‘quvchilarning nafaqat texnik bilimlarini, balki ijtimoiy hamkorlik va jamoa bilan ishlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi [4].

Maktabda fizika fanining asosiy metodik elementlaridan biri sifatida laboratoriya mashg‘ulotlari o‘quvchilarda quyidagi qobiliyatlarni rivojlantiradi:

Amaliy tajribalarni mustaqil bajarish, fizik hodisalarni kuzatish va o‘lchash;

Fizik kattaliklar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish va uni grafik ko‘rinishda ifodalash;

Ijodkorlik, konstruktorlik va texnik yechimlar yaratish.

Laboratoriya mashg‘ulotlari frontal metod yordamida o‘tkazilganda, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida samarali o‘zaro aloqa ta’minlanadi. Bu metod bir vaqtning o‘zida barcha o‘quvchilarni faollashtiradi, ularga qo‘yilgan masalalarni birgalikda hal qilish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, laboratoriya ishlarining texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish bilan o‘tkazilishi o‘quvchilarga mas’uliyatni his qilish va ehtiyotkorlikni o‘rgatadi [2].

Ushbu maqolada amaliyotga yo‘naltirilgan laboratoriya ishlari orqali o‘quvchilarning fizik-texnik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, frontal laboratoriya ishlarini tashkil etish, natijalarni tahlil qilish va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini baholashning samarali usullari yoritiladi. Maqola davomida taqdim etilgan yondashuvlar maktabda fizika fanining o‘qitilish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu maqolada o‘quvchilarning fizik-texnik qobiliyatlarini rivojlantirishda amaliyotga yo‘naltirilgan laboratoriya ishlari samaradorligini tahlil qilish uchun ilmiy-metodik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotda 6-8-sinflar uchun mo‘ljallangan frontal laboratoriya ishlari asosida eksperimentlar tashkil etildi. Quyidagi usullar tadqiqotning asosini tashkil qildi:

1. Frontal laboratoriya ishlari usuli

Frontal laboratoriya ishlari usuli yordamida sinfdagi barcha o‘quvchilar bir xil tajribalarni bajaradilar. Ushbu usul o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga va ularni

jamoaviy faoliyatga jalb qilishga qaratilgan. Frontal usulning afzalliklari:

Har bir o‘quvchiga bir xil imkoniyat yaratib beriladi.

Tajribaning o‘tkazilishi o‘qituvchining doimiy nazorati ostida bo‘ladi.

O‘quvchilar tajribaning bir xil sharoitda o‘tkazilishidan kelib chiqadigan xulosalarni muhokama qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

2. Mustaqil laboratoriya ishlari usuli

Mustaqil laboratoriya ishlari usuli o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini va muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu usulda o‘quvchilarga topshiriqlar berilib, ularni bajarish uchun nazariy bilimlar va yo‘riqnomalar taqdim etiladi. O‘qituvchi kuzatib turadi, lekin jarayonga minimal aralashadi.

3. Tajriba jarayonining bosqichlari

Laboratoriya ishlarini tashkil etishda uchta asosiy bosqich bajarildi:

a) Kirish suhbati:

Laboratoriya mashg‘ulotlari boshlanishidan oldin o‘qituvchi o‘quvchilarga tajribaning nazariy asoslarini tushuntirdi, tajribani o‘tkazish maqsadini aniqlab berdi va texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish muhimligini ta’kidladi. Ushbu bosqichda o‘quvchilarga quyidagilar tushuntirildi:

Fizik kattaliklar va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar.

O‘lchash asboblari va ularning ishlash tartibi.

Tajribadan kutilayotgan natijalar va xulosalar.

b) Eksperimentni tashkil etish:

Eksperiment davomida o‘quvchilar quyidagi amallarni bajardilar:

Tajriba uchun kerakli o‘lchov asboblarini tayyorladilar.

Asboblarni ulash va sozlash bo‘yicha ko‘rsatmalarni bajarib, o‘lchovlarni amalga oshirdilar.

Natijalarni yozib olib, jadvallar va grafiklar shaklida qayd qildilar.

c) Natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish:

Tajriba yakunida o‘quvchilar o‘lchash natijalarini tahlil qildilar va ulardan kelib chiqadigan xulosalarni muhokama qildilar. Grafiklar tuzildi, aniqlangan fizik kattaliklar o‘rtasidagi bog‘lanishlar tahlil qilindi. O‘quvchilar jamoa bo‘lib ishlash orqali o‘z xulosalarini o‘qituvchi bilan muhokama qildilar.

4. Baholash mezonlari

Laboratoriya ishlarining samaradorligi o‘quvchilarning amaliy natijalariga, hisobotlarning aniqligiga va ularda keltirilgan xulosalarga qarab baholandi. Baholash quyidagi ko‘rsatkichlarga asoslandi:

O‘lchashlarning aniqligi.

Hisobotning to‘g‘ri va to‘liq yozilishi.

Tajriba davomida texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.

O‘quvchilarning mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatlari.

5. Metodik yondashuvlar

Tadqiqot davomida quyidagi metodik yondashuvlar qo‘llanildi:

Vizual metod: Fizik jarayonlarni grafik va diagrammalar yordamida tushuntirish.

Ko‘rsatmali metod: Tajriba uchun qo‘llaniladigan o‘lchov asboblari va qurilmalarning ishlash prinsiplarini ko‘rsatib o‘rgatish.

Muammoli o‘qitish: O‘quvchilarga tajriba davomida muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun savollar berish.

Mazkur metodlar sinfdagi barcha o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minladi va tajriba natijalarini to‘g‘ri baholashga yordam berdi. Laboratoriya ishlari o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birga, ularning fizikadan nazariy bilimlarini chuqurlashtirdi.


NATIJALAR

Laboratoriya ishlarini tashkil etish va o‘tkazish jarayonida o‘quvchilarning fizik-texnik qobiliyatlarini rivojlantirish borasida sezilarli ijobiy natijalar kuzatildi. Tadqiqotda qatnashgan 7-8-sinf o‘quvchilari bilan olib borilgan frontal va mustaqil laboratoriya mashg‘ulotlari natijasida quyidagi qobiliyatlar rivojlandi:

Amaliy ko‘nikmalar rivoji:

O‘quvchilar laboratoriya mashg‘ulotlari davomida sodda fizik asboblar va uskunalardan foydalanish bo‘yicha mustaqil ko‘nikmalar hosil qildilar. Masalan:

Dinamometr yordamida kuchlarni o‘lchash tajribasi davomida o‘quvchilar kuchni aniq o‘lchashni va o‘lchashlar orasidagi bog‘liqlikni tahlil qilishni o‘rgandilar (1-rasm).



1-rasm. Dinamometr yordamida kuchlarni o‘lchash

1. Elektr zanjirining kuchlanishini o‘lchash mashg‘ulotida o‘quvchilar o‘lchov asboblarini elektr zanjiriga ulashni va natijalarni jadvallarda qayd qilishni mashq qildilar.

Bu jarayon o‘quvchilarning o‘lchov asboblari bilan ishlashda aniqlikni ta’minlash, texnik xatolardan qochish va natijalarni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirdi.

2. Fizik jarayonlarni tushunish va tahlil qilish qobiliyatlari

Laboratoriya mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilar fizik jarayonlar va hodisalarning mohiyatini chuqur tushunish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Tajribalar davomida quyidagi o‘zgarishlar kuzatildi:

Fizik kattaliklar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish: O‘quvchilar grafik va diagrammalar yordamida jarayonlarni tahlil qildilar. Masalan, **naftalinning erishi va suvning qaynashi jarayonlarini kuzatish** natijalari grafik tarzda aks ettirilib, issiqlik uzatish qonuniyatlari tushuntirildi.

Nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash: O‘quvchilar tajribada olingan natijalarni nazariy qonuniyatlar bilan taqqoslab, o‘z xulosalarini bildirdilar.

Bu qobiliyatlar o‘quvchilarning fizikaviy jarayonlar haqidagi bilimlarini mustahkamlashga va ularda analitik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qildi.

3. Ijodkorlik va konstruktorlik ko‘nikmalarining rivojlanishi

Laboratoriya mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilarning ijodiy va texnik fikrlash qobiliyatlari rivojlandi:

O‘quvchilar oddiy fizik asboblar, masalan, **shayinli tarozi, sim ilgaklar va boshqa moslamalar**ni yasash bo‘yicha topshiriqlarni ijodiy bajarishdi.

Ular oddiy asboblarni tayyorlashda chiroyli dizayn, pishiq tuzilma va funksionallik kabi talablarni hisobga olishga o‘rgandilar.

Bu jarayon o‘quvchilarning texnologik tafakkuri va texnik yechimlar yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berdi.

4. Texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish qobiliyati

Laboratoriya ishlarini tashkil etish jarayonida texnik xavfsizlikka katta e’tibor qaratildi. Natijada:

O‘quvchilar xavfsizlik qoidalariga qat’iy rioya qilishni, ayniqsa elektr qurilmalari bilan ishlashda ehtiyotkor bo‘lishni o‘rgandilar.

Texnika xavfsizligini ta’minlash uchun o‘quvchilar har bir tajriba oldidan asboblarning ishga yaroqliligini tekshirishni odat qildilar. Bu yondashuv o‘quvchilarda mas’uliyat hissini va ehtiyotkorlikni shakllantirdi.

5. Jamoaviy ish va muloqot qobiliyatlari

Frontal laboratoriya mashg‘ulotlari o‘quvchilar o‘rtasida jamoaviy muloqotni kuchaytirdi. Tajribalar davomida:

O‘quvchilar birgalikda muhokama qilish, o‘zaro yordam va mas’uliyatni bo‘lishish orqali jamoaviy ishni tashkil qilishni o‘rgandilar.

Natijalarni jamoa bo‘lib tahlil qilish orqali o‘z fikrlarini aniq ifodalash va boshqalar bilan kelishib ishlash qobiliyatlarini rivojlantirdilar.

6. Grafiklar va natijalarni tahlil qilish ko‘nikmalari

O‘quvchilar tajriba davomida to‘plangan ma’lumotlarni grafik shaklda aks ettirishni o‘rgandilar. Masalan:

Suvning qaynashi jarayonida harorat o‘zgarishi bo‘yicha tuzilgan grafik o‘quvchilarga fizik kattaliklar o‘rtasidagi bog‘lanishni vizual ko‘rish imkonini berdi.

Grafik tahlil o‘quvchilarning matematik savodxonligini va fizik hodisalarni chuqurroq anglashini oshirdi.

7. O‘quvchilar tomonidan qo‘lga kiritilgan xulosalar

Mashg‘ulotlar yakunida o‘quvchilar o‘z hisobotlarida to‘plangan ma’lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilib, quyidagi xulosalarga keldilar:

Fizik kattaliklarni aniq o‘lchash va xatolarni minimallashtirish uchun to‘g‘ri metodlarni tanlash muhim.

Har bir fizik hodisa o‘zining mantiqiy qonuniyatlariga asoslangan va uni amaliyotda kuzatish nazariyani chuqur tushunishga yordam beradi.

Jamoaviy ish natijalari individual ishlarga qaraganda samaraliroq va kengroq yondashuvni talab qiladi.

Ushbu laboratoriya ishlari davomida o‘quvchilarning texnik ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash darajasi va o‘zlashtirish qobiliyatlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Laboratoriya mashg‘ulotlari ularning fizik fanidan o‘rganish jarayonini chuqurlashtirish bilan birga, kelajakda ilmiy va texnologik faoliyatga tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratdi.

MUHOKAMA

O‘quvchilarning fizik-texnik qobiliyatlarini rivojlantirishda amaliyotga yo‘naltirilgan laboratoriya ishlari muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, laboratoriya mashg‘ulotlarini frontal va mustaqil usullarda tashkil qilish o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Muhokamada laboratoriya ishlari davomida kuzatilgan o‘zgarishlar, ularning o‘qitish samaradorligiga ta’siri va o‘quvchilar uchun yaratilgan imkoniyatlar keng tahlil qilinadi.

Frontal laboratoriya ishlari usulining samaradorligi

Frontal laboratoriya ishlari o‘quvchilarning hammasini bir vaqtning o‘zida tajriba jarayoniga jalb qilishi bilan ajralib turadi. Bu yondashuvning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Bilimlarni amaliyotga qo‘llash: O‘quvchilar nazariy bilimlarni tajribada qo‘llash orqali bilimlarini mustahkamladilar. Masalan, elektr zanjirlarini ulash va dinamik kattaliklarni o‘lchash bo‘yicha tajribalar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy shaklda o‘zlashtirishiga yordam berdi.

Hamkorlikni rivojlantirish: Frontal usulda tajribalar o‘tkazish o‘quvchilar o‘rtasida jamoaviy ishlash qobiliyatini oshirdi, bu esa ularga birgalikda muammolarni hal qilishni o‘rgatdi [4].

O‘qituvchi nazorati: Tajribalar o‘qituvchi rahbarligida olib borilishi natijasida o‘quvchilarning xatolarini o‘z vaqtida to‘g‘rilash imkoniyati yaratildi.

2. Mustaqil laboratoriya ishlari usulining ahamiyati

Mustaqil laboratoriya mashg‘ulotlari o‘quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali bo‘ldi. Ushbu usul orqali o‘quvchilar o‘zlashtirgan ko‘nikmalar:

Ijodiy yondashuv: O‘quvchilar oddiy fizik asboblarni yaratish bo‘yicha topshiriqlarni ijodiy bajarib, texnik va konstruktorlik qobiliyatlarini rivojlantirdilar. Masalan, o‘quvchilar o‘z qo‘llari bilan shayinli tarozi yoki oddiy voltmetr tayyorlash orqali texnik fikrlashni mashq qildilar [3].

Mustaqil tahlil qilish qobiliyati: O‘quvchilarning tajriba davomida to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish va natijalardan xulosa chiqarish qobiliyatlari oshdi. Bu ularda mas’uliyat hissini shakllantirdi va muammolarni mustaqil hal qilishga o‘rgatdi.

3. Texnik xavfsizlik qoidalarining o‘rgatilishi

Laboratoriya ishlari davomida texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish o‘quvchilarning mas’uliyatini oshirdi. Ayniqsa, elektr zanjirlarini tuzishda va yuqori harorat bilan ishlashda xavfsizlikni ta’minlash qoidalarini o‘zlashtirish o‘quvchilarning xatti-harakatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Tajriba davomida:

Elektr qurilmalari bilan ishlashda ehtiyotkorlikni kuchaytirish;

O‘qituvchi rahbarligida xavfli tajribalarni amalga oshirish;

Asbob-uskunalarni xavfsiz ishlatish qoidalariga qat’iy rioya qilish odati shakllandi [1].

Bu yondashuv o‘quvchilarda faqat nazariy bilimlarni emas, balki real hayotda xavfsiz ishlash malakalarini ham shakllantirdi.

4. Jamoaviy ish qobiliyatlari rivoji

Frontal laboratoriya ishlari davomida o‘quvchilar birgalikda muammolarni hal qilish, ma’lumotlarni birgalikda tahlil qilish va xulosalar chiqarishni mashq qildilar. Bu jarayonning ijobiy ta’sirlari:

Tajriba natijalarini muhokama qilishda ishtirok etish: O‘quvchilar jamoa bo‘lib ishlash jarayonida o‘zaro muloqot qobiliyatlarini rivojlantirdilar.

Hamkorlikni kuchaytirish: Jamoa bo‘lib ishlash orqali o‘quvchilar o‘zaro yordam ko‘rsatish va birgalikda muvaffaqiyatga erishish muhimligini tushundilar [2].

Bu yondashuv nafaqat texnik bilimlarni, balki ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qildi.

5. Grafiklar va natijalarni vizual tahlil qilishning o‘rni

Grafik tahlil o‘quvchilarning fizik jarayonlarni chuqur tushunishiga yordam berdi. Masalan:

Suvning qaynashi jarayonida harorat o‘zgarishi bo‘yicha tuzilgan grafik o‘quvchilarga issiqlik energiyasi va temperatura o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniq tushunishga yordam berdi.

Naftalinning erish jarayonida o‘quvchilar grafik tahlil orqali issiqlikning vaqtga bog‘liq o‘zgarishini tahlil qilishdi.

Bu ko‘nikma o‘quvchilarning nazariy bilimlarni vizual shaklda tasavvur qilishiga va miqdoriy tahlil qilish malakalarini shakllantirishga xizmat qildi [5].

6. Tadqiqot natijalarining ta’lim samaradorligiga ta’siri

Ushbu laboratoriya mashg‘ulotlari natijasida o‘quvchilarning fizikadan o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshdi. Amaliyotga yo‘naltirilgan laboratoriya ishlari o‘quvchilarning nafaqat fizikadan bilimlarini oshirdi, balki ularning:

Amaliy ko‘nikmalarini mustahkamladi;

Texnik yechimlarni qidirish qobiliyatlarini rivojlantirdi;

Nazariy va amaliyotning o‘zaro bog‘liqligini anglashiga yordam berdi.

Shu sababli, amaliyotga yo‘naltirilgan laboratoriya ishlari maktab ta’limining samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Amaliyotga yo‘naltirilgan laboratoriya ishlari o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faolligini oshirdi va ularning texnik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berdi. Frontal va mustaqil laboratoriya mashg‘ulotlari ta’lim jarayoniga ijodiy va texnologik yondashuvlarni olib kirish uchun samarali metodik vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Bu metodikaning qo‘llanishi nafaqat fizika fanini chuqur o‘zlashtirishga, balki o‘quvchilarning kelgusidagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rishga ham xizmat qiladi [3].

XULOSA

Amaliyotga yo‘naltirilgan laboratoriya ishlari fizika fanini o‘qitish jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilar:

Nazariy va amaliy bilimlarni bir-biriga uyg‘unlashtirishni.

Fizik-texnik qobiliyatlarini rivojlantirishni.

Mas’uliyat, mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuvni o‘zlashtirishni o‘rgandilar.

Mazkur metodika nafaqat o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatini oshiradi, balki ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ham ta’minlaydi. Shu sababli, amaliyotga yo‘naltirilgan laboratoriya ishlari maktab fizika fanini o‘qitishda alohida o‘rin tutadi va ta’lim tizimida keng joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES

1. Karimov, “Fizika darslarida laboratoriya ishlari va ularning samaradorligi”, Toshkent, 2020.
2. M. Sodiqova, “Maktabda fizikaviy tajribalar o‘tkazish usullari”, Andijon, 2019.
3. Ernazarov, A. N. (2024). P5BL texnologiyalari vositasida o‘quvchilarning fizik-texnik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. Academic Research in Educational Sciences, 5(11), 91–99.
4. Smith, J., “Innovative Physics Education”, Cambridge University Press, 2018.
5. Brown, T., “Laboratory Techniques in Physics Teaching”, Springer, 2017.

BASKETBOL VA JAMOAVIYLIK: MUVAFFAQIYATNING KALITI

Muslimakhon Ilkhomjonovna Mukhammadieva
Farg'ona davlat universiteti talabasi
mmuslimaxon328@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada basketbolda jamoaviylikning ahamiyati va uning muvaffaqiyatga erishishdagi roli o'rganiladi. Hamkorlik, muloqot va jamoaviy sa'y-harakatlar o'yinlarda g'alaba qozonishga va shaxsiy rivojlanishga qanday hissa qo'shishi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada basketbol orqali egallanadigan hayotiy ko'nikmalar, jumladan, liderlik, intizom va muammolarni hal qilish kabi qobiliyatlar yoritilgan. Professional o'yinchilar va jamoalar misolida jamoaviy mas'uliyat va sinergiyaning nafaqat sportda, balki kundalik hayotda ham qanchalik muhim ekanligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: basketbol, jamoaviylik, muvaffaqiyat, hamkorlik, liderlik, intizom, sinergiya, muloqot, hayotiy ko'nikmalar, jamoaviy sa'y-harakatlar.

ABSTRACT

This article explores the importance of teamwork in basketball and its role as the key to success. It emphasizes how collaboration, communication, and collective effort contribute to achieving victory in the game and shaping personal growth. Additionally, the article highlights the transferable life skills gained through teamwork in basketball, such as leadership, discipline, and problem-solving. By examining examples from professional players and teams, it sheds light on the value of shared responsibility and synergy in both sports and everyday life.

Keywords: basketball, teamwork, success, collaboration, leadership, discipline, synergy, communication, life skills, collective effort.

KIRISH

Basketbol – dunyo bo'ylab millionlab insonlar sevib shug'ullanadigan va tomosha qiladigan sport turi bo'lib, unda nafaqat jismoniy tayyorgarlik va texnik mahorat, balki kuchli jamoaviy aloqalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sport turida individual mahorat o'yin natijasiga ta'sir qilishi mumkin bo'lsa-da, jamoaning bir butun holda ishlashi, hamkorlik va muvofiqlik o'yinda muvaffaqiyatga erishishning asosiy kalitlaridan biridir.

Basketbol o'yinchilari bir jamoa sifatida ishlash orqali nafaqat texnik mahoratini oshiradi, balki birgalikda strategik qarorlar

qabul qilishni, boshqa jamoa a’zolari bilan muloqot qilishni va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantiradi. Jamoaning har bir a’zosi o‘z rolini tushunib, bir maqsadga yo‘naltirilgan holda o‘ynaganda, natijada sinergiya hosil bo‘ladi. Bu esa basketbolning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

В романе многие персонажи стремятся к роскошной жизни, насекомые изображают положительные и отрицательные человеческие качества – эгоизм, любовь, сострадание, они размышляют о будущем. Каждый персонаж в конце романа приходит к своему пониманию достижения жизненной цели и логического завершения: таракан Серёжа находит свой рай возле того дерева, под которым он родился; Наташа говорит, что хотела совсем не роскошь, а жизнь с любимой; молодой жук-скарабей для себя решает, что станет взрослым и будет учить собирать шар из навоза своим детям в будущем и философски размышлять о мире.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Таким образом, в романах В.Пелевина с помощью аллегоричных образов, метафорического представления реального мира, противопоставления героев задействован смысловой перенос объектов, их взаимосвязь между восприятием героев романов в качестве насекомого и в качестве личности. Все они и их окружающая реальность наделены человеческими качествами и объектами человеческой действительности. Идейно-эстетическая мотивированность использования в этих романах стилистических средств представляет собой сложный и многогранный процесс, который обусловлен не только стилем автора, но и содержательной глубиной произведения. Стилистические средства, их выбор и структура создают эстетическую атмосферу произведения, передают эмоции, подчёркивают идейное своеобразие текста. Анализируя романы и повести В. Пелевина, можно заметить, что стилистические ресурсы русского языка, как метафоры, параллелизм, антитеза, сравнение, аллегория, а также композиция текста функционируют в едином эстетическом плане. Исследование

идейно-эстетической мотивированности стилистических средств не только раскрывает внутреннюю идейно-эстетическую организацию текста, но и углубляет понимание художественного замысла, способствуя более полному восприятию литературного произведения как единого целого.

REFERENCES

1. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык [Электронный ресурс], учебник для вузов. 13-е изд., стер. М.: ФЛИНТА, 2016. 384 с.
2. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс // Теория метафоры: [сборник] / [пер. с анг., фр., нем., исп., польск. яз.; вступ. ст. и сост. Н. Д. Арутюновой; общ. ред. Н. Д. Арутюновой и М. А. Журинской]. М.: Прогресс, 1990. С.5-32
3. Аюпов Т.Р. «Художественные реалии» в прозе Пелевина // Universum: филология и искусствоведение. 2023. №1 (103). С. 31-34.
4. Бубнов, С. А. Словарь литературоведческих терминов. От значения слова к анализу текста: словарь. Саратов: Ай Пи Эр Медиа, 2018. 212 с.
5. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. / Под ред. и с предисл. А. Н. Баранова. М.: Едиториал УРСС, 2004. — 256 с.
6. Пелевин В. Жизнь насекомых. Электронный ресурс: http://pelevin.nov.ru/romans/pe-jisn/index.html. Дата обращения: 20.11.2024
7. Пелевин В. Омон Ра. Электронный ресурс: http://pelevin.nov.ru/romans/pe-omon/index.html. Дата обращения: 20.11.2024
8. Пелевин В. Чапаев и пустота. Электронный ресурс: http://pelevin.nov.ru/romans/pe-pust/2.html. Дата обращения: 20.11.2024
9. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов: пособие для учителя. 3-е изд., испр. и доп. М.: Просвещение, 1985. 399 с.

ATMOSFERA VA ATROF-MUHITGA SALBIY TA'SIR QILUVCHI MODDALARNI NAZORAT QILISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Sh. U. Pulatov
Muxammad al-Xorazmiy nomli TATU t.f.n, dotsent

O. B. Djumaniyzov
Muxammad al-Xorazmiy nomli TATU doktoranti
welcome_1001@mail.ru

ANNOTATSIYA

Zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan davrda turli sohalarda ulkan yutuqlarga erishilmoqda. Ushbu maqolada atmosferaga va atrof-muhitga zararli ifloslantiruvchi moddalarning tarqalishiga olib keladigan ikkita asosiy obyektni boshqarish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan axborot texnologiyalari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: ZigBee, Wi-Fi, Bluetooth, atmosfera, sanoat.

ABSTRACT

In the era of development of modern information technologies, great achievements are achieved in various fields. This article discusses information technologies that can be used to manage two main objects that cause emissions of harmful pollutants into the atmosphere and the environment.

Keywords: ZigBee, Wi-Fi, Bluetooth, atmosphere, industry.


KIRISH

Hozirgi vaqtda ishlab chiqarish jabhalari, sanoat va mashinasozlik korxonalarida atmosfera va atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishi oqibatida turli xil ekologik muommolar yuzaga kelmoqda. Atmosfera va atrof-muhit havosini ifloslantiruvchi moddalarga NO2 (azot dioksidi), SO2 (oltingugurt dioksidi), CO2 (karbonat angidrid) va uchuvchi organik birikmalar kiradi, ular avtotransport vositalarida chiqadigan chiqindilar, elektr stansiyalari, neftni qayta ishlash zavodlari, sanoat va laboratoriya jarayonlari kabi manbalardan kelib chiqadi. Avtotransport vositalaridan esa PM2,5 va PM10 qattiq zarrachalar atrof-muhitga tarqaladi. Ushbu ifloslantiruvchi moddalarning ba'zilari ko'p yillar davomida saqlanib qolishi va suv resurslariga yetguncha tuproqning katta hududlari bo'ylab ko'chib o'tishi mumkin, bu erda ular ekologik yoki inson salomatligiga tahdid solishi mumkin. [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yuqorida nazarda tutilgan zararli moddalarni aniqlash uchun quyidagi IoT (Internet of Thinks) qurilmalaridan keng foydalanishimiz mumkin. Axborot texnologiyalardan simsiz texnologiyalar va tarmoq standartlari bizga axborot almashinuvining juda qulay usulini taqdim etadi. Simsiz aloqa texnologiyalari sohasida jadal rivojlanish kuzatilmoqda va biz WiFi, Bluetooth, mobil aloqa (uyali tarmoqlar), RFID, NFC va WiMAX kabi turli texnologiyalarni ko'rganmiz. WiFi

va Bluetooth kabi boshqa simsiz texnologiyalar tezroq ishlashga, qo'shimcha funktsiyalar qo'shishga, yuqori aniqlikni ta'minlashga va soatlab ishlashga intilmoqda. 1-rasm. Bundan farqli o'laroq, Zigbee texnologiyasi past ma'lumot uzatish tezligi uchun mo'ljallangan, kichik stekga sig'adi, LEDlar yoki termostatlar kabi oddiy qurilmalarni boshqaradi va yillar davomida ishlaydi. Zigbee Texnologiyasi uy avtomatlashtirish, sanoat korxonalari va harbiy kabi yo'nalishlarda keng qo'llanilishi mumkin.




1-rasm. WiFi va Bluetooth

Zigbee texnologiyasi - bu simsiz aloqa standarti bo'lib, u past ma'lumot uzatish tezligi, sensorlar va boshqaruv tarmoqlari kabi qisqa va o'rta masofali simsiz tarmoq qurilmalarida foydalanish uchun protokollar to'plamini belgilaydi. Zigbee texnologiyasining maqsadi past xarajatli, kam quvvatli, batareya bilan ishlaydigan simsiz sensorlar bo'lib, ular doimiy ravishda holatini yangilashga hojat yo'q, shuningdek, uning elektronikasi va radiosi uchun uyqu rejimi yoki kam quvvat rejimiga ruxsat beradi. Zigbee texnologiyasi IEEE 802.15.4 standartiga asoslanadi va Zigbee qurilmalari litsenziyasiz 2,4 gigagertsli ISM diapazoni (ISM – sanoat, ilmiy va tibbiyot) da ishlaydi. 2,4 gigagertsli diapazon butun dunyo bo'ylab tijorat Zigbee qurilmalari uchun keng qo'llanilsa, Xitoy, Evropa va AQShda (va Avstraliyada) mos ravishda 784 MGts, 868 MGts va 915 MGts kabi turli xil chastota diapazonlaridan foydalanadigan qurilmalar mavjud. Biz boshidan Zigbee texnologiyasining past ma'lumotlar tezligi haqida gapirayotganimiz sababli, Zigbee tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ma'lumotlar tezligini ko'rib chiqaylik. Zigbee texnologiyasidagi ma'lumotlar tezligi chastota diapazoniga bog'liq. Misol uchun, 868 MGts diapazoni 20 kbit / s ma'lumotlarni uzatish tezligini qo'llab-quvvatlaydi, keng tarqalgan 2,4 gigagertsli diapazon esa 250 kbit / s gacha ma'lumot uzatish tezligini qo'llab-quvvatlaydi. Zigbee texnologiyasini chuqur o'rganishdan oldin, keling, Zigbee-dan foydalanish mumkin bo'lgan ikkita dasturni ko'rib chiqaylik. Ilovalardan biri bemorning uy sharoitida monitoringi bo'lib, bemor Zigbee qurilmasini kiyadi, u vaqti-vaqti bilan qon bosimi va yurak urishi kabi ma'lumotlarni to'playdi. Keyin ushbu ma'lumotlar simsiz ravishda bemorning uyidagi mahalliy serverga uzatiladi (mahalliy server - kompyuter kabi). Mahalliy server asosiy tahlillarni amalga oshiradi va muhim ma'lumotlar Internet orqali yuboradi. Zigbee-ning yana bir ilovasi - bu binoning tuzilmaviy sog'lig'ini kuzatish. Ushbu dastur zilzilaga moyil hududlarda juda foydali. Qurilish davomida akselerometrlar kabi bir nechta Zigbee asosidagi simsiz sensorlar o'rnatilgan. Simsiz sensorlar tarmog'ini tashkil etuvchi ushbu sensorlar shikastlanish belgilarini

aniqlash va binoning jamoat uchun xavfsiz yoki xavfsiz emasligini baholash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni to'playdi.

Wi-Fi va Bluetooth kabi boshqa simsiz texnologiyalar yuqori tezlikdagi ma'lumotlarni uzatishni ta'minlashga qaratilgan bo'lsada, Zigbee standartida ma'lumotlar tezligi past chunki, Zigbee texnologiyasini ishlab chiqish maqsadi uni simsiz monitor va boshqaruvda ishlatishdir. Bunday ilovalarda ma'lumot miqdori va aloqa chastotasi juda kam. IEEE 802.15.4 tarmog'ida yuqori ma'lumotlar tezligiga erishish mumkin bo'lsa ham, IEEE 802.15.4 asosidagi Zigbee texnologiyasi buni amalga oshirish uchun mo'ljallanmagan (2-rasm).



2-rasm. ZigBee texnologiyasi.

IEEE 802.15.4 IEEE (IEEE 802.15 Ishchi guruhi) tomonidan belgilangan va qo'llab-quvvatlanadigan texnik standart bo'lib, past ma'lumot tezligi WPAN (simsiz shaxsiy tarmoq tarmoqlari) operatsiyalarini belgilaydi. Boshqa tomondan, Zigbee faqat Zigbee Alliance tomonidan ishlab chiqilgan va qo'llab-quvvatlanadigan tarmoq protokoli bo'lib, IEEE 802.15.4 ning jismoniy va MAC qatlamlaridan foydalanadi. MiWi, SNAP, WirelessHART va boshqalar kabi IEEE 802.15.4 ga asoslangan boshqa tarmoq protokollari mavjud.

IEEE 802.11, Bluetooth va Zigbee Texnologiyasini solishtirish Zigbee texnologiyasi bir xil 2,4 gigagertsli diapazonda ishlaydigan boshqa simsiz texnologiyalardan qanday farq qilishini tushunishga yordam beradi. QAYD: IEEE 802.11 da ko'plab protokollar mavjud, ammo biz IEEE 802.11b ni ko'rib chiqamiz, chunki u 2,4 gigagertsli diapazonda ishlaydi. IEEE 802.11 ma'lumotlar uzatish tezligi 11 Mbit / s gacha bo'lishi mumkin va bu protokolning odatiy qo'llanilishi simsiz internet ulanishidir. IEEE 802.11b diapazoni bino ichida 35 metrgacha va tashqarida taxminan 100 metrni tashkil qiladi. Bluetooth texnologiyasi juda mashhur va eng ko'p ishlatiladigan simsiz aloqa texnologiyalaridan biridir. Bluetooth-ning mashhur ilovasi - bu Simsiz naushniklar. Bluetooth ma'lumot uzatish tezligi IEEE 802.11 dan pastroq va 3 Mbit / s dan kamroq. Bluetooth-ning ichki diapazoni 10 metrdan kam.

Zigbee texnologiyasiga kelsak, u 250 kbps ma’lumot uzatish tezligiga ega, bu uchtasi orasida eng past va Zigbeening odatiy diapazoni 10 metrdan 100 metrgacha. 1-jadval.

Texnologiya	Wi-Fi	Bluetooth	ZigBee
Aloqa standarti	IEEE 802.11	IEEE 802.15.4	IEEE 802.15.4
Ma’lumot uzatish tezligi	300+Mbit/s	3 Mbit/s gacha	250 kbit/s
Energiya sarfi	ko’p	kam	kam
Chastota oraliqi	2,4 GGs	2,4 GGs	2,4 GGs
IP-texnologiyalarni qo’llash	+	-	-
Topologiya	yulduz	yulduz	mesh

1-jadval. IEEE 802.11, Bluetooth va Zigbee texnologiyasini solishtirish.

XULOSA

Tahlil etilgan ilmiy va uslubiy adabiyotlardan shu narsa ma’lum bo’ldiki, atmosfera va atrof-muhitga salbiy ta’sir qiluvchi moddalarni nazorat qilishda axborot texnologiyalarni o’rni va ahamiyati judda yuqoriligiga amin bo’ldik. Yuqorida ko’rib chiqilgan bir nechta texnologiyalardan atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalarni chiqrayotgan yirik sanoat korxonalarida ZigBee texnologiyasini qo’llagan holda nazorat qilishni amalga oshirsak bir qancha yutuqlarga erishishimiz mumkin. Buning natijasida borish noqulay bo’lgan hududlardagi sanoat korxonalarni muntazam ravishda nazorat qilish imkoniyati yaratiladi.

REFERENCES

1. Djumaniyazov O.B, “AVTOTRANSPORT VOSITALARI VA SANOAT KORXONALARNING ATMOSFERAGA TA’SIRI”, Avtomatlashtirish tizimlari va yashil energetika muammolari: ishlab chiqarishda, fan va ta’limda respublika ilmiy -amaliy anjumani, Qarshi-2024. 313-bet.
2. Djumaniyazov O.B, “AVTOTRANSPORT VA SANOAT KORXONALARINING INSON SALOMATLILIGIGA TA’SIRI.”, Zamonaviy axborot, kommunikatsiya texnologiyalari va at-ta’lim tatbiqi muammolari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani, Samarqand-2024, 54-bet.
3. Kuziyevich.Sh.I, Djumaniyazov O, “Optik tolali aloqa liniyalarida elekrotermik degradasiya muommolari” Axborot texnologiyalarining zamonaviy muammolari hamda ularning yechimlari ILMIY-AMALIY ANJUMANI MAQOLALAR TO’PLAMI. 2020,510-bet.
4. Kuziyevich.Sh.I, Djumaniyazov O, “Nur tolada optik yo’qotish mexanizmlari”, Ijodkor-o’qituvchi ilmiy uslubiy jurnal,Toshkent-2021,2-son,194-bet.
5. Matyokubov.O’.K, Muradov.M.M, Djumaniyazov O.B, “Aloqa liniyalarida qo‘llaniladigan optik tolalarning ahamiyati va tahlili”, Axborot texnologiyalarining zamonaviy muammolari hamda ularning yechimlari ILMIY-AMALIY ANJUMANI MAQOLALAR TO’PLAMI. Toshkent-2022.8-bet.

ТАЪЛИМГА АКМЕОЛОГИК ЁНДАШУВ

Р. К. Хайтметов
Чирчиқ давлат педагогика университети

АННОТАЦИЯ

Таълимга акмеологик ёндашув, педагогик усуллар ва таълим технологиялари, шунингдек, таълимда ташкилий бошқарув таълим муассасасини ривожланишига имконият яратиши мумкин. Ушбу силжиш таълим сифатининг яхшиланишига, таълим жараёнида барча фаолият олиб борувшиларнинг когнитив мотивларининг жонланишига ва ўрганишга бўлган ички мойиллигининг кучайишига олиб келади. Мазкур мақолада таълим тизимида таълим олувчиларнинг ўз ўзини ривожлантириши механизмлари унинг методлари илмий асосланган ҳолда кўриб чиқилади.

Калит сўзлар: Акмеология, таълим, юксалиш, шахс, потенциал ва реаллик, илмий ва амалий муаммолар, вақтни режалаштириш, илмий фаолият, акмеологик ёндашув, акмеологик компетенция, профессионаллик даражаси.

КИРИШ

Акмеологик ёндашувни ҳар томонлама тушуниш А.А.Бодалев томонидан ифодаланган бўлиб, уни илмий ва амалий муаммоларни ўрганиш ва ҳал қилишга қаратилган илмий билимларнинг тамойиллари ва усуллари мажмуасини ўз ичига олган асосий асос сифатида белгилайди.

Акмеологик ёндашувнинг асосий йўналиши инсон етуклигининг энг юқори чўққисига эришиш ва ривожланишига таъсир қилувчи жараёнларни ифодалаш ҳисобланади. Инсоннинг бу чўққига эришадими ёки йўқми, унинг ижтимоий соҳада ўз ишининг устаси ёки профессионал сифатида ўрнашичига боғлиқ ҳисобланади. Акмеологик ёндашув контекстида етуклик инсоннинг бошқаларга ғамхўрлик кўрсатишга мойиллиги, шахсий масъулият ҳисси, билимлардан самарали ва тўғри фойдаланиш, конструктив қарорлар қабул қилиш қобилияти билан тавсифланади. Етук шахс жамиятда унинг ижтимоий аҳамиятга эга фазилатларини англаш билан ҳам ажралиб туради. Ушбу фазилатларни англаш ҳаётнинг бошқа жабҳаларида, масалан, шахслараро муносабатлардаги муваффақиятсизликларнинг олдини олиши мумкин. Акмеологик ёндашув асосини ташкил этувчи динамика доимий шахсий ривожланиш, билимга интилиш ва ўзини ўзи англаш муҳимлигини таъкидлайди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Бугунги кунда ижодий ва касбий ўзини ўзи ривожлантиришга эришиш муаммосини ҳал қилиш турли усуллар билан таклиф қилинмоқда. Ушбу усуллар кенг қамровли ёки танлаб қўлланилиши мумкин, жумладан:

- Вақтни режалаштириш ва бошқариш тизимини жорий этиш;
- Жисмоний шахслар, хусусан, ишчилар томонидан касбий етикага риоя қилиш;
- Касбий имтиёзларни танлашда ҳам, шахслараро муносабатларда ҳам намоён бўладиган фаол ҳаётий позицияни ривожлантириш;
- Шахсий маданият даражасини ошириш;
- Шахсий имтиёзлар, хусусиятлар ва қобилиятларни ташқи шароитлар билан мос равишда оптималлаштириш;
- Шахснинг ривожланиш жараёнига таъсир этувчи ижтимоий – демографик омилларни ҳисобга олиш;
- Жисмоний шахслар томонидан уларнинг касбий ривожланиш йўли учун масъулият даражасини ҳис қилиш.

Илмий муҳитни ривожлантириш нуқтаи назаридан: Шахснинг ҳозирги касбий мақомини ва вақт ўтиши билан эришган ютуқлари динамикасини баҳолаш учун мўлжалланган диагностик модулларини яратиш орқали ривожланиш.

Н.В.Козлова акмеологиянинг қуйидаги асосий тамойилларини белгилаган, улардан биринчиси фаолият мавзуси:

1. ***Фаолият субъекти тамойили***. Ушбу тамойил умумий ва профессионал акмеология ўртасида кўприк бўлиб хизмат қилади. Акмеологияда шахс фаоллик, мулоқот ва идрок каби жиҳатларни қамраб олувши ҳаётнинг кенгроқ контекстида доимий ҳаракат қилувчи ва ривожланувши сифатида қаралган. Бу нуқтаи назар одамларнинг ушбу тизимларнинг барча мезонларига мувофиқ фаолият олиб бориши зарурлигини таъкидлайди. Акмеология шахс концепциясини қатъиятлилик, прогрессив ривожланиш, психологик ва ижтимоий-касбий фазилатлар нуқтаи назаридан кўриб шиқади. Ушбу доирада шахсий тараққиёт босқичлари ва функционал-фаолият сифати, шу жумладан касбий ривожланиш ва шаклланиш, шунингдек, қарама-қаршиликлардан келиб шиқадиган ва ижобий таъсир кўрсатишни талаб қиладиган тасодифий ва вазиятли муаммоларга жавоб бериш нуқтаи назаридан баҳоланади. Фаолият субъектининг тамойили ижодий қобилиятларни ривожлантириш ва ўз фаолиятининг максимал ижтимоий ва касбий самарадорлигини таъминлаш учун ҳал қилувчи аҳамиятгаъ эга.

К.А.Абулханова-Славская ўз фаолиятини амалга оширишда субъектнинг мавжуд имкониятлари, интилишлари, эҳтиёж-мотивацион соҳаси ўртасидаги зиддиятларни ҳал қилишга эътибор қаратган ҳолда ушбу тамойилни мослаштирди.

Субъектнинг роли – бу қарама-қаршиликни ҳозирги вақтда ва унинг фаол ва касбий ҳаёти давомида ҳал қилиш, ташаббускорлик ва масъулият еса ушбу тамойил доирасида белгиланган асосий шахсий фазилатлардан бири ҳисобланади. Шунингек, олимлардан А.А. Деркаш фаолиятнинг қуйидаги турли компонентларини, жумладан:

Гностик компонент	Гностик компоненти яъни билим тизимидан фойдаланиш ва уни самарали қўллаш қобилиятини ўз ичига олади;
Дизайн компонент	Дизайн компоненти қўшимша натижаларни осонлаштирадиган ва оптималлаштирадиган мақсадли ҳаракатларга асосланган;
Конструктив компонент	Конструктив компонент акмеологиянинг моҳиятини акс еттиради, конструктивликни фаолият тизимини оптималлаштириш ва субъектнинг фаолият усули сифатида таъкидлайди ва шу билан тартибсизлик элементларини истисно қилади;
Ташкилий компонент	Ташкилий компонент “фаолият” ва “ташкилот” тучуншаларини мувофиқлаштиришни ўз ичига олади, бу фаолиятнинг барча таркибий бўлинмаларини оптималлаштириш зарурлигини ва фаолиятни ташкил этишнинг бачоратлиъ, аналитик усули ва уни амалий амалга ошириш ўртасидаги муносабатларни таъкидлайди.
Коммуникатив компонент	Коммуникатив компонент фаолиятнинг ўзаро таъсир орқали содир бўлишини таъкидлайди.

2. ***Ҳаётийлик тамойили***. Акмеологияда тарихий, назарий ва мантиқий жиҳатларни қамраб олган ҳаётийлик тамойили муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Чунки, у инсон ижоди, унинг оптималлиги ва ҳали амалга оширилмаган салоҳияти ўртасидаги мураккаб ўзаро таъсирни ўрганиши таъкидланган. Шунингдек, ҳаётийлик тамойили муваффақиятга эришиш ва янги интилишлар учун катализатор бўлиб, у ўз-ўзини такомиллаштириш ва ўзини намоён қилиш якуний натижалар сифатида емас, балки инсон йўлидаги абадий жараёнлар сифатида таъкидланган. Бундан ташқари, К.А.Абулханова-Славскаянинг ҳаёт стратегияси концепцияси ушбу тамойилга асосланиб, шахсни унинг ҳаёти

траекториясини бошқарадиган марказий куч сифатида белгиланган.

3. ***Шахснинг ҳаёт субъекти сифатидаги тамойили*** шуни кўрсатадики, одамлар муносабатлар ва ҳаётни қўллаб-қувватлашнинг ўзига хос воситалари каби қўшимша элементларни барпо этиш орқали ўз ҳаёт шароитларини бошқаради ва шакллантиради. Биз ушбу тамойил мисолида К.А.Абулханова-Славская таъкидлаган ҳаёт истиқболи концепцияси келиб чиқишини кўришимиз мумкин. Булар қуйидагиша:

- когнитив (келажак учун назарий ва онгли режалар);
- шахсий (мотивация ва амалга оширилмаган шахсий режалар);
- ҳаётий (касбда профессионал муваффақиятга эришган шахснинг ижтимоий имкониятлари) истиқболларини қамраб олади.

4. ***Потенциал ва реаллик*** (ёки имплитсит (*яширин*) ва експлитсит (*аниқ*) тамойили. Ушбу тамойил тадқиқотчи олим С.Л.Рубинштейн томонидан шакллантирилган потенциал ва реаллик тамойили шахсни мавжуд маълумотлар билан чекланмаган истиқболли тизим сифатида қарайди, булар қуйидагича:

- шахснинг ўзи ёки акмеологик восита ёрдамида келажакда амалга оширилиши мумкин бўлган истиқболлари бўйича услубий нуқтаси;
- амалий диагностика нуқтаси, бу диагностик усуллари сифатида шахснинг ўз имкониятларини ошириш йўлларини топиш учун шахснинг сифатларини акс эттириш жараёнида иштирок этадиган лойиҳавий (проекцияловши) усуллардан фойдаланиш билан ажралиб туради.

5. ***Қайта алоқа тамойили (феедбаск)*** Бинсон ҳаётнинг турли соҳаларида ўзини намоён қилиш жараёнида меҳнат натижалари, ўз-ўзини ўзгартириш ва ижтимоий баҳолар каби аниқ натижаларни ўз ичига олади. Фикр-мулоҳазаларнинг бу шакли инсоннинг танлаган йўлини ва унинг тўғри еканлигини тасдиқловши муҳим қўллаб-қувватлаш тизимига айланиши мумкинъ.

Дастлаб, етук шахсни ривожлантиришга қаратилган таълим акмеологияси (Н.В. Кузмина, А.М. Зимишев), касбий ривожланиш (Н.В.Кузмина, А.А.Деркаш, А.А.Реан), спорт (И.П.Волков), ва мактаблар (В.Н.Максимова, Н.Е.Кузнетсов, Н.М.Полетаева ва бошқалар) каби алоҳида тармоқларга эга бўлган фанлараро соҳага айланган.

Шундай қилиб, акмеологик ёндашувнинг моҳияти ҳар томонлама ўрганишни амалга ошириш учун унинг индивидуал, шахсий ва субъект-фаоллик фазилатлари барча муносабатлар бирлигида ўрганилган етуклик даврида унинг яхлитлигини тиклашдан иборат. Шунинг учун, талабаларнинг касбий ўзини ўзи англаш муаммосига акмеологик ёндашув сифатида мутахассислик ёки кейинги

касбий йўлни танлаш остонасида бўлажак мутахассисларнинг шахсий хусусиятларини шакллантириш учун қўлланиладиган ёндашув тушинилади.

Табиийки, дунё ҳақида ўзининг ғоялари тизимига эга, ўз ҳаётий қадриятлар тизимини ишлаб чиққан, етук, ижтимоий жиҳатдан ривожланган одамгина ўз хусусиятларини, бошқа одамларга ўхшашлигини ва улардан фарқини, унинг ўзига хослигини ва фаолиятидаги ижодий ифодасини чуқур англай олиши мумкин. Бироқ бу жараённинг шаклланиши акмеологик компетенцияни ривожлантирувчи имкониятлар мавжуд бўлган олий таълим муассасаларда амалга оширилиши зарур.

НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМА

Юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, акмеологик компетенциянинг мазмун ва моҳияти келажакда мутахассисни касбий ўзини ўзи ривожлантиришга йўналтиришдан иборат ҳисобланади. Касбий ўзини ўзи ривожлантириш бу касбий маҳорат даражасини ошириш ва ташқи ижтимоий талабларга, касбий фаолият шартларига ва шахсий ривожланиш дастурига мувофиқ касбий аҳамиятга эга бўлган фазилатларни ривожлантиришнинг онгли, йўналтирилган жараёни ҳисобланади. Бу жараённинг марказида шахсий профессионаллик даражаси (“*Мен ҳақиқий профессионалман*”) ва унинг тасаввур қилинган (*моделлаштирилган*) ҳолати (“*Мен идеал профессионалман*”) ўртасидаги ички зиддиятларни доимо енгиб ўтишнинг психологик механизми ўрин эгаллаган. Онгда шахсий ва унинг “*мен*”и, жамоат фикрига бўлган талаблари ўзаро боғлиқ саналади. Шунингдек, “*мен-концепция*” ва идеал “*мен*” ғояси ўртасидаги номувофиқлик одамларни шахсий ривожланишга, шу жумладан, касбий ўсишга ундайди. Шу муносабат билан биз “*мен концепция*”га таъсирини акмеологик компетенция механизми сифатида кўриб чиқишимиз мумкин.

Юқорида санаб ўтилган фазилатлар касбий аҳамиятга эга бўлиб, уларни ривожлантирмасдан туриб, ҳақиқий мутахассис бўлиб етишиш мураккаб саналади. Бироқ, бу профессионал ривожланиш, касбий бурч ва масъулият ҳисси профессионал зина пояга кўтарилишни рағбатлантирадиган механизмлардан бири ҳисобланади.

Маълумки, ҳар қандай киши ўз фаолияти соҳасида компетенцияли мутахассис сифатида танилишга интилади. Унинг ички мақсади ва истаги: “*мен*” бугунги кунда “*мен*”дан яхшироқ бўлган профессионал – кечаги мутахассис. Бу ҳар доим профессионализм поғонасини янги, янада юқори поғонага кўтарадиган одамни астойдил касбга ҳаракатлантиради. Шахс фаолиятидаги ривожланиш ва

эришилган муваффақият унинг шахсий ва субъектив-фаол (биринчи навбатда, касбий) ривожланиши билан боғлиқ саналади. Шундай қилиб, мотивация ва амбицияга асосланган хатти-ҳаракатлар ҳамда мақсадлар асосидаги қадриятлар жуда муҳим ўрин эгаллайди.

Талабаларда касбий бурч, касбий масъулият туйғуларини шакллантириш биз учун жуда муҳим, чунки айнан ана шу шахсий фазилатлар мутахассисга ёмон хислатлар шаклланишига имконият яратмаслиги мумкин. Унинг турли томонларини ривожлантириш файласуфлар, психологлар , ўқитувчилар ва бошқа билим соҳалари вакиллари томонидан амалга оширилган. Ушбу муаммони ўрганган файласуфлар олдин ижтимоий моҳиятига тўхталиб, унинг объектив ва субъектив томонларини ажратиб кўрсатган ҳолда ушбу икки жиҳатнинг ўзаро боғлиқлиги одамларнинг ташқи объектив мажбуриятлари ва уларни бажариш учун объектив эҳтиёжлар билан белгиланишини таъкидлаган; бурчнинг тартибга солувчи ва шакллантирувчи функциялари мавжудлигини таъкидлаган, ижтимоий талабларни ички эътиқодга, шахсий эҳтиёжга, инсон фаолияти мотивига айлантиришнинг асосий механизмларини аниқлаган.

Шахсни ҳаракатлантирувчи мотивларни ўрганиб, А.Маслоу шахснинг ўзини ўзи англаш назариясини ишлаб чиққан. А.Маслоунинг сўзларига кўра, мотивлар тизимидаги ҳар қандай оддий одамда “салоҳият, қобилият, истеъдодларни доимий равишда янгилаб туриш, вазифаларнини амалга ошириш, аниқроқ билиш ва ўз шахсини қабул қилиш” сифатида белгиланган ўзини ўзи намоён этиш истаги акс эттирилган. Муаллиф шахс асосий эҳтиёжларининг қуйидаги бешта гуруҳини ажратиб кўрсатади: 1) физиологик; 2) хавфсизлик эҳтиёжлари; 3) алоқа ва севгига бўлган эҳтиёж; 4) тан олиш, ҳурмат қилиш ва ўзини ҳурмат қилиш эҳтиёжлари; 5) ўзини ўзи намоён қилиш зарурати. Ўқитувчининг шахсий ва касбий фаолияти унга турли касбий фаолиятларни самарали бажариш, талабаларни ўқитиш ва ривожлантириш технологиясини муваффақиятли ўзлаштиришга имконият яратиб бериши мумкин.

ХУЛОСА

Бизнинг фикримизча, бўлажак ўқитувчи учун ҳал қилувчи омиллар қуйидагилар: очиқлик, ҳамдардлик, ижодкорлик, ғайрат, ўзини тута билиш, мақсадга эришишдаги қатъиятлилик, касбий меҳнатсеварлик, касбга интилиш, касбий бурч ҳисси, инсонийлик, адолат, педагогик хушмуомалалик, ақлий барқарорлик ва бошқалардан иборат. Шундай қилиб, касбий ўзини ўзи фаоллаштириш бўлажак

ўқитувчи акмеологик компетенциясининг механизми бўлиб, унинг ўз профессионал хусусиятларини тан олиш, ўқитиш жараёнида ва кейинги касбий фаолиятида фаол намоён бўлишга қаратилади.

REFERENCES

1. Бодалёв, А.А. Акмеология развития человека: феноменология, закономерности, механизмы // ЧиО. 2007. №3-4. УРЛ:
2. Козлова Н.В. Психолого-акмеологишеское знание в системе вйисшего профессио-налного образования [Псйшо-акмеологисал кноwледге ин тҳе сйстем оф ҳигҳер едусатион] / Н.В. Козлова. – Томск : ТПУ, 2007. – 151 п.
3. Абулханова-Славская К.А. Инсон ҳаёти диалектикаси: фалсафий, услубий ва ўзига хос-илмий ёндашувларнинг шахс муаммосига нисбати / К.А. Абулханова-Славская. М.: Мйсл, 1997.- 224 п.
4. Деркач А. Акмеологические основы развития профессионала. – М.: МПСИ, НПО МОДЕК, 2004;
5. Темир М.М. Акмеологический подход к развитию профессионального самоопределения старшеклассников. Екатеринбург. Выпускная квалификационная работа. 2018.
6. Искандеров, Н.Ф., Пономарева, Е.А. Дидактические основы эксплицитной и имплицитной методики обучения // ИСОМ. 2015. №5-2 УРЛ:

CHET TILLARINI O‘RGATISH VA UNDAGI SAMARALI METODLARDAN FOYDALANISHNING O‘RNI

Munavvarxon Sharobiddinovna Maraimova
Termiz davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Roman-german tillar kafedrasi fransuz tili o'qituvchisi
E-mail: minavvarsharobidinovna@gmail.com

G‘anisher Nurali o‘g‘li Ma’murov
Termiz davlat Unversiteti Xorijiy filologiya fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish: fransuz tili yo'nalishi 403-guruh 4-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Chet tili o'qitish metodlari qiyosiy, aralash va to'g'ri metod turlaridir. Metodning grammatika-tarjima turi nuqtayi nazaridan olib qaralganda, chet tili umumta'limiy maqsadda o'rganilgan. Turli grammatik mashqlar til o'rganuvchininng mantiqiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida o'rgatilgan. Yuqoridagi metod orqali chet tilini o'qitish to'g'risida sistemali grammatik nazariya bosh ahamiyat kasb etadi.

Kalit so`zlar: grammatik shakl, muloqot vositasi, metod, xorijiy til, matn, tarjima.

ABSTRACT

Methods of teaching a foreign language are comparative, mixed and direct methods. From the point of view of the grammatical-translation type of method, a foreign language is studied for general educational purposes. Various grammatical exercises are taught in order to develop the logical potential of the language learner. A systematic grammatical theory of teaching a foreign language through the above method is of primary importance.

Keywords: grammatical form, means of communication, method, foreign language, text, translation.

KIRISH

Kishilik jamiyatidagi muhim narsalardan biri til o'rganishdir.aytganda, til o‘rganish jarayoni insonning tafakkur rivojlanishi va muloqot qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Har bir tilning o‘rganilishi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va bu jarayon insonning aqliy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir qiladi. Ona tili insonning mantiqiy fikrlashi, dunyoqarashi va o‘zini ifoda etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu til orqali inson nafaqat o‘z xalqining madaniyati va tarixini anglaydi, balki boshqa tillarni o‘zlashtirish uchun asos yaratadi. Ona tilining leksik va grammatik

xususiyatlarini chuqur bilish boshqa tillarni o‘rganishni osonlashtiradi.

Ikkinchi til, odatda, yaqin mintaqadagi xalqlarning tili bo‘lib, qo‘shni davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Xorijiy til esa global miqyosda kommunikatsiya vositasi sifatida ahamiyat kasb etadi. Xususan, ingliz tili xalqaro biznes, ilm-fan va texnologiyalar tiliga aylangan. Bu tillarni o‘rganish shaxsning global dunyo bilan integratsiyalashuvi uchun imkoniyat yaratadi. Tilni o‘rgatishda tabiiy va sun'iy muhitning ta'siri katta. Ona tilini o‘rganish tabiiy muhitda, oilada va jamoatchilik orasida shakllansa, xorijiy tillar odatda sun’iy muhitda, ya’ni darslar va maxsus mashg‘ulotlarda o‘zlashtiriladi. Bunda fonetika, leksika va grammatikaga xos xususiyatlarni solishtirish va farqlarni anglash muhim rol o‘ynaydi.

METODOLOGIYA

Har uchala tilni mukammal o‘zlashtirish uchun tizimli yondashuv zarur. Ona tilida asosiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ikkinchi til orqali mintaqaviy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, xorijiy til orqali esa global kommunikatsiya imkoniyatlarini kengaytirish insonning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi. Shu sababli, til o‘rganish nafaqat shaxsiy taraqqiyot, balki jamiyatning umumiy rivojlanishi uchun ham muhimdir

Asosan, chet tilini o'qitish metodlari to'rt nom bilan ma'lum va shu bilan birga mashhurhamdir. Ular: to'g'ri, aralash va qiyosiy hamda tarjima metodlaridir. Masalan, tarjima metodi: ular asosan ikki xil turda bo'lib, grammatika-tarjima va matn-tarjima metodlaridir.

Grammatika-tarjima metodi nazariyasidan, chet tillari umumta'limiy maqsadda o'zlashtirilgan. Turlicha Grammatik mashqlar til o'rganuvchining aqliy va mantiqiy tafakkurini shakllantirish maqsadida bajarilgan. Grammatik-tarjima metodi orqali chet tilini o'rgatish mazmunida sistemali Grammatik nazariya bosh ahamiyatga egadir.

Metodning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Til o'rgatish yozma nutqqa asoslangan.

2. O'rganish predmeti qilib grammatika olingan, leksika ham unga tobe ravishda tanlangan. Grammatik mashqlar bajarish asosiy ish usuli bo'lgan.

3. Grammatik qoida yod olingan va qoidalar asosida gap tuzish tavsiya etilgan.

4. Grammatik shakl va so'zlarning ma'nosi so zma-so'z tarjima vositasida ochib berilgan.

5. So'zma-so'z tarjima va yodlash yo'li bilan til materiali o'zlashtirilgan. 6. So'zlarni kontekstdan tashqarida, yakka-yakka yodlash bilan chegaralangan.

Matn-tarjima metodining asosiy funksiyasi ham umumiy ta'lim berishga yo'naltirilgan, biroq maqsad grammatika-tarjima usulidagidek mantiqiy tafakkurni rivojlantirish emas, balki til o'rganuvchining umuman aqliy salohiyati rivojiga yo'naltirilgan.

Matn-tarjima metodi funksiyalari:

1. Yozma nutq asosida chet tili o'qitilgan.
2. Bog'lanma va ko'pincha asl nusxadagi matn olingan.
3. Matnni o'rganishda analiz uchun ko'p kuch va vaqt sarflangan.
4. So'z va grammatik shakl ma'nosini yoritish usuli-tarjima.
5. Til materiali tarjima va yod olish orqali o'rganilgan. Tarjimasiz metod. Bu metod ikki turga bo'linadi: tabiiy va to'g'ri metodlar.

Masalan, tabiiy metodning asosiy vazifasidan biri, ona tilini egallash sharoitiga chet tilini o'rganish mos bo'lishi joiz. Metodning yana bir maqsadi chet tilida so'zlashishni o'rgatish va shu bilan birga kundalik hayotiy mavzular haqida gapira olishni o'rganish orqali o'qish hamda yozishni o'zlashtira olishga imkoniyat yaratiladi. Shu yo'sinda metod namoyondalarining ijodiy faoliyatlarini yaqqol misol qilib keltira olamiz.

M.Berlis metodi. U 1878-yilda AQSHda chet tili o'qitish kurslarini tashkil qilgan va darslilar yaratgan chet tillari o'qitish metodikasi tarixida atoqli metodist olim. M.Berlis sistemasining asosiy metodik qarashlarini u yozgan darsliklarning muqaddima qismidan o'qib olish mumkin:

1. Til materialini idrok etish immanent tarzda, tarjimasiz bo'lishi kerak. So'z bilan narsa fikran bevosita bog'lanishi, ona tili so'zlari bilan aloqa o'rnatilmasligi hamda grammatik tushunchalarni kontekstda, ong ishtirokisiz ona tili bilan qiyoslamasdan idrok etish.
2. Muallimga taqlid qilish orqali til materialini mustahkamlash.
3. Chet tili o'rganishda ona tili ishtirok etmasligi.
4. Til hodisalarini ko'rgazmalar yordamda ma'nosini yoritish.
5. Yangi materialni avvalo og'zaki taqdim etish.
6. O'quvchilarni nutq faoliyatiga undovchi muallim va o'quvchi juft nutqi (suhbati) boshqalaridan ma'qul ish uslubidir.

F. Guen metodi. Fransuz metodisti bo'lgan F.Guen tabiiy metod vakillaridan biri bo'lib, u chet tilini o'z ona tilini o'rgangandek amaliyotda o'rganish tarafdori bo'lgan. U leksikaning mavzular (uydagi hayot, maktab, jamiyat, tabiat) bo'yicha tasnifini metodikada ilk bor kashf qilgan.

Quyidagi qonun qoidalar asosida chet tilini o‘rganishni tatbiq etgan:

1. Odam o'z ehtiyojidan kelib chiqib til o'rganishi.
2. O'rgatish birligi qilib so'z emas, gap tanlanishi.
3. Til o'rgatishda og'zaki nutq birlamchi hisoblanishi.

NATIJALAR

F.Guen o'z tadqiqotlaridan kelib chiqib chet tili lug'at boyligini asosiy uch turga ajratadi: obektiv, subektiv hamda ifodali

tushunchalarni bildiruvchi so'zlar. Obektiv guruhga dunyoga cid va tabiatga tegishli tushunchalar-hayot, jamiyat kabi so'zlar misol bo'la oladi. Subektiv guruhga esa inson ruhiga taaluqli tushunchalarni ifodalovchi so'zlar: tushunmoq, xohlamoq, kulmoq kabilar misol bo'lishi mumkin va uchinchi toifaga esa obektiv va subektiv so'zlarni birlashtiruvchi tushunchalar: chiroy, do'stlik va h.k. Aralash metodlar. Chet tillarini o'qitish tobora avj olib borar ekan, ommaviy maktablarda tajribasiz (tabiiy va to'g'ri) metodlardan kutilgan samara bo'maganligi tufayli avvalgi qo'llangan metodlardan omuxta ya'ni gibrid qilib dars o'tish (til o'rgatish) vujudga keldi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytib joizki metodlarning xilma-xilligi va ularning maqsadga muvofiq qo‘llanilishi chet tili o‘rganish jarayonini samaraliroq qilishga yordam beradi. Turli usullar yordamida talabalar yoki til o‘rganuvchilar o‘z ehtiyoj va qobiliyatlariga mos yondashuvni tanlash imkoniga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, psixologik va ijtimoiy omillarni hisobga olish, hamda ilg‘or texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Chet tili o‘rganish nafaqat yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash jarayoni, balki shaxsning har tomonlama rivojlanishiga olib keluvchi muhim bosqichdir. To‘g‘ri yondashuvlar va o‘quv metodlaridan foydalanish esa bu jarayonning muvaffaqiyatli bo‘lishiga asos bo‘ladi.

REFERENCES

1. Axmedova S. R. Ta'lim jarayonlarini integratsiyalash samaradorligi Fan va ta'lim. 2021.-2-jild. -N:. 9. S. 369-373.
2. Axmedova S.R. va Masofaviy ta'lim va uning chet tilidagi o'qitish o'rni Fan va ta'lim. -2021.-2-jild.-N: 10.S. 608-612.
3. Ingliz tilini o'qitish metodikasi: Pedagogika institutlari va pedagogika universitetlari uchun darslik. Chet tillari fakultetlari. L.: Ta'lim, 1975.-312 p.
4. 6. Axmedova S. R. va boshqalar Ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari jarayonlari. Fan va ta'lim. 2021.-2-jild. -N: 10.-S. 492-496.
5. Fakhriddinovna, K. B. (2023). The current state of teaching english to technical students, methodological approaches: the current state of teaching english to technical students, methodological approaches.
6. Karshieva, B. F. (2022). Methodology and pedagogical practice-test result of organization of pedagogical training. Экономика и социум, (12-1 (103)), 135-138.

EFFECT OF BIOLOGICAL MATERIALS ON THE ENVIRONMENT

Hanif Ascaryar Muhammad
Department of Biology, Faculty of Education, Faryab University, Faryab Afghanistan

Naim Rahmani Mohammad
Department of Civil, Faculty of Engineering, Faryab University, Faryab Afghanistan

Saifullah Inanch
Department of Geology and Mines, Faculty of Engineering, Faryab University, Faryab Afghanistan

ABSTRACT

Developing countries are experiencing advancements in industrial, agricultural, and other sectors, alongside a rapid increase in population, placing the environment in the spotlight. Attention to environmental cleanliness and the removal of existing pollution has become one of the most important contemporary issues. Given that the world has been advancing in biotechnology in recent years, it seems rational to utilize biological materials technology as a strong support in implementing major environmental programs in the country. The term "environment" refers to everything that surrounds us and is related to human life, including water, soil, air, and more. The environment plays a crucial role in the lives of individuals in society, and attention to its health and efforts to improve its hygiene and restore it from pollution are of great importance.

Nowadays, many people around the world live in polluted environments due to natural disasters, war, and inadequate infrastructure. On average, 5,500 children die daily from diseases caused by consuming contaminated water and breathing polluted air. All researchers strive to reduce these problems using modern methods and new technologies. One of these methods is bioremediation, the importance of which has become evident shortly after its emergence.

Keywords: Biological, Microbial, Microorganisms, Environment, pollution,

INTRODUCTION

The environment is considered a crucial factor in human life, as people have a close relationship with their surrounding environment throughout their lives. The environment is divided into three main components: water, air, and soil.

Water, being one of the essential elements of life on Earth, is vital for human survival. On average, a person drinks 2 to 2.5 liters of water daily, and water constitutes 58 to 66 percent of an individual's body weight. Breathing is also a crucial factor for human life. The human body requires oxygen to carry out all its functions, and living without clean air would be impossible.

Air pollution is the presence of one or more pollutants in the ambient air to an extent and duration that alters its quality in a way that is harmful to human health, animals, plants, or structures. The major sources of air pollution include natural and anthropogenic sources. Natural sources often exist without direct human intervention, while anthropogenic sources are human-made and the pollution they cause results from human activities.

Soil is another primary resource for providing human food. It significantly impacts human life, and soil pollution leads to many diseases in plants and animals, thereby threatening human health.

Examining how water, air, and soil become polluted, as well as addressing existing pollution, is considered crucial and is a fundamental aspect of human life.

BIOLOGICAL POLLUTION

An introduction to biological pollution

Biological materials refer to substances that carry living organisms such as bacteria, viruses, fungi, algae, and others.

These tiny yet impactful organisms enter our surrounding environment through the use of biological fertilizers, herbicides, pesticides, human waste, and the skin and tissues of dead animals, among other sources, and they cause diseases and infections in people.

Since the conditions are favorable for the rapid growth and multiplication of these microscopic organisms, the initial stages of biological contamination are not easily detectable. Examining and identifying biological contamination in water, air, and soil is considered very important and is one of the methods for improving and maintaining the quality of health within a community.

WATER POLLUTION

Water is one of the most abundant and stable compounds found in nature and is known as the largest chemical solvent. It is a fundamental component of body tissues and is recognized as the most essential factor for life, without which physiological functions cannot occur. Water constitutes about 70% of the human body's weight and covers approximately 71% of the Earth's surface in the form of oceans, lakes, and rivers. The average

annual rainfall worldwide is 76.2 centimeters, with about 97.3% of water in the oceans, 2.1% in polar ice, and 0.6% in lakes, rivers, and underground sources.

In principle, the total amount of water on Earth remains constant, but it is not distributed uniformly. Some regions have sufficient water resources, while others have insufficient amounts to meet the needs of human populations. Consequently, natural waters are processed through various operations to make them suitable for different uses. Although a community often obtains its water from a single source, when a single source is inadequate to meet the needs of the population, water is drawn from multiple sources, such as surface and groundwater. Surface water is sourced from large rivers or lakes, and even water from a small river can be suitable for use; in such cases, the water is collected and stored using a dam.

Surface waters vary in quality and contain microorganisms, dissolved and suspended organic and inorganic materials. Additionally, these waters may have undesirable color, taste, and odor. Surface waters are exposed to contamination from urban sewage, industrial waste, agricultural runoff, and animal and plant residues. The temperature of surface waters changes in accordance with the local climate.

Although groundwater is also subject to contamination, it is generally clearer and colorless, with lower amounts of organic materials and microorganisms compared to surface water, as the water undergoes some degree of filtration as it passes through different soil layers. In contrast, mineral content (such as calcium and magnesium ions), which is a primary cause of water hardness, may be higher in groundwater than in nearby surface waters. Generally, the quantity and type of minerals in groundwater reflect the mineral characteristics of the region's geology. Over time, the quality of groundwater tends to be more stable compared to surface water quality.

he temperature of groundwater is generally more stable than that of surface water and is usually close to the annual average air temperature of the region, whereas surface water temperatures vary with the local climate. Groundwater may only need microbial treatment to be suitable for general use. Depending on the type of contamination, certain substances that cause complaints among consumers should be removed from the water or reduced to levels that are tolerable for consumers and do not have adverse effects on their health.

Surface waters generally require more treatment compared to groundwater to be made suitable for public use. Engineering and environmental sciences emerged in the latter half of the 19th century due to findings that indicated water could be a cause of certain dangerous diseases affecting humans. Engineers involved in water supply sought ways to ensure that the provided water was safe and palatable.

Fundamental measures included coagulation and filtration in the late 19th century, followed by disinfection with chlorine in the early 20th century. Despite these fundamental measures, waterborne diseases are still prevalent in both developed and developing countries and remain a major cause of illness.

Additionally, some waterborne diseases in developed countries are now caused by organisms that previously did not pose a concern. New pathogens have emerged for which there is no historical basis to design preventive measures, and in some cases, there are no suitable methods for tracking these pathogens.

Given the fundamental importance of pathogenic microorganisms associated with water, engineers and scientists involved in water and sewage treatment need to be aware of pathogens transmitted through fecal or food sources.

The water test to find indicator organisms is a practical method for determining microbial contamination in water. Indicator organisms are used to indicate contamination and possess the following characteristics:

1. They are always present in contaminated waters.
2. They are not seen in uncontaminated waters.
3. They survive in water with more pathogenic factors.
4. They are easily identifiable.

All forms belong to a group of bacteria that exhibit all the above characteristics and are used as indicators of microbial contamination in water. Typically, coliform bacteria are not pathogenic themselves but are often found alongside infectious microbes in water. Moreover, the number of coliform bacteria is much higher than pathogenic microbes, and they often survive longer in water. Coliform bacteria are easily identified in laboratory tests.

According to a rule, if coliform bacteria are present in water, it is assumed that pathogenic microbes may also be present, indicating the water is microbiologically unsafe. Conversely, if coliform bacteria are absent, the opposite of the above rule holds true, meaning pathogenic microbes are not present in the water.

Many waterborne diseases are well-known for causing gastrointestinal illnesses because they result from ingesting water or consuming food contaminated with human feces. This contamination can be prevented through proper hygiene practices. These diseases are prevalent in developing countries where people lack the economic means for prevention or have insufficient knowledge about disease transmission methods. Many biological agents are responsible for gastroenteritis, a term used for diseases caused by water or food where the causative agent is unidentified. Gastroenteritis leads to stomach and intestinal inflammation, followed by diarrhea and severe discomfort. Pathogens associated with water and food cover a wide range of microorganisms from

viral particles to multicellular organisms. Since all microorganisms are particulate, they can be removed from water through processes like sedimentation or filtration. Some pathogens, particularly bacteria, can be eliminated using disinfectants such as chlorine or ozone. Only a small number of viruses capable of causing infections in humans are found in water. Poliovirus was previously considered a significant waterborne disease agent due to its prolonged lifespan in water, but its primary mode of transmission is undoubtedly direct human contact.

Currently, a concerning waterborne virus causing infectious hepatitis is the Hepatitis A virus. The most significant issue arises from consuming hard-shelled seafood like shellfish, which can concentrate viral particles from fecally contaminated water through filtration.

An important epidemic of infectious hepatitis that infected nearly 30,000 people occurred in Delhi, India, in 1955, with the cause being the entry of sewage discharged into the river into the inlet of the water treatment plant. Apparently, the disinfection process used was not sufficient to eliminate the viruses, resulting in a widespread epidemic. Viruses like Cox sackie, Norwalk, Rotavirus, and Echo are agents of gastroenteritis and diarrhea. Contaminated food, shellfish, or water can transmit these viruses. Waterborne bacterial pathogens fall into the group of purple bacteria, which belong to the gamma subdivision of enteric organisms. This group consists of relatively homogeneous Gram-negative bacteria that lack the ability to produce spores, are aerobic, have rod shapes, are oxidase-negative fermenters of glucose, and produce a variety of end products. Another new disease caused by protozoa is Cryptosporidium, which has been the cause of the largest waterborne epidemic to date.

Cryptosporidium is a common intestinal pathogen in dairy cattle, and its sudden presence in water sources is partly due to spring rains and runoff from agricultural lands, increasing the organism's load in water treatment systems. Meanwhile, coagulation-filtration processes were not optimizing effectively, and the removal of turbidity was not feasible. The cysts of this organism are resistant to chlorination, requiring removal through coagulation and filtration methods. As a result, some water treatment processes are undergoing changes to enhance the removal of turbidity through filtration.

Table 1. Some pathogens that are transmitted by water

Disease	Cause of Disease	Source Organism	Symptoms of the Disease
Gastroenteritis	Various pathogens	Animal or human feces	Acute diarrhea and vomiting

typhoid	Salmonella typhoza	Human feces	Intestinal swelling, enlarged spleen, high body temperature, fatal
Microbial diarrhea	Shigella	Human feces	Diarrhea, rarely fatal
cholera	Vibriocoma	Human feces	Vomiting, severe diarrhea, rapid loss of body water and minerals, high mortality
XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak qadimiy mahalliy bug'doy navlari o'zida biotik va abiotik streslarga chidamlilik genini saqlaydi. Bu genlar har bir navning o'zi o'sgan hududga

moslashuvchaligi bo'lib ularning molekulyar darajada o'rganib yangi zamonaviy navlarga donor sifatida jo'natilsa hozirgi zamon talablariga muvofiq navlarni ishlab chiqish mumkin. Bu o'z navbatida butun dunyodagi oziq ovqat yetishmovchiligi muammosini malum bir darajada oldini olgan bo'ladi. Bundan tashqari yumshoq bug'doyning respublika sharotiga moslashgan yangi navlar yaratishda qimmatli donor sifatida ishlatish mumkin ekanligidan dalolat beradi.

REFERENCES

1. Turaev O, Norbekov S, Erjigitov D , Bakhadirov U, Tursunmurodova B, Ernazarova D, Dolimov A, Turaqulov X , Kushanov F// SABRAO J. Breed. Genet, 55 (5) 1463-1475, 2023.
2. Archana, P. An analytical study of Indian agriculture crop production and export with reference to wheat. Adv. Manag. 2019,12, 1.
3. http://www.schweizerbauern.ch 2022-yil 13-iyulda Wayback
4. Сергей Васильев. Расшифрован гигантский геном пшеницы. Naked Science (17 августа 2018). Дата обращения: 8 октября 2018. Архивировано 8 октября 2018 года
5. Dixon J, Braun H-J, Kosina P, Crouch J (2009). Wheat Facts and Futures 2009. Mexico, D.F.: CIMMYT. pp 1-95. Pardey PG (2011). A strategic look at global wheat production, productivity and R & D developments. Czech J. Genet. Plant Breed. 47 (Special Issue): S6-S19)
6. Amangeldikyzy Z, Galymbek K, Gabdulov M, Amangeldi N, Irkitbay A, Suleimanova G,Sapakhova Z (2023). Identification of new sources of wheat stem rust resistance genes. Res. Crop. 24(1): 15-27 (2023). doi: 10.31830/2348-7542.2023.ROC-892.
7. Ruziyev F, Djabbarov I, Olimjonova S, Niyozov U, Urokov S, Ishankulova D, Bakhadirov U. 2023. Grain quality indicators and their phenotypic variability of ancient varieties of Triticum aestivum in the mountains of Uzbekistan. Biodiversitas 24: 5995-6001
8. S.Baboev H.Muminjanov Kh.Turakulov A.Buronov I.Mamatkulov E.Koc I.Ozturk S.Dreisigacker S.Shepelev A.Morgounov. Diversity and sustainability of wheat landraces grown in Uzbekistan; May 2021 Agronomy for Sustainable Development.
9. Buronov, A., Amanov, B., Muminov Kh, T. N., & Umirova, L. (2023). Polymorphism and inheritance of gliadin proteins in wheat landraces of Uzbekistan. SABRAO J. Breed. Genet, 55(3), 671-680.
10. Бабоев, С. К., Холлиев, О. Э. Ў., Буронов, А. К., Маткаримов, Ф. И., & Бузуруков, С. С. (2021). Ясмиқнинг майда уруғли халкаро элита кўчатзори ўсимликларида

ҳосилдорлик белгилари таҳлили. Academic research in educational sciences,2(2), 843-851.
11. Buronov, A. K., Xamroev, R. J. (2022). Inheritance and variability of gliadin proteins in F1-F2 hybrids of landrace wheat varieties in Uzbekistan. Modern Biol. Genet,1(1), 64-70.
12. Бўронов, А. Қ. Ў. (2022). Юмшоқ буғдойнинг маҳаллий навларини глиадин оқсиллари ёрдамида полиморфизмини аниқлаш. Academic research in educational sciences, 3(1), 401-407.
13. Буронов, А. Қ. Ў., Зияев, З. М., Холлиев, О. Э. Ў., & Файзуллаев, А. З. Ў. (2021). Кузги ва дуварак буғдой навларининг юқори авлод линияларида миқдорий ва сифат белгилари бўйича кластер таҳлил. Academic research in educational sciences, 2(6), 1481-1488.
14. Kalandarovic, B. A., & Kimsanbaevic, B. S. (2018). Polymorphizm of gliadin proteins among wheat landraces of Uzbekistan. European science review, 2(11-12), 15-17.
15. Buronov, A. Q., Bozorov, T. A., Baboev, S. K., & Murzikova, I. (2014). O'zbekistondagi qadimiy bug'doy navlarining qimmatli xo'jaik belgilarining statastik tasnifi. O'zb. biol. jurnali, (5), 51-54.
16. Бабоев СК, Усманов РМ, Буранов А, Моргунов АИ. Изучение стародавных местных сортов пшеницы Узбекистана. Докл. АНРУз. 2013;1:82-3.
17. Буранов, А. К., Бабоев, С. К., Мелиев, С. К., Моргунов, А. И., & Муминжонов, Х. (2014). Характеристика стародавних местных сортов пшеницы Узбекистана по качеству зерна и запасным белкам. The Way of Science, 20.
18. Amanov A.A., Gafurova L.A., Nurbekov A.I. Zernovodstvo v Uzbekistane. Jurnal Koordinatsionnogo Soveta po zernovodstvu. – Tashkent, 2005.-B.11.

XX ASRNING SO‘NGGI CHORAGI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA OLOV TIMSOLI IFODASI

Dilfuza Erkinovna Tajibaeva
Namangan davlat universiteti Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
tojiboyeva.dilfuza66@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada XX asrning so‘nggi choragi o‘zbek she’riyatining iqtidorli vakillaridan Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Usmon Azimlar ijodida qo‘llanilgan ramziy- majoziy timsollar tahlilga tortilgan va shoirlar ijodida qo‘llanilgan olov poetik timsoli tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek she’riyati, ramziy- majoziy timsollar, poetik timsol, badiiy idrok, mavzu, g‘oya, ifoda uslubi, shoir iste’dodi, emotsionallik.

ABSTRACT

In the article, the symbolic and figurative symbols used in the work of Shavkat Rahman, Khurshid Davron, Usman Azimlar, among the talented representatives of Uzbek poetry of the last quarter of the 20th century, were analyzed, and the poetic symbol of fire used in the works of poets was studied.

Keywords: Uzbek poetry, symbolic and figurative symbols, poetic symbol, artistic perception, theme, idea, style of expression, poet's talent, emotionality.

KIRISH

XX asr o‘zbek she’riyatining iqtidorli vakillaridan Shavkat Rahmon, Xurshid Davron va Usmon Azimlar bir davrda yashab ijod qilganligi, mavzu, g‘oyalar mushtarakligiga qaramay, aynan badiiy idrok va ifoda uslubining o‘ziga xosligi bilan o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega. Bu o‘ziga xosliklar shoir iste’dodi tabiati va ularning rang-barang timsollari orqali namoyon bo‘ladi. Ayniqsa she’riyatda qo‘llanilgan ramziy-majoziy timsollar ma’no anglatishda, she’rga ta’sirchanlik, yuksak emotsionallik baxsh etishda muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma’lumki, badiiy timsol orqali san’at va adabiyotda inson tasvirlanadi. Yoki, boshqacha qilib aytganda, badiiy shaklda aks ettirilgan manzara va xarakterlar san’at va adabiyotda poetik timsol vositasida gavdalantiriladi. Timsol tushunchasi o‘z xarakteri, mazmuniga ko‘ra murakkab va keng qamrovlidir. Bugungi adabiyotshunoslikda “badiiy obraz”, “lirik

obraz”, “poetik obraz”, “poetik timsol” kabi atamalar deyarli bir ma’noda qo‘llanilmoqda. Shuningdek, hozirgi o‘zbek she’riyatidagi poetik timsol turlari: lirik xarakter, tarixiy xarakter, tabiat obrazi, ramziy-majoziy (metaforik, allegorik) timsol tushunchalari haqida so‘z yuritilganda ham, asosan, poetik timsol mohiyatidan kelib chiqib nazariy xulosalar qilinmoqda. Bunday nazariy qarashlar asosida A.A.Potebnya nazarda tutgan badiiy ijodning uch omili: tashqi shakl, ichki shakl va mazmun hamda ularning poetik ifodasi bo‘lgan so‘z, obraz – timsol, g‘oya – niyat yotadi. [3;175-176]. G.N.Pospelov nazariy poetika ob’ektini belgilar ekan, asarning tarkibiy jihatlari sifatida obraz, syujet va epitet (va umuman, tasvir vositalari) ning shunchaki mavjudligini emas, balki ularning o‘zaro aloqadorligi va bu aloqadorlikning asar strukturasida aks etishini, ya’ni uslubni vujudga keltirishdagi ishtirokini o‘rganishni tavsiya etgan. [2;42-43]. Shuning uchun ham biz poetik uslub haqida so‘z yuritishdan avval uning namoyon bo‘lish shakli – timsol ekanini ta’kidlaymiz va uslubning o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi omil sifatida poetik timsol tushunchasiga yuzlanamiz.

Poetik timsol, bu ijodkor tomonidan akslantirilgan voqea-hodisalar, insoniy xususiyatlarning asardagi ko‘rinishi va ifodasidir. Poetik timsol orqali biz tabiat va jamiyatdagi mavhum tushunchalarni jonli tasavvur qila olamiz. Ijodkor badiiy adabiyotning tasvir ob’ekti bo‘lgan inson hayotini umumlashtirib tasvirlaydi va o‘zining badiiy-estetik ideallari, xayollari, o‘y-kechinmalari va tafakkuridagi shuurni poetik timsollar yordamida yuzaga chiqaradi. Badiiy asarda borliqdagi voqea-hodisalarni jonlantirish, o‘xshatish, qiyoslash va ulardagi insonga xos xususiyatlarning namoyon bo‘lishida ham poetik timsol muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur maqolada mavzuni yoritishda tarixiy-qiyosiy va tipologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR:

Shavkat Rahmon ijodida ramziy ma’noda qo‘llangan poetik timsol turlarining ham o‘ziga xos ifodasi kuzatiladi. Shoir bir she’rida olov poetik timsolini yaratadi va o‘zining ichki his-tuyg‘ularini oshkor etadi:

Lablarimni kuydirib o‘pdim,
oxir senga yetishdim, olov!
Titrayotgan kuchli qo‘limda
Hilpiraydi bamisli yalov . [6;60].

Ma’lumki, olov yonayotgan pallada hech narsani ayab o‘tirmaydi. Borliq, tabiat, hayvonot dunyosi, insoniyatni ham bir zumda qulga aylantirishi hech gap emas. Olov – kuch, qudrat ramzi. She’riyatda olov timsoli kurash, kuch-qudrat ramzi sifatida qo‘llaniladi. Yuqoridagi she’rda shoir qalbining ichki tug‘yonlari kurashi va yurakning olov bo‘lib

yonish darajasiga yetishi kuzatiladi. Shoirning ichki “men”i olov bilan o‘zini kuchli, qudratli sezadi.

Yolqiningda qayragin, isit
qishki osmon kabi ko‘zimni.
Senday qo‘hna isyonkor bilan
qudratliroq sezdim o‘zimni . [6;60].

Xurshid Davron ijodida o‘tmish voqea-hodisalariga yuksak ma’naviy nazar bilan boqish, boshqalardan ham mana shu e’tiborni talab qilish kabi munosabatlar borki, bu har qanday insonni millat tarixini himoya qilishga, milliy qadriyatlarni e’zozlashga undaydi. U moziy sahifalarini bilmay turib bugunni anglab bo‘lmasligini yaxshi tushunadi. Shunday tuyg‘u va kechinmalari uni Samarqanddagi ozodlik haykali qoshiga olib keladi:

Xazonlar...
Xazonlar boqqa hukmron,
Tillarang bo‘yoqqa bo‘yalgan olam.
Ozodlik haykalin qoshiga bu on
Ezgu o‘ylarimni olib keldim men. [5;66].

Shoirning tashrifi oltin kuz fasliga to‘g‘ri kelyapti. Chunki shoir tasvirlaganidek Tillarang bo‘yoqqa bo‘yalgan olam da, ya’ni kuzda inson xayollari uzoqlarga ketadi. U mana shu daqiqalarda ozodlik uchun, erk uchun kurashgan botirlar ruhi bilan suhbatlashishni maqsad qiladi:

Bu yerda ko‘ksimga iztirob bitgan
Qissalar toshini irg‘itib, tinib,
Shu qutlug‘ zaminning qo‘ynida yotgan
Botirlar ruhini chorlayman yonib . [5;66].

Shoir ko‘z o‘ngida birdan tarix, o‘tmish qayta jonlanadi , undagi erlarning ovozlari qulog‘iga eshitiladi. Yerdan yaproqlarga qonlar sachraydi va endi shoir xayolida: Daraxtlar erk deya kurashgan lashkar, Qo‘liga inqilob bergan yalovdek, Daraxtlar erk deya navqiron askar, Yongan, ozodlikning qalbi-olovdek. Daraxtlardagi holat lirik qahramon qalbini ham zabt etadi. Uning yuragiga o‘t bo‘lib kiradi.. Bu o‘t, olov shoir qarshisida guvillab yonadi , uning uchqunlarini shamol ko‘kka uchiradi.Bu misralarda shoir daraxtlarni erk deya kurashgan lashkarga erk deya talpinayotgan navqiron askarga o‘xshatadi. Shoir ramziy timsolning yetakchi xususiyatidan foydalanadi. Ramz obrazli ifodaning bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Ozodlik! Tilingda hayqiriq bo‘lgan So‘zni kim o‘chirar qabrtoshlardan?! Ozodlik! Uyqusiz ko‘zingga to‘lgan Terday achchiq, qonli va sho‘r yoshlardan. – deya, ozodlikning o‘chmas, mangu qiyofasini gavdalantiradi. Shoir bobolarini ozodlik qarshisidagina tiz

cho‘kib o‘lganligini, faqat ozodlikkagina tiz bukkanini ta’kidlaydi Haykal ostida yonib turgan olovni shoir olov ozodlik undirgan giyoh deb ataydi. Bu olovning taftidan yurak yonadi, olov yurak shakliga kiradi.

She’rdagi daraxt, giyoh, olov kabi ramziy timsollarning yana bir muhim vazifasi shuki, u lirik qahramon ruhiyatida tug‘yon uyg‘otadi. Shoir xayollari ozodlik uchun kurash olib borgan, hayotini erk uchun tikkan o‘tmishdagi ota-boblarining ruhidan forig‘ bo‘la olmaydi. She’rda daraxt, giyoh, olov kurash ramzi sifatida kelayotgani ravshan.

Usmon Azim she’riyatida ham “olov” poetik timsolini kuzatish mumkin. Shoirning “Bir daraxtning so‘nggi qo‘shig‘i” nomli she’rida daraxt poetik timsoli orqali hayotda omadi kelishmagan, o‘z yashash tarzidan ko‘ngli to‘lmagan, omadsiz kishining majoziy timsoli ifodalanadi. Uning “sumbati egri”, “gullari“ qalblarni ham hayajonga solmaganligi, mevasiga ham hech kim mehr qo‘ymaganligini kuylaydi va “Alvido!” deya vidolashadi:

Alvido! Men endi maqsadga yetdim,
Bog‘doshlar, so‘ng yo‘lga kuzating, qani...
Men o‘tin bo‘lgani uzlatga ketdim,
Men ketdim, do‘stlarim, olov bo‘lgani! [4;17].

O‘z hayotidan hech ko‘ngli to‘lmay yashagan daraxt bu dunyoni tark etmoqda. U bog‘doshlari bilan xayrlashib, so‘nggi yo‘lga kuzatib qo‘yishlarini so‘ramoqda. Daraxt kesildi, u endi o‘tin bo‘lishini biladi. Ammo o‘tin bo‘lishdan qo‘rqmasdan, aksincha, bu holatni xursandchilik bilan qarshi olmoqda. Chunki u o‘tindan olovga aylanishini yaxshi biladi. Endi uning keyingi hayoti butunlay boshqacha tarzda davom etishi mumkin. Endi katta kuch-qudratga ega olov yonib yashaydi.

Usmon Azimning yana bir she’ri “Yonayotgan odam” deb nomlanadi. She’rda ko‘chada ketib borayotgan, qalbi olov bo‘lib yonayotgan “gulxan odam” timsoli gavdalanadi. U ko‘chada paydo bo‘lishi bilan gulxanning tafti, ya’ni issiq havo odamlar yuziga urila boshlaydi. Buni sezgan kimdir darrov o‘zini chetga oladi, kimdir qo‘lini yuziga to‘sadi, kimdir teskari qaraydi. Bir qiz bo‘lsa dugonasini soyaga tortadi, issiqdan yuzimizga dog‘ tushmasin, – deydi. Yana kimdir o‘zini avtobusga ursa, kimdir magazinga qarab yo‘lini buradi. Odamlar: Axir, hozirgina tinch edi olam, Qaydan paydo bo‘ldi, bu gulxan odam? Qanday yaxshi edi bugungi havo! Shaharga lovullab chiqdi bir balo...” deya g‘azablanishadi. “Yonayotgan odam” esa gurkirab ko‘chadan mag‘rur boraveradi:

Mangu olov kabi gurkirab, bardam,
Ko‘chadan borardi yonayotgan odam.
O‘tga topshirgandi bardoshin, kuchin,
Hatto aytolmasdi:

– Axir, siz uchun... [4;125].

She’rda isyonkorlikning ramziy va majoziy ko‘rinishlari ifodalanadi. Bu qahramon haqiqat va ezgulik yo‘lida o‘zini qurbon qilishga, xalq manfaatlarini himoya qilishga, adolatsizlik va har qanday razilliklarga qarshi kurashishga tayyor isyonkor xarakterning majoziy ko‘rinishidir. Olov timsoli esa ramziylik kasb etadi. Chunki olov va olov rang – kuch-g‘ayrat, shijoat, yoshlik, jasurlik ramzi. Ko‘chada barchani lol qoldirib yonib borayotgan inson esa ijtimoiy hayotdagi muammolarga befarq bo‘lmagan, jasur, mard kishi timsoli. Bu olov bo‘lib yonayotgan shaxs o‘z dardi bilan emas, balki xalq dardi bilan gulxan bo‘lib yonmoqda. Shuning uchun ham shoir Axir, kim yonibdi o‘z dardi bilan? Yonsa ham bo‘lmagay bunday sha’n gulxan, – deydi. Olov bo‘lib yonish yashamoqlikni, o‘zini anglagan holda olg‘a qarab intilmoqlikni bildiradi. Har qanday tuzumda ham xalq fidoyilari mavjud bo‘lgan. Bunday kishilar xalq uchun, uning istiqboli uchun jonini fido qilganlar. Usmon Azim fantaziyasidagi mana shu poetik timsol o‘zligini millati uchun, Vatanining istiqboli uchun bag‘ishlagan isyonkor kishi timsolidir. Muallif ham butun xalqqa murojaat etib: Xaloyiq, yaqin bor, angrayma beshon! Sen ham unga qo‘shil! Olov bo‘lgin! Yon! deya hayqiradi. Shoir yaratgan bu timsol xarakteridagi bunday isyonkorlik, jasurlik, mardlik hamma insonlarda ham bo‘lishi mumkin emas. Lekin ana shu bitta inson boshqalarni ham loqaydlikdan, befarqlikdan qutqara oladi. O‘zining xatti-harakatlari bilan mudroq qalblarni uyg‘otadi.

XULOSALAR:

Xurshid Davron zamon muammolarini betakror ramziy-majoziy timsollar orqali ifodalar ekan, daraxt, giyoh, olov kabi ramziy timsollarning yana bir muhim vazifasi shuki, u lirik qahramon ruhiyatida tug‘yon uyg‘otadi. Shoir xayollari ozodlik uchun kurash olib borgan, hayotini erk uchun tikkan o‘tmishdagi ota-boblarining ruhidan forig‘ bo‘la olmaydi. She’rda daraxt, giyoh, olov timsollari kurash ramzi sifatida ramziylik kasb etadi. Bunday ramziy-majoziy timsollar vositasida shoirning tuyg‘ulari o‘zgacha lavha, o‘zgacha manzara yaratadi

Shavkat Rahmon zamon bilan hamnafas ijodkor. Jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy tomonlariga chuqur nigoh bilan nazar tashlaydigan, hayot zaminida paydo bo‘ladigan illatlarni, muammolarni to‘g‘ri anglab yetadigan, loqaydlikdan nafratlanadigan, tuyg‘ulari samimiy va yashovchan shoir. Shoir she’riyatida olov timsoli kurash, kuch-qudrat ramzi sifatida qo‘llaniladi. Yuqoridagi she’rda shoir qalbining ichki tug‘yonlari kurashi va yurakning olov bo‘lib yonish darajasiga yetishi kuzatiladi.

Usmon Azim she’rlarida isyonkorlikning ramziy va majoziy ko‘rinishlari ifodalanadi. Shoir ifodasidagi olov bo‘lib

yonayotgan shaxs o‘z dardi bilan emas, balki xalq dardi bilan gulxan bo‘lib yonib borayotgan shaxsdir. Bu qahramon haqiqat va ezgulik yo‘lida o‘zini qurbon qilishga, xalq manfaatlarini himoya qilishga, adolatsizlik va har qanday razilliklarga qarshi kurashishga tayyor isyonkor xarakterning majoziy ko‘rinishidir.

REFERENCES

1. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 20.
2. Поспелов Г.Н. Вопросы методологии и поэтики. – Москва: Изд-во МГУ, 1983. – С. 42-43.
3. Потебня А.А. Эстетика и поэтика – Москва: Наука, 1976. – С. 175-176.
4. Усмон Азим. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1995. – 432 б.
5. Хуршид Даврон. Тўмариснинг кўзлари. – Тошкент: Ёш гаврдия, 1984. – 112 б.
6. Шавкат Раҳмон. Абадият оралаб. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2012. – 384 б.
7. Шавкат Раҳмон. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1997. 384 б.
8. Тажибаева Д. Шавкат Раҳмон шеъриятида рамзий ва мажозий тимсоллар. Ўзбек филологияси ва уни ўқитишнинг долзарб муаммолари. – Фарғона, 2013,135 - 136 – б.
9. Тажибаева Д. Interpretations of the symvol “fire” in modern uzbek poetry. nternational Scientific Journal Theoretical & Applied Science p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) Year: 2019 Issue: 11 Volume: 79 Published: 18.11.2019 P.74-76
10. Тажибаева Д. XX асрнинг сўнгги чораги ўзбек шеъриятида поэтик услуб масаласи. Монография. –Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2019.

SHAHAR TURAR-JOY HUDUDLARIDA AVTOTURARGOHLARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA YECHIMLAR

Rasul Maxmadaliyevich Achildiyev
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

ANNOTASIYA

Shaharlarda shaxsiy avtomashinalar sonining ortib borishi shahar ko‘chalari va yo‘llarida tirbandlik muammosini keltirib chiqardi, buning natijasida mavjud turar-joy binolari hovlilari va unga tutash hududlarda to‘xtash joylari yetishmasligiga olib keldi. Avtotransport vositalarining yo'l tarmog'ining qatnov qismida tartibsiz to'xtash omillaridan biri bu hovli va unga tutash hududlarning yuklanishidir. Ushbu maqolada olib borilgan tadqiqotlar natijasida mualliflar shahar aglomeratsiyasining turar-joy hududida to'xtash joylarini rivojlantirish uchun tizimli echimlarni taklif qilmoqdalar.

Kalit so‘zlar: avtotransport, shahar, avtoturargoh, yo‘l-transport infratuzil-masi, atrof-muhitning ifloslanishi.

KIRISH

Zamonaviy shaharlarning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi avtotransport vositalari bilan chambar-chas bog'liq bo'lib, bu avtomobillar sonining ko'payishiga olib keladi va inson hayotining barcha jabhalariga o’z ta'siri o’tkazadi.

Jumladan: hararkat xavfsizligi, inson salomatligi, xizmat ko'rsatish, dam olish, kundalik ish faoliyati va boshqalar.

Shaharlarda aholining o’z shaxsiy transport vositalaridan foydalanish sonining ko'payishi nafaqat uning barcha ishtirokchilari uchun harakat xavfsizligi muammosini keltirib chiqaradi, balki transport vositalari uchun ham to'xtash joylarining yetarli darajada ta’minlanmaganligi bilan ham tavsiflanadi.

Shaharlarda avtotransport vositalari soni tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda, transport infratuzilmasining rivojlanishi esa orqada qolmoqda. Shu sababli, ko'p qavatli turar-joy binolari hovlilarida ham vaqtincha yoki mavsumiy saqlash (turishi) uchun mo’ljallangan avtoturargohlar alohida yoki qo’shib qurilgan, yerusti, yerosti yoki birlashgan bino, inshoot (bino yoki inshootning qismi) yohud maxsus ochiq maydonda to'xtash joylarining yetarli darajada emasligi muammosi mavjud. Shu boisdan, yo'l yoqasi va piyodalar uchun yo’laklar, yashil maydonlar zonasi va o'yin maydonchalari shahar aholisi uchun transport vositalarining to'xtash joylariga ya’ni yangi "qoidalar" ning amalga oshirilishiga aylandi va yo'l tarmog'ida avtomashinalarning tartibsiz to'xtab turishiga olib keldi, bu esa transport va piyodalar harakatini murakkablashtiradi,

maxsus transport vositalarini kechikishlarni oshiradi, muammoli transport holatini yaratadi. Bugungi kunda yangi turar-joy majmualarining qurilishi turli xil qiyofadagi avtoturargohlarni qurish nuqtai nazaridan tashkiliy va rejalashtirish yechimlarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi va ko'pchilik aholini avtomobillari uchun to'xtash joyi bilan ta'minlash muammosini hal qilishi mumkin. Biroq, belgilangan avtoturargohga ega yangi turar-joy majmualarini qurish mavjud muammoni to'liq hal qila olmaydi, chunki bugungi kunda eski uy-joy fondi buning uchun hudud yo'qligi sababli to'xtash joylari bilan yetarli darajada ta’minlanmagan. Shunday qilib, zamonaviy sharoitlarda transport vositalari uchun kerakli miqdordagi avtoturargohlarni yaratish va rivojlantirish bo'yicha yechimlarni izlash muhim vazifadir.

Tadqiqot maqsadi: Avtoturargohlarni rivojlantirish orqali shaharlarning yo'l tarmog'idagi transport yukini kamaytirish va hovli hududlaridagi tirbandlikni qisman bartaraf etish bo'yicha tizimli yechimlarni takomillashtirishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Avtotransport vositalarini shaharning asosiy elementlaridan biri sifatida rivojlantirish, uning aholisining xavfsiz harakatlanishi va barcha transport vositalari bilan bog’liq bo'lgan ehtiyojlarini qondirish davlatimizning diqqat markazida bo’lib kelmoqda. Bir tomondan, har qanday shaharning transport tizimi aholi uchun hayot manbai bo'lib, transport xizmatlariga bo'lgan talabini qondirsa, boshqa tomondan, transportning ko'payishi bilan mavjud transport va yo'l tarmog'ining sig'imi o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladi. Avtoulovlarning asossiz to'xtab turishi, undan ham yomon tomoni to'xtash joylarining etishmasligi piyodalar va transport vositalari harakatini tashkil etishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu masalalarni hisobga olib shuni aytish mumkinki, transport tizimining ajralmas qismi bo‘lgan avtoturargohlar shaharsozlik va yo‘l harakati mutaxassislari oldida turgan jiddiy muammodir.

Avtoturargohlar muammosi nafaqat Mamlakatimiz shaharlarida, balki butun dunyoda keskin masalalarga aylanib bormoqda.

Avtoturargohlarni tashkil etish va boshqarish bo'yicha fundamental qarorlar xorijiy mamlakatlar tajribasini hisobga olgan holda davlat, mintaqaviy va shahar darajasida qabul qilinishi kerak. Masalan, Fransiyada avtoturargoh xizmatlarini boshqarish muammolarini hal qilish davlat darajasiga ko’tarilgan. Avstriyada shaharlarda avtoturargohlarini tashkil qilishda takomillashtirilgan to'xtash qoidalari taklif qilingan.

So'nggi o'n yillikda shaharlarda transport vositalarining o'sishi yo'llarda tirbandlik muammosini keltirib chiqardi va mavjud to'xtash joylarining etishmasligiga olib keldi. Umuman

olganda, Mamlakatimizda 2024 yilning 1 yanvar holatiga ko’ra jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomobillar soni 4 020 744 tani tashkil etgan. Shunga ko‘ra, yengil avtomobillar soni har 1000 kishiga 98 tani tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich O’zbekiston shaharlarida, masalan, 586 ming kishilik Samarqand shahrida farq qiladi, viloyatda jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomobillar soni 417 165 tani tashkil etib, motorizatsiya darajasi har 1000 aholiga 276 ta avtomobilga yetdi. Va bu motorizatsiya darajasida "Turar joy, jamoat va dam olish maskanlarida avtoturargoxlarni xisoblashning normalari" ga mos kelmay qolmoqda.

Yo'l-transport infratuzilmasi o'tgan asrning o'rtalarida, ob'ektiv ravishda yo'l harakati uchun mutlaqo boshqacha sharoitlar mavjud bo'lgan paytda tashkil etilgan. Uyushtirilgan to'xtash joylari, avtoulovlarni saqlash joylari va joylari tizimini rivojlantirish avtoturargohning o'sish sur'atlaridan sezilarli darajada past.

Shaharlarda shaxsiy avtotransport vositalarini saqlash joylarini tashkil etish, to'xtash joylarini tashkil etish, transport vositalari va piyodalar harakatini tashkil etish masalasini bir necha bor ko'targanmiz. Ta'kidlanishicha, "bu muammolarga yechim topilmagani sababli, avtomobillar kunduzi shahar ko'chalarining qatnov qismida to'xtab qolib, allaqachon cheklangan o'tish qobiliyatini pasaytiradi". Munitsipalitet tomonidan avtoturargohlarni rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar transport vositalarining har yili sezilarli darajada oshishi bilan etarli emas. Bu muammo, ayniqsa, shaharning markaziy, janubi-sharqiy va g'arbiy qismlarida tirbandlik vaqtida keskinlashadi.

Shaharlarda motorizatsiyaning jadal jarayonlari avtoulovlarni to'xtash joyi uchun hovli maydonlaridan o'z-o'zidan foydalanishga olib keldi. Mamlakatimizning ko'pgina shaharlariga kelsak, Samarqand shahrida, ayniqsa, uning markaziy va "uyqu" mahallalarida individual avtotransportni saqlashning o'tkir muammosi mavjud. Turar-joy qurilishi uchun hovli maydonlari maydoni yo'qligi sababli, avtoulovlar shaharda qolmoqda. yo‘l tarmog‘ining qatnov qismining yon tomonlari, bu orqali transport harakati harakatiga to‘sqinlik qiladi. Turarjoy binolarining hovli hududlari (maysalar, bolalar maydonchalari, yashil maydonlar, yo‘laklar) avtoturargohga aylanib, aholi xavfsizligiga tahdid solib, ekologik holatni yomonlashtirmoqda.

Davom etayotgan motorizatsiya jarayoni shaharlardagi ekologik vaziyatni yomonlashtirmoqda va vaqt o'tishi bilan ekologik toza "yashil" shahar va uning aholisi atrof-muhitga, havo va tuproqning ifloslanishiga salbiy ta'sir ko'rsatish xavfiga duchor bo'lmoqda.

Shaharlarda transport vositalarini saqlash usuli, asosan, avtomobillarni erkin ochiq maydonda yoki ko'p qavatli binolarning hovlilarida saqlashdir. Ko'p qavatli uylarning aholisi

o'z mashinalarini, qoida tariqasida, yo'l bo'ylab, hovlilarda, ko'pincha yashil maydonlarda, shuningdek, birinchi qavatlardagi kvartiralarning derazalari ostida qo'yishadi. Aksariyat shahar hovlilarida to‘xtash joylarini tashkil qilish tahlili shuni ko‘rsatdiki, tartibsiz to‘xtab turgan avtomobillar maxsus transport vositalarining o‘tishiga to‘sqinlik qiladi: tez yordam, yong‘in va kommunal xizmatlar, shaxsiy qo‘riqlash.

Shaharlarda avtoturargohlarni tashkil etish sohasidagi vaziyatni baholar ekanmiz quyidagilarni alohida ta'kidlab o’tishimiz lozim: shahar hududidagi avtotransportlarni to'xtash joylari va vaqtincha saqlash ob'ektlarining mutlaq ko'p qismini markaziy bozor hududi, universitetlar, davlat muassasalari shuningdek, savdo va ko'ngilochar markazlar yaqinida tashkil etadi.

Avtoulovlarni turar-joy binolari bilan chegaralangan ichki hovli hududida va turar-joy binolarining tashqi konturi bo'ylab to'xtash mumkin. O'yin maydonchalari va yashil maydonlar, piyodalar yo'llari ko'pincha hovlilarda to'xtash joyiga aylanadi. Bu aholining noqulayliklari va bezovtalanishiga, bolalarning sayrga chiqishida hayot va sog'liq xavfsizligining pasayishiga, shuningdek, estetik ko'rinishining yomonlashishiga va hovlilarning ekologiyasining buzilishiga olib keldi (1-rasm).



1-rasm. Maysalar ustidagi avtoturargoh.

Hovlilarda o't qoplami buziladi, butalar quriydigan ko'rinishga ega, natijada tuproq degradatsiyasi sodir bo'ladi. Avtoulovlarning turar-joy binolariga kirish eshigi yaqinida joylashganligi tez yordam mashinalarining kasallarga, kommunal xizmat ko'rsatish va yong'inga qarshi xizmat xodimlariga o'tishiga to'sqinlik qilishi mumkin (3-rasm).

Ko’p qavatli turar-joy majmualarining hovli maydonlarini o'rganish tahlili natijasida turar-joy binolarining hovli maydonlari ichida va yaqinida transport vositalarining to'xtab turishi bilan bog'liq bir qator muammolar aniqlandi:

– fuqarolarning xavfsizligini pasaytirish;

– hovli hududini obodonlashtirish darajasi va odamlarning yashash va dam olish joylarida qulaylik sharoitlarini pasaytirish;

– hovlilarning avtomashinalar bilan tiqilib qolishi va buning natijasida hovli hududidan maxsus avtomashinalarning (tez yordam, yordamchi transport vositalari) avariyaviy o‘tish imkoniyatining yo‘qligi;

– atrof-muhitning ifloslanishi, aholi salomatligiga salbiy ta'siri;

– piyodalar zonasining eskirishi, hovlilardagi landshaft va o'simlik qoplamining buzilishi;

– ko'p qavatli turar-joy binolari yaqinidagi yo'lda to'xtab qolgan avtomobillar tufayli shahar ko'chalarining o'tkazuvchanligining pasayishi.



2-rasm. Piyodalar va piyodalar o'tish joylarida avtoturargohlar.



3- rasm.Turar-joy binolariga kirish va kirish joylari yaqinidagi avtoturargohlar.

Shu bois uzoq muddatli va qisqa muddatli rivojlanish nuqtai nazaridan shaharning yo‘l-transport infratuzilmasini, odamlarning hayot sifatini, atrof-muhit holatini yaxshilash, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yechimlar zarur. Yo'l tarmog'ining transport yukini kamaytirish, yo'l infratuzilmasini yaxshilash va shahar aglomeratsiyasi hududida barcha ishtirokchilar uchun harakat xavfsizligini ta'minlash muammosini hal qilishning quyidagi yo'llari mumkin :

1. Strategik (davlat darajasida):

– ko’p qavatli binolarni qurish bo'yicha barcha loyihalarda aholining yakka tartibdagi engil avtomashinalar bilan ta'minlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda jihozlangan to'xtash joylari bo'lishi kerak.

– mavjud turar-joy binolari yaqinida avtoturargohlarni tashkil etish muammosini hal qilishning eng samarali usuli - bu to'xtash joylari uchun bepul shahar maydonlaridan foydalanish.

2. Taktik:

– to‘xtash joylari sonini ko‘paytirish, shahar hududidagi mavjud avtoturargohlarda ko‘p pog‘onali yer usti to‘xtash joylari turi bo‘yicha markazlashtirilgan avtoturargoh tizimini tashkil etish;

– to'xtash joylarida (yashil maydon, bolalar maydonchasi) bo'lmagan avtomashinalarni uchastka komissiyalari tomonidan majburiy nazorat qilish;

– bo'sh joylar mavjudligini ko'rsatadigan intellektual qurilmalar bilan jihozlangan mobil ilova orqali ma'lumot bilan ta'minlangan avtomatik to'xtash tizimlari;

– mavjud qo'shni hududlarni mexanizatsiyalashgan to'xtash joylari bilan tartibga solish.

Shaharlarimizda avtoulovlarni to'xtash joyi bilan bog'liq mavjud muammolar mavjud qo'shni hududlarga ega uy-joy fondining ko'p qismi sovet davrida har bir uyga 5-10 ta mashinadan qurilganligi sababli yuzaga keldi. Bu turar-joylarda avtomashinalarni vaqtincha saqlash uchun ochiq to'xtash joylarini tashkil etish to'g'risidagi me'yoriy hujjatdan kelib chiqadi, bu mavjud shaxsiy avtomashinalar parkining 25 foizi miqdorida.

Zamonaviy shaharsozlik sharoitida to'xtash joylari soni Shaҳarsozlik normalari va qoidalarining 19-ilovasiga muvofiq tartibga solinadi, qulaylik darajasi bo'yicha turar-joy binosining turiga qarab, ya'ni to'xtash joylari soni ularning soniga bog'liq. Normativ-huquqiy bazada loyiha shartlari, avtomobillarni to'xtash joylari (saqlash) joylashuvi ko'rsatilgan. Yuqoridagi hujjatlar, xususan, ko'p qavatli turar-joy majmualarini qurish nuqtai nazaridan , mintaqadagi avtoulovlar darajasini hisobga olgan holda, avtoturargohlarni tashkil etish shartlarini aks ettirmaydi. Shaharlardagi "Turar joy, jamoat va dam olish maskanlarida avtoturargoҳlarni ҳisoblashning normalari" asosida 2 xonadonga 1 ta avtomobil uchun motorizatsiya darajasidan kelib chiqqan holda avtomobillarni saqlash joylari ajratilgan.

Shunday qilib, yangi turar-joy binolarini (majmualarini) qurish jarayonida SHNQ 2.07.01-03 da ko'rsatilgan shartlar ishlab chiquvchi uchun minimal talablar bo'lishi kerak. Turar-joy majmuasidagi har bir ko'p qavatli bino uchun to'xtash joylari sonini aniqlashda majburiy

talab, agar u me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilganidan oshsa, ma'lum bir shahardagi motorizatsiya darajasini hisobga olishni taklif qilamiz.

Yo‘l tarmog‘ining qatnov qismini turgan avtomobillardan ozod qilish muammosini hal qilish uchun turar-joy binosi, ma’lum bir mikrorayon, shahar miqyosida samarali avtoturargoh tizimini yaratish zarur, deb hisoblaymiz. Ushbu tizim quyidagilarga asoslanishi kerak:

– turar-joy hududida va UDS yo'lida to'xtab turgan transport vositalari to'g'risidagi statistik ma'lumotlar;

– shahardagi avtomashinalar darajasini hisobga olgan holda hovlilarda zarur bo'lgan to'xtash joylari sonini hisoblash;

– hovli hududida avtomobillar uchun to'xtash joylarini joylashtirish modellarini yaratish.

XULOSA

Shaharlar aglomeratsiyasi hududida yengil avtomobillarning doimiy o'sishi asta-sekin turar-joy hovlilaridan foydalanish darajasining oshishiga olib keldi, qo'shni hududlarning yo'l tarmog'ida katta transport yukini keltirib chiqardi. Shaxsiy foydalanish uchun transport vositalari sonining o'sishi va kelajakda yo'l infratuzilmasini rivojlantirish o'rtasidagi nomuvofiqlik yo'l tarmog'ining har bir uchastkasida o'tkazish qobiliyatini pasaytirish muammosini mahalliylashtirishga olib kelishi mumkin.

Shahar ko'chalari va yo'llarining transport yukini kamaytirish muammosi-ning taklif etilayotgan yechimi shaharda avtotransport darajasini hisobga olgan holda to'xtash joylarini rivojlantirishdan iborat.

REFERENCES

1. SHNK 2.07.01-03. “Urban planning. Planning and development of urban and rural settlements. "

2. Achildiyev, R. M., & Otabekova, D. (2022). Yirik shaharlarda transport muammolarini hal etishda xorijiy tajribalar. Academic research in educational sciences, 3(11), 496-502.

3. Ачилдиев, Р. М., Каримова, З. З., & Фозилова, Ш. Р. (2023). МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПЛАНИРОВОЧНОГО РЕШЕНИЯ" КРАТКОСРОЧНЫХ" АВТОСТОЯНОК. PROBLEMS OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION (SCIENTIFIC TECHNICAL JOURNAL), 1(2), 700-703.

4. Eshatov, I. K., & Achildiyev, R. M. (2023). PLACEMENT OF COMMERCIAL AND DOMESTIC SERVICE COMPLEXES TAKING INTO ACCOUNT NATURAL AND CLIMATIC

REGIONS IN THE REGIONS OF UZBEKISTAN. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 80-86.
5. Maxmadaliyevich, A. R., & Payzullayevna, S. N. (2023). Experimental Studies of Brick Masonry on Climatic Action Impacts. Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science, 2(4), 69-73.
6. YER OSTI MAKONIDAN AVTOTURARGOHLAR UCHUN FOYDALANISH.Тенденции и перспективы развития городов Сборник международной научно-практической конференции Ташкент-2023 стр.105-107.

CONTENTS

1. Shorakhmetov, S. S. (2024). THE EFFECTIVENESS OF USING AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING ENGLISH TO NON-NATIVE SPEAKERS. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 5-11.

2. Nuriddinov, S. B. (2024). THE HISTORY OF EMERGENCE OF THE CONCEPT OF ONE PLACE ONE WAY IN OUR COUNTRY. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 12-15.

3. Нуриддинов, С. Б. (2024). ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПОНЯТИЯ “ТРАНСПОРТНЫЕ КОРИДОРЫ” В НАШЕЙ СТРАНЕ. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 16-20.

4. Юсупов, М. (2024). О МИРНОМ ДОГОВОРЕ РАМЗЕСА II С ХАТТУСИЛИСОМ III. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 21-25.

5. Rustamov, E. R. (2024). O‘QUVCHILARNING YOSHINI HISOBGA OLIB HARAKATLI O‘YINLARNI TANLASH. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 26-29.

6. Juraboyev, M. M. (2024). YOSH VOLEYBOLCHILARNING TEZKORLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 30-34.

7. Aminjonov, H. H., & Buronov, A. Q. (2024). QADIMIY MAHALLIY YUMSHOQ BUG'DOY NAVLARINING HOSILDORLIK BELGILARI TAHLILI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 35-41.

8. Raximov, B. S., & O‘razmatov, T. Q. (2024). TASVIRLARNI SIQISHDA CHEGARAVIY QIYMAT ORQALI HAAR VEYVLET KOEFFITSENTLARINI SARALASH ALGORITMINI ISHLAB CHIQISH. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 42-48.

9. O‘razmatov, T. Q., & Raximov, B. S. (2024). TASVIRLARDA DISKRET VEYVLET O‘ZGARTIRISHLARNI AMALGA OSHIRISH ALGORITMI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 49-56.

10. Begimov, O. T. (2024). ILMIY VA BADIIY USLUBGA TEGISHLI MATNLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 57-66.

11. Esirgapova, U. X. (2024). XASHAKI LAVLAGI (BETA VULGARIS.S) NING PARVARISHLASH AGROTEXNIKASI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 67-73.

12. Axrorova, M. (2024). USING ROLE-PLAYING TO ENHANCE COMMUNICATION SKILLS IN LANGUAGE LEARNING. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 74-82.

13. Amiri, Z., & Jahesh, G. (2024). ADOLESCENT CHALLENGES IN VIRTUAL EMOTIONAL RELATIONSHIPS. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 83-90.

14. Ernazarov, A. N. (2024). P5BL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING FIZIKTEXNIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 91-99.

CONTENTS

15. Ma'murjonova, R. Z. (2024). YUQORI SINF O'QUVCHILARINING KUCH JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAXSUS MASHQLAR QO'LLASH SAMARADORLIGI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 100-108.

16. Saitov, M. M., & Tillaboyev, A. M. (2024). "QUYOSH AKTIVLIGI" MAVZUSINI SOHALARGA YO'NALTIRIB O'QITISH METODIKASI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 109-115.

17. Berdiyev, S. X. (2024). PEDAGOGIK OLIY TA'LIM MUASSASASIDA BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARI UCHUN METODIK TAYYORGARLIK TIZIMINI AMALGA OSHIRISHDA SUBYEKT-REFLEKTIV TA'LIM STRATEGIYASI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 116-122.

18. Tursunov, I. G., & Umbarov, A. U. (2024). INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYASI ASOSIDA ELEKTROMAGNETIZM BO'LIMINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH METODIKASI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 123-129.

19. Aliyarov, M. A., & Abdullaev, F. X. (2024). MOSH NAVLARINING TASHQI MUHITNING STRESS OMILLARIGA- SHO'RLANISHGA CHIDAMLIGINI BAHOLASH. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 130-134.

20. Axmedov, J. A., Sabirov, Q. E., Ermatov, S. Q., Tolibayeva, S. I., & Jumaboev, A. S. (2024). PAXTA-IPAK BIKOMPONENT YIGIRILGAN IPI SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 135-143.

21. Urazaliyeva, M. Y. (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA MEDIA TA'LIM. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 144-148.

22. Jo'rayev, H. M. (2024). MEDIA TA'LIMNI O'RGANISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 149-155.

23. Ruziyev, A. B. (2024). ME'MORCHILIKDA ROMANESK VA GOTIK USLUBLAR (QADIMGI RIM MISOLIDA). *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 156-160.

24. Ахатов, Л. К. (2024). ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ МУТАФАККИРЛАР ИЛМИЙ МЕРОСИДАГИ ЎРНИ. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 161-166.

25. Aminova, M. T. (2024). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASRIDA AKADEMIK YOZUV: AN'ANAVIY VA INNOVATSION METODLARNING UYG'UNLASHUVI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 167-171.

26. A'zamova, D. S. (2024). O'ZBEK VA INGLIZ MADANIYATI DOIRASIDA OLAM MILLIY MANZARASINI AKS ETTIRUVCHI BIRLIKLARNING UMUMIY TAVSIFI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 172-175.

27. Alibaeva, L. N. (2024). SYNTAX, SEMANTICS, AND PRAGMATICS IN TEXT INTERPRETATION: THE ROLE OF LINGUISTIC STRUCTURE IN MEANING-MAKING. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 176-179.

CONTENTS

28. Amanova, Y. X. (2024). THE SPIRITUAL AND MORAL VIEWS OF REMARQUE'S WORK THAT INFLUENCED UZBEK PROSE. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 180-182.

29. Eshniyozov, U. A. (2024). AEROZOLI ATMOSFERANING ULTRAQISQA LAZER IMPULSLARINING FILAMENTATSIYA JARAYONIGA TA'SIRI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 183-189.

30. Kenjabaeva, D. A. (2024). PRACTICAL STRATEGIES FOR INTERACTIVE BILINGUAL LEARNING IN CLIL. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 190-192.

31. Pardaboyev, S. Z., & Mo'minov, H. A. (2024). NO'XAT (CICER ARIETINUM L.) O'SIMLIGI NAV VA NAMUNALARIDAGI HOSILDORLIK BELGILARI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 193-197.

32. Sanaqulov, A. N. (2024). VIRTUAL REALLIK FALSAFIY MUAMMO SIFATIDA. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 198-204.

33. Shadieva, S. S., & Khujanova, O. T. (2024). REFLECTION OF SPIRITUAL PROBLEMS IN RUSSIAN SOCIETY THROUGH THE LENS OF RUSSIAN LITERARY TRADITION. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 205-208.

34. Sobirova, F. A. (2024). LAGOXILINNING YANGI SUPRAMOLEKULYAR KOMPLEKS BIRIKMALARINI BARQARORLIGI VA REOLOGIK XOSSALARI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 209-217.

35. Khurramova, N. A. (2024). USING CONTRASTIVE ANALYSIS TO TEACH ENGLISH TO UZBEKSPEAKING LEARNERS. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 218-222

36. Бобоёров, Б. Н., & Бобоёров, Ш. Б. (2024). ВЗАИМОВЫГОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ С СТРАНАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 223-233.

37. Рузиев, Х. Д., & Абдуллаева, А. А. (2024). НАРОДНЫЕ ИГРЫ В ФОРМИРОВАНИИ ЭТНОКУЛЬТУРЫ. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 234-238.

38. Tursunov, R. B. (2024). OLIY TA'LIMDA O'QUV JARAYONINING TASHKILIY-ILMIY METODOLOGIK ASPEKTLARI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 239-245.

39. Boboyeva, F. F. (2024). "MODERN APPROACHES TO TEACHING ENGLISH: EFFECTIVE STRATEGIES FOR CLASSROOM SUCCESS". *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 246-254.

40. Mukhammadieva, M. I. (2024). BASKETBOL VA JAMOAVIYLIK: MUVAFFAQIYATNING KALITI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 255-264.

41. Boboyeva, F. F. (2024). "MODERN APPROACHES TO TEACHING ENGLISH: EFFECTIVE STRATEGIES FOR CLASSROOM SUCCESS". *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 265-270.

CONTENTS

42. Sabirov, A. A. (2024). YOSH VOLEYBOLCHILARNING SAKROVCHANLIGINI RIVOJLANTIRISHDA OYOQ KUCHI UCHUN BERILADIGAN MAXSUS MASHQLARNING NAZARIY ASOSLARI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 271-276.

43. Normurodov, B. H., & Khudoyorov, B. R. (2024). ENERGY-EFFICIENT EQUIPMENT AND TECHNOLOGY FOR DRYING AGRICULTURAL AND FRUIT-VEGETABLE PRODUCTS. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 277-280.

44. Sulaymonov, M. S. (2024). MASHG'ULOTLARDA SUZUVCHILARNI TEZLIGIGA BO'LGAN ASOSIY TALABLAR. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 2812-284.

45. Yo'ldasheva, N. R. (2024). YARIMO'TKAZGICHLI DETEKTORNING ABSOLYUT EFFEKTIVLIGINI ANIQLASH. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 285-290.

46. Юлдашов, З. Ш. (2024). ОБУЧЕНИЕ ДЕТЕЙ 13-14 ЛЕТ ТЕХНИЧЕСКИМ И ТАКТИЧЕСКИМ ДВИЖЕНИЯМ ИГРЫ В БАСКЕТБОЛ ПОСРЕДСТВОМ СПЕЦИАЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ И ИГР-ДЕЙСТВИЙ. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 291-294.

47. Баймуханов, Б. И., Кабенова, И. Р. (2024). ИДЕЙНО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ МОТИВИРОВАННОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СТИЛИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ И ИХ ОРГАНИЗАЦИЯ В ЯЗЫКЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (НА ОСНОВЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ВИКТОРА ПЕЛЕВИНА). *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 295-303.

48. Pulatov, S. U., & Djumaniyzov, O. B. (2024). ATMOSFERA VA ATROF-MUHITGA SALBIY TA'SIR QILUVCHI MODDALARNI NAZORAT QILISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 304-307.

49. Хайтметов, Р. К. (2024). ТАЪЛИМГА АКМЕОЛОГИК ЁНДАШУВ. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 308-314.

50. Maraimova, M. S., & Ma'murov, G. N. (2024). CHET TILLARINI O'RGATISH VA UNDAGI SAMARALI METODLARDAN FOYDALANISHNING O'RNI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 315-318.

51. Muhammad, H. A., Mohammad, N. R., & Inanch S. (2024). EFFECT OF BIOLOGICAL MATERIALS ON THE ENVIRONMENT. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 319-337.

52. Karimi, M., & Latif Maftunzada, S. A. (2024). THE ESSENTIAL FUNCTION OF ELECTROMAGNETIC WAVES IN ADVANCED TELECOMMUNICATION. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 338-345.

53. Mohammad, M. S. (2024). CHROMOSOMAL STUDIES IN CELL THERAPY AND ITS APPLICATIONS. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 346-358.

CONTENTS

54. Aminjonov, H. H., & Buronov, A. Q. (2024). QADIMIY MAHALLIY YUMSHOQ BUG'DOY NAVLARINING HOSILDORLIK BELGILARI TAHLILI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 359-365.

55. Tajibaeva, D. E. (2024). XX ASRNING SO‘NGGI CHORAGI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA OLOV TIMSOLI IFODASI. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 366-371.

56. Achildiyev, R. M. (2024). SHAHAR TURAR-JOY HUDUDLARIDA AVTOTURARGOHLARNI RIVOJLANTIRISH BO’YICHA YECHIMLAR. *Academic Research in Educational Sciences*, *5*(11), 372-379.